

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute

Fizika-matematika fakulteti

“Fizika o‘qitish metodikasi” kafedrası

**NAZARIY FIZIKA
(KVANT MEXANIKASI)**

fanidan

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi: 100000 – Ta’lim

Ta’lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta’lim yo‘nalishi: 5110200 – Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi

Nukus – 2020

Fanning O'quv-uslubiy majmuasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan (2017-yil 18-avgust kuni, Ro'yxat raqami BD-5110200-3.05) "Nazariy fizika" Fan dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi 107-sonli buyrug'i (2017-yil 1-mart kuni) talablariga uyg'un shaklda rasmiylashtirilgan.

Tuzuvchi:

Yavidov B. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, f-m.f.d.

Taqrizchilar:

Atashov B. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, f-m.f.n.

Turdanov K. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsenti, f-m.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasining 2020- yil «___» - _____
dagi № ___ - sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun
tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

Kamalov A.

Fanning ishchi o'quv dasturi Fizika-mehnat fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga
tavsiya qilingan (2020-yil «___» _____ № ___ - sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi:

Jiyemuratov R.

Fanning ishchi o'quv dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ilmiy-uslubiy
Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2020-yil "___" _____ dagi ___sonli majlis
bayoni).

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

_____ Abdiev A

O‘QUV USLUBIY MAJMUA

MUDARIJASI

1. O‘quv materiallari
 - Ma’ruza materiallari (matnlar)
 - Amaliy mashg‘ulot materiallari
 - Seminar mashg‘ulot materiallari
2. Mustaqil ta’lim materiallari
3. Glossariy
4. Ilovalar
 - Namunaviy dastur
 - Ishchi fan dasturi
 - Tarqatma materiallar
 - Testlar
 - Baholash mezonlari
 - Qo‘shimcha (boshqa) materiallar
 - Masalalar to‘plami
 - Nazarot savollari
 - Umumiy savollar
 - Adabiyotlar ro‘yxati
 - Xorijiy manbalar
 - Foydali maslahatlar

I. QORA JISM NURLANISHI.

Jismning ichki energiyasi hisobiga sodir bo'luvchi elektromagnit nurlanishi issiqlik nurlanishi (IN) deb ataladi. IN har qanday haroratda ro'y beradi. Ammo past haroratlarda asosan infraqizil elektromagnit to'liqlar nurlanadi. Harorat ortishi bilan nurlanishning umumiy energiyasi ortadi va shu bilan birga nurlanish energiyasi spektr zichligining maksimumi qisqa to'liq uzunliklari sohasiga siljiydi. Tasavvur etingki, biror jism nurlanishni to'liq qaytaruvchi ichki sirtga ega bo'lgan qobiq bilan o'ralib (Fig.1) va qobiq ichidagi havo so'rib olingan bo'lsin. Qobiq ichida nurlanish jismda qisman yutilib, qisman qaytadi. Shu bois nurlanish va jism orasida uzluksiz energiya almashuvi sodir bo'ladi. Bu energetik almashuv nurlanishdagi har bir to'liq uzunligi uchun ham o'rinalidir. Agar, jism va nurlanish orasidagi energetik taqsimot har bir to'liq uzunligi uchun o'zgarmay qolaversa, jism-nurlanish sistemasi muvozanatli bo'ladi. Tajriba, jism bilan faqat ISI muvozanat holatida bo'lishligini ko'rsatadi. ISining bu xususiyati, uning intensivligi harorat ko'tarilishi bilan ortishi bilan taminlangan. Agar, muvozanat holati qanday sabablarga ko'ra buzilsa, masalan, jism nurlanishni yutishiga nisbatan ko'proq chiqara boshlaydi. Oqibatda uning ichki energiyasi yani harorati kamayadi. Bu esa o'z navbatida jism nurlanishi energiyasining kamayishiga olib keladi. Haroratning bunday kamayishi jism yutayotgan nurlanish energiyasi va u chiqarayotgan nurlanish energiyasi tenglashguncha davom etadi. Agar jism va nurlanish orasidagi muvozanat boshqa tomonga buzilsa, yani jism chiqarayotgan nurlanish energiyasi yutilayotgan nurlanish energiyasidan kam bo'lsa, jism harorati orta boshlaydi. Haroratning bunday ortishi yana nurlanishning yutilish va chiqarish energiyalari tenglashguncha davom etadi. Demak, nurlanish va jism orasidagi muvozanatning buzilishi bu muvozanatni tiklashga intiluvchi jarayonlarni keltirib chiqaradi. Muvozanatli holatlarga va jarayonlarga nisbatan termodinamika qonunlarini qo'llash mumkin. Shu sabab IN termodinamika qonunlariga amal etadi. IN intensivligini *Watt* da o'lchaymiz va u vaqt birligida nurlanuvchi nurlanish energiyasini anglatadi. Jismning birlik sirtidan barcha yo'nalishda (2π fazoviy burchak ichida) tarqaluvchi nurlanish oqimi energiyasi jismning *energetik yorqinligi* (EY) deb ataladi va R bilan belgilanadi. Jismning EY haroratga bog'liq. Nurlanish har xil to'liq uzunliklarga yoki chastotalarga ega to'liqlardan tashkil topgan. Jismning birlik sirtidan tarqaluvchi va $d\omega$ chastota intervali mos keluvchi nurlanuvchi energiyasi oqimini dR_ω bilan belgilaymiz. Juda kichik $d\omega$ intervalda $dR_\omega \sim d\omega$ bo'ladi yoki

$$dR_\omega = r_\omega d\omega. \quad (1)$$




FIG. 1: Ichki sirti ideal qaytarish xususiyatiga ega bo'shliqda jism va nurlanish orasidagi muvozanat.

r_ω kattalik jismning *nurlanuvchanligi* yoki *nurlanuvchanlik qobiliyati* (NQ) deb ataladi. r_ω ham EY kabi jismning haroratiga bog'liq. Demak, $r_\omega = f(T, \omega)$. Jismning EY va NQ o'zaro

$$R_T = \int dR_{\omega,T} = \int_0^\infty r_\omega d\omega \quad (2)$$

munosabat bilan bog'liq. Nurlanishni to'liq uzunligi bilan ham tavsiflash mumkin. $d\omega$ chastota intervaliga $d\lambda$ to'liq uzunligi intervali mos keladi. $\lambda = 2\pi c/\omega$ ni differentsiallab

$$d\lambda = -\frac{2\pi c}{\omega^2} d\omega = -\frac{\lambda^2}{2\pi c} d\omega \quad (3)$$

ni topamiz. (3) formuladagi "-" ishora chastotaning ortishi bilan to'liq uzunligi kamayishini va aksincha bo'lishini anglatadi. EY ning $d\lambda$ intervaliga mos keluvchi qismi (1) ga o'xshash

$$dR_\lambda = r_\lambda d\lambda. \quad (4)$$

formula bilan beriladi. Ammo, $dR_\omega = dR_\lambda$ bo'lishi kerak va shu sabab $dr_\omega d\omega = dr_\lambda d\lambda$ tenglik ham bajari-ladi. Oxirgi formulani (3) yordamida

$$dr_\omega d\omega = dr_\lambda \frac{2\pi c}{\omega^2} d\omega = r_\lambda \frac{\lambda^2}{2\pi c} d\omega \quad (5)$$

yoki

$$r_\omega = r_\lambda \frac{2\pi c}{\omega^2} = r_\lambda \frac{\lambda^2}{2\pi c} \quad (6)$$

deb yozsak bo'ladi. (6) formula yordamida r_ω dan r_λ ga va teskari o'tish mumkin.

Biror jismning sirtining elementar maydonchasiga chastotasi $d\omega$ intervalda yotuvchi nurlanish tushsin va bu nurlanish energiyasi oqimi $d\Phi_\omega$ bo'lsin. Nurlanish energiyasining biror $d\Phi'_\omega$ qismi shu qaralayotgan maydonchada yutulsin. U holda

$$a_{\omega,T} = \frac{d\Phi'_\omega}{d\Phi_\omega} \quad (7)$$

kattalik jismning *nur yutuvchanlik qobiliyati* (NYQ) deb ataladi. Jismning NYQ uning harorati va nurlanish chastotasi funktsiyasidir. Ta'rif bo'yicha $a_{\omega,T}$ birdan katta bo'lishi mumkin emas. Jism sirtiga tushuvchi barcha chasotalarga tegishli nurlanish energiyalarini to'laligicha yutuvchi jism *absolyut qora jism* (AQJ) deb ataladi va u uchun $a_{\omega,T} \equiv 1$. NYQ $a_{\omega,T} < 1$ bo'lgan jismlar kulrang jismlar deyiladi.

II. KIRXGOF QONUNI

Jismning NQ va NYQ orasida o'zaro bog'lanish mavjud. Bunga quyidagi fikran tajriba yordamida ishonch hosil qilish mumkin. Devorlari doimiy haroratda ushlab turiluvchi bo'shliqni qaraymiz (Fig.2). Bo'shliqning ichki devori ideal qaytarish xossasiga ega bo'lsin. Agar bo'shliq ichiga uchta jism kiritsak, ular orasida energiya almashish faqat IN orqali bo'ladi. Tajribalarning ko'rsatishicha vaqt o'tishi bilan jismlar va nurlanish orasida muvozanat o'rnatiladi. Hamma jismlar harorati bo'shliq devori haroratiga tenglashadi. Katta NQ $r_{\omega,T}$ ga ega jismning birlik maydonidan vaqt birligida ko'p nurlanish energiyasi chiqadi. Kichik NQ $r_{\omega,T}$ ga ega jismning birlik maydonidan vaqt birligida esa kam nurlanish energiyasi chiqadi. Jismlarning harorati o'zgarmaganligi bois, ko'p nurlanish energiyasi taratuvchi jism ko'p nurlanish energiyasini ham yutishi lozim. Yani jismning NQ qancha ko'p bo'lsa, uning NYQ ham shunchalik katta bo'lishi kerak. Bundan jismlarning NQ va NYQ lari nisbati bir xil degan xulosa kelib chiqadi:

$$\left(\frac{r_{\omega,T}}{a_{\omega,T}}\right)_1 = \left(\frac{r_{\omega,T}}{a_{\omega,T}}\right)_2 = \left(\frac{r_{\omega,T}}{a_{\omega,T}}\right)_3 = \dots, \quad (8)$$

bu yerda 1, 2, 3 indekslar ifodaning mos ravishda birinchi, ikkinchi va uchinchi jismga tegishli ekanligini anglatadi.

(8) munosabat *Kirxgof qonuni* formulasini ifodalaydi. Bu qonun Kirxgof tomonidan 1860 yili nazariy yo'l bilan topilgan. Kirxgof qonunining mohiyati quyidagicha: *jismning NQ ning NYQ ga nisbati jism turiga bog'liq emas va barcha jismlar uchun bir xil bo'lib faqat chas-tota va harorat funktsiyasidir*:

$$\frac{r_{\omega,T}}{a_{\omega,T}} = f(\omega, T). \quad (9)$$




FIG. 2: Jismlar devori doimiy haroratda ushlab turiladigan bo'shliqda o'zaro nurlanish orqali energiya almashadilar. Bo'shliqning ichki sirti ideal qaytarish xossasiga ega.

Bunda $f(\omega, T)$ Kirxgofning universal funktsiyasi deb ataladi. Bir jismdan boshqa jismga o'tganda NQ va NYQ larning qiymatlari juda katta o'zgarishlarga uchrasa hamki, ularning nisbati o'zgarmaydi. Yani bu nisbat barcha jismlar uchun teng! Bu qonundan jism qanday chastotali nurlanishni yaxshi yutadigan bo'lsa, aynan shu chastotali nurlanishni ko'p tarqatishi kelib chiqadi. AQJ uchun NYQ $a_{\omega,T} = 1$. Shu sababli AQJ ning NQ Kirxgofning universal funktsiyasiga teng: $a_{\omega,T} = f(\omega, T)$. Yani Kirxgofning universal funktsiyasi bu AQJ ning NQ ekan. Ba'zida, Kirxgofning universal funktsiyasini nurlanishning spektr taqsimoti funktsiyasi deb ham atashadi. Nazariy tadqiqotlarda nurlanishning spektral tarkibini tavsiflash uchun Kirxgof universal funktsiyasini chastota orqali bog'lagan yaxshi. Ammo, tahrirani tahlil etishda uni to'liq uzunligi funktsiyasi $\varphi(\lambda, T)$ shaklida tasvirlash maqsadga muvofiq. Ikkala funktsiya ham o'zaro (5) formulaga o'xshash formula

$$f(\omega, T) = \frac{2\pi c}{\omega^2} \varphi(\lambda, T) = \frac{\lambda^2}{2\pi c} \varphi(\lambda, T) \quad (10)$$

bilan bog'langan. Agar $f(\omega, T)$ ma'lum bo'lsa, $\varphi(\lambda, T)$ ni

$$\varphi(\lambda, T) = \frac{2\pi c}{\lambda^2} f\left(\frac{2\pi c}{\lambda}, T\right) \quad (11)$$

orqali, $\varphi(\lambda, T)$ ma'lum bo'lsa $f(\omega, T)$ ni

$$f(\omega, T) = \frac{2\pi c}{\omega^2} \varphi\left(\frac{2\pi c}{\omega}, T\right) \quad (12)$$

orqali topamiz. AQJ bu ideal tushuncha va tabiatda bunday jismlar yo'q. Qora kukunmimg NYQ chegaralangan chastota intervalida birga juda yaqin. Ammo, infraqizil nurlanish sohasida uning NYQ birdan ancha




FIG. 3: Absolyut qora jism modeli.

kichik. AQJ ga xossalari jihatdan juda yaqin uskuna yaratish mumkin. Bu uskuna juda kichik tuynukka ega bo'lgan kovakdir (Fig.3). Tuynuk orqali kovakda kirgan nurlanish kovakdan chiqquncha ko'p marta kovak devorlaridan qaytadi. Har qaytishda o'z energiyasining bir qismini kovak devoriga beradi. Natijada uning barcha energiyasi yutiladi. Yani tuynuk o'zini AQJ kabi tutadi. Ana shu sababdan ham quyoshli kun xonaning ochiq derazasi uzoqdan qorang'u bo'lib ko'rinadi.

Kirxgof qonuniga binoan tuynukning NQ $f(\omega, T)$ ga juda yaqin. Bunda T kovak devori harorati. Natijada, agar kovak devori harorati T ni doimiy ushlab turadigan bo'lsak, tuynukdan spektr tarkibi AQJ nurlanishi spektr tarkibiga juda yaqin nurlanish chiqadi. Difraksiya panjara yordamida bu nurlanishning spektr tarkibini o'rganish, xususan, nurlanish spektrining turli qismlaridagi (yani har xil to'lqin uzunliklarga mos keluvchi) nurlanish intensivligini o'lchab $f(\omega, T)$ ni yoki $\varphi(\lambda, T)$ ni aniqlash mumkin. Tajribada aniqlangan $\varphi(\lambda, T)$ Fig.4 da keltirilgan.

Har bir grafik har xil haroratga mos keladi. Egri chiziq ostidagi maydon yuzi AQJ ning mazku haroratga mos EY iga teng. Fig.4 dan AQJ ning EY harorat ko'tarilishi bilan ortishini ko'ramiz. AQJ NQ ning maksimumi harorat ko'tarilishi bilan kichik to'lqin uzunliklari tomon siljiydi.

III. NURLANISH ENERGIYASINING MUVOZANATLI ZICHLIGI

Modda bilam muvozanatda bo'lgan nurlanishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun yana Fig.1 da tasvirlangan sistemaga murojat etamiz. Bo'shliqning ichki devori harorati T bo'lsin. Bo'shliq nurlanish bilan to'liq bo'lganligi sabab, nurlanish energiyasi ham bu hajmda taqsimlangan bo'ladi. Nurlanishning hajmiy zichligini kiritamiz $u = u(T)$. Nurlanish energiyasining spektr zichligi (NESZ) $u(\omega, T)$ ni $du_\omega = u(\omega, T)d\omega$ formula orqali kiritamiz.




FIG. 4: Absolyut qora jism NQ ning to'lqin uzunligiga va haroratga bog'liqligi.

Bu yerda du_ω nurlanish energiyasining $d\omega$ chastota intervaliga mos keluvchi qismi. Nurlanish energiyasining to'liq zichligi

$$u(T) = \int_0^\infty u(\omega, T)d\omega \quad (13)$$

formuladan topiladi. Termodinamika qonunlaridan nurlanish energiyasining hajmiy zichligi $u(T)$ faqat haroratga bog'liq bo'lishi va kovak devorining turiga bog'liq bo'lmasligi kelib chiqadi. Buni isbotlash uchun teng haroratlarga, lekin kovak devorlari turli moddalardan qilingan ikki kovakni ko'rib chiqamiz (Fig.5). Faraz qilamizki, nurlanishning hajmiy zichligi haroratga bog'liq emas va shu sababdan $u_1(T) > u_2(T)$. Bu ikki kovaklarni o'zaro tutashtiramiz. Ular orasida nurlanish orqali energiya almasha boshlaydi. Natijada, 1- kovak soviy, 2- kovak isiy boshlaydi. Ammo, haroratlari teng kovaklar o'zaro energiya almashishi natijasida ularning haroratlari har xil bo'lib qolishi mumkin emas. Bu termodinamika qonunlari bilan taqiqlanadi. Shu sabab bizning $u_1(T) > u_2(T)$ deb faraz etishimiz noto'g'ri! Kovaklarning haroratlari tengmi, demak, ulardagi nurlanish energiyalarining hajmiy zichliklari ham teng bo'lishi shart! Bu tenglik har bir to'lqin uzunliklari uchun bajariladi. Ma'lum bo'lishicha AQJ ning NQ va nurlanishning muvozanatli zichligi o'zaro

$$f(\omega, T) = \frac{c}{4}u(\omega, T) \quad (14)$$

formula orqali bog'langan.




FIG. 5: Tutash kovaklar.

IV. STEFAN-BOLTSMAN QONUNI. VIN QONUNI.

AQJ nurlanishini qonuniyatlarini nazariy tushuntirish fizika tarixida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki u energiya kvanti tushunchasining paydo bo'lishiga qolaversa kvant fizikasining yaratilishiga yo'l ochib berdi. Tajribani to'g'ri tushuntira oladigan NESZ ni nazariy jihatdan keltirib chiqarishga ko'p urinishlar bo'ldi, ammo ko'pchiligi natijasiz tugadi. 1879 yili avstriya fizigi Y.Stefan to'plangan tajriba natijalarini tahlil eta turib, ixtiyoriy jismning EY R uning termodinamik haroratining to'rtinchi darajasiga to'g'ri proporsional degan xulosaga kelgan. Ammo, keyinchalik o'tkazilgan nozik tajribalar bu xulosaning noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi. 1884 yili Boltzman, umumiy termodinamik mulohazalar yuritib nazariy yo'l bilan AQJ EY uchun

$$R^* = \int_0^\infty f(\omega, T) d\omega = \sigma T^4 \quad (15)$$

formulani keltirib chiqardi. Bu yerda σ doimiy katolik, T termodinamik harorat (gap AQJ to'g'risida ketayotganini uchun EY ni * bilan taminladik). Ixtiyoriy jismlar uchun aytilgan Stefan qonuni aslida faqat AQJ uchun ekanligi ma'lum bo'ldi. AQJ ning EY va uning termodinamik harorati orasidagi (15) munosabat hozirda *Stefan-Boltzman qonuni* nomi bilan yuritiladi. σ doimiy esa Stefan-Boltzman doimiysi deb ataladi va $\sigma = 5.67 \cdot 10^{-8} \text{ Wt/m}^2 \cdot \text{K}^4$ ga teng. 1893 yili olmon fizigi V.Vin termodinamika qonunlari va elektromagnitizm nazariyasidan foydalanib AQJ ning EY yoki nurlanishning spektr taqsimoti funksiyasi

$$f(\omega, T) = \omega^3 F\left(\frac{\omega}{T}\right) \quad (16)$$

shaklda yozilishi kerakligini ko'rsatib berdi. F funksiyasi argumenti ω/T bo'lgan qandaydir funksiya. U holda

$$\varphi(\lambda, T) = \frac{2\pi c}{\lambda^2} \left(\frac{2\pi c}{\lambda}\right)^3 F\left(\frac{2\pi c}{\lambda T}\right) = \frac{1}{\lambda^5} \psi(\lambda, T). \quad (17)$$

Bu yerda $\psi(\lambda, T)$ arumenti λT bo'lgan qandaydir funksiya. (17) formuladan nurlanish spektr taqsimoti funksiyasi $\varphi(\lambda, T)$ qaysi to'lqin uzunligi λ_m da maksimumga erishishini aniqlash mumkin. Rostdan ham (17) ni λ bo'yicha differentsiallab

$$\frac{d\varphi}{d\lambda} = \frac{1}{\lambda^5} T \psi'(\lambda T) - \frac{5}{\lambda^6} \psi(\lambda T) = \frac{1}{\lambda^6} [\lambda T \psi'(\lambda T) - 5 \psi(\lambda T)] \quad (18)$$

ni topamiz. Kvadrat qavsda ifodani biror $\Psi(\lambda T)$ funksiya deb qarashimiz mumkin. Tajribadan $\lambda_m \neq \infty$ ekanligi ma'lum bo'lganidan, kvadrat qavs ichidagi ifodani yani $\Psi(\lambda T)$ ni nolga tenglaymiz xolos

$$\left(\frac{d\varphi}{d\lambda}\right)_{\lambda=\lambda_m} = \frac{1}{\lambda_m^6} \Psi(\lambda_m T) = 0. \quad (19)$$

Bu tenglamaning echimini b bilan belgilaymiz. U holda *Vinning siljish qonuni* nomi bilan ataluvchi

$$\lambda_m T = b \quad (20)$$

munosabatni qo'lga kiritamiz. Tajribadan topilgan b ning qiymati $2.898 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K}$ ga teng.

V. RELEY-JINS FORMULASI VA VIN FORMULASI.

Tajribani to'g'ri tushuntira oladigan IN energiyasining spektr zichligi nazariy yo'l bilan keltirib chiqarishga Reley va Jins urinib ko'rishdilar. Ular klassik statistika qonunlari, xususan, energiyaning erkinlik darajalari bo'yicha teng taqsimlanishidan foydalanishdi. IN kub shaklidagi kovak ichida ko'rib chiqildi. Kovakning ichki devori klassik ostsillyatorlar to'plami deb qaraldi. Yani kovak devori va nurlanish o'zaro energiya almashadi. Kovak ichida nurlanishni turg'un to'lqinlar to'plami yoki modalardan tashkil topgan deb qaraldi. Nurlanishdagi har bir turg'un to'lqin tebranish modasi deb ataladi. Kovak kub ichida qancha turg'un to'lqin bo'lsa nurlanishda shuncha tebranishlar modasi bor deb atash qabul etilgan. Agar kub qirrasi L deb hisoblasak, turg'un to'lqin hosil bolish sharti (Fig.6)

$$k \cdot L = 2\pi n \quad (21)$$

yoki

$$k_x L = \pi n_x, k_y L = \pi n_y, k_z L = \pi n_z \quad (22)$$




FIG. 6: Tebranishlar modalari kontsentratsiyasini hisoblashga doir va kovakning kub modeli.




FIG. 7: Sferik koordinatalar sistemasida tebranishlar modalari kontsentratsiyasini hisoblashda to'liq vektor yo'nalishi.

shaklida yoziladi. To'liq soni $(k_x, k_x + dk_x), (k_y, k_y + dk_y), (k_z, k_z + dk_z)$ oraliqda yotuvchi to'liqlar dN soni $(n_x, n_x + dn_x), (n_y, n_y + dn_y), (n_z, n_z + dn_z)$ oraliqda yotuvchi butun sonlarga teng va shu sabab

$$dN = dn_x dn_y dn_z = \left(\frac{L}{\pi}\right)^3 dk_x dk_y dk_z. \quad (23)$$

Keyingi hisoblashni sferik koordinatalar sistemasida bajargan ma'qul. Bunda k_x, k_y, k_z mos ravishda x, y, z o'qlari bo'yicha yonalgan deb qaraymiz (Fig.7).

k_x, k_y, k_z to'liq sonlari musbat bo'lganligi bois (23) munosabatni

$$dN = \left(\frac{L}{\pi}\right)^3 \frac{1}{8} 4\pi k^2 dk \quad (24)$$

ko'rinishda yozamiz. $k = \omega/c$ ekanligini inobatga olib tebranish modalari kontsentratsiyasini topamiz:

$$\frac{dN}{L^3} = \frac{1}{2} \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} d\omega. \quad (25)$$

IN elektromagnit to'liqin va shu sababli u ikki yo'nalishda qutblanishi mumkin ekanligini esga olib, turg'un to'liqlar kontsentratsiyasi

$$\frac{dN_t}{L^3} = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} d\omega \quad (26)$$

ekanligini topamiz. Boshqacha etib aytganda, kovak ichidagi nurlanishdagi modalar soni nurlanishning erkinlik darajasiga teng. Agar nurlanishning bitta erkinlik darajasiga mos keluvchi o'rtacha energiya $\langle E \rangle$ bo'lsa, kovakdagi nurlanish energiyasining spektral zichligi

$$u(\omega, T) = \frac{dN_t}{L^3} \langle E \rangle = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} \langle E \rangle \quad (27)$$

munosabat bilan aniqlanadi. Qarabsizki, nurlanish energiyasining spektral zichligini aniqlash masalasi tebranish modasining o'rtacha energiyasi topilishiga keltirildi. (27) formula spektral zichlikning chastotaga funktsiyasi shaklida berilgan, ammo uni osonlikcha to'liqin uzunligi bo'yicha taqsimlanish formulasiga o'tkazish mumkin. Reley va Jins (27) formuladagi modalarning o'rtacha energiyasi o'rniga klassik fizika qonunlariga binoan garmonik ostsilyatorning o'rtacha energiyasi $\langle E \rangle = kT$ ni qo'yib

$$u(\omega, T) = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} kT \quad (28)$$

ni va AQJ ning NQ uchun esa (14) ga muvofiq

$$f(\omega, T) = \frac{\omega^2}{4\pi^2 c^2} kT \quad (29)$$

formulani qo'lga kiritishdilar. Bu formula (28) va (29) munosabatlar *Reley-Jins formulasi* deb aytiladi, chunki uni birinchi marotaba D.U.Reley 1900 yili taklif etgan va keyinchalik D.D.Jins (1877-1946) mukammal darajada asoslab bergan. U IN energiyasining spektral zichligini ifodalaydi. Reley-Jins formulasi klassik fizika qonunlari asosida olingani sababli tajribalarni butunlayicha tushuntirib bera olmadi. Faqat kichik chastotalardagina Reley-Jins formulasi tajribani qoniqorli tushuntirib bera olishi mumkin. Katta chastotalarda kuzatiladigan spektral zichlik (28) dan ancha kichik bo'ladi. Juda katta chastotalarda yani $\omega \rightarrow \infty$ da spektral zichlik ham cheksizlikka intiladi $u(\omega, T) \rightarrow \infty$. Shu asnoda nurlanishning to'liq hajmiy zichligi ham cheksizlikka intiladi

$$u(T) = \int_0^\infty u(\omega, T) d\omega = \infty. \quad (30)$$

Bu albatta aqlga bovar qilmaydigan hol, chunki kovak ichidagi nurlanish termodinamik muvozanatdali va uning energiyasi cheklanganini bilamiz. Tajriba ham nurlanishning spektral zichligi biror chastotada maksimumga erishib, keyinchalik eksponentsial darajada kamayib ketishini ko'rsatadi. Shu sabab Reley-Jins formulasi katta, ultrabinafsha nurlanishi, chastotalaridan boshlab tajribaga umuman mos kelmaydi. Nurlanish energiyasi hajmiy zichligining tasavvur etib bo'lmaydigan darajada cheksizlikka intilishi $u(T) \rightarrow \infty$ fizikada *ultrabinafsha falokati* nomi bilan mashhur! Nurlanish energiyasi spektral zichligini topishning boshqacharoq yo'lini 1896 yili V.Vin (1864-1928) taklif etdi. Uning fikricha nurlanishdagi har bir moda $E(\omega)$ energiyaga ega, lekin aynan shu chastotadagi barcha modalar uyg'ongan emas. Uyg'ongan modalarning nisbiy soni $\Delta N/N$ ni Boltsman taqsimoti bilan aniqlanadi:

$$\frac{\Delta N}{N} = e^{-E/kT}. \quad (31)$$

Bu yerdan ω chastotali nurlanishning o'rtacha energiyasi

$$\langle E \rangle = E(\omega) \frac{\Delta N}{N} = E(\omega) e^{-E/kT} \quad (32)$$

ni topamiz. Umumiy termodinamik mulohazalar yuritib V.Vin ω chastotali tebranish modasi energiyasi shu chastota ω ga proporsional bo'lishi kerak degan xulosaga keldi: $E \sim \omega$. Proporsionallik koeffitsienti o'sha paytda noma'lum edi, lekin hozirgi vaqtda u Plank doimiysi $\hbar$ ekanligi aniq, yani $E = \hbar\omega$. U holda (27) formula (32) ni etiborga olib quyidagicha yoziladi:

$$u(\omega, T) = \frac{\hbar\omega^3}{\pi^2 c^3} e^{-\hbar\omega/kT}. \quad (33)$$

(33) munosabat AQJ NESZ uchun *Vin formulasi* deyiladi va u tajribani juda katta chastotalarda yaxshi tushuntiradi. Qo'lga kiritilgan ikki formula, yani kichik chastotalar uchun Reley-Jins formulasi va katta chastotalar uchun Vin formulasi, faqat cheklangan oraliqlardagina tajribani tushunrar edi. Ular orasidagi chastotalar intervalida NESZ qanday formula bilan ifodalanishi o'sha paytda ma'lum emasdi. Masalan, Quyoshdan kelayotgan nurlanishni o'rganganimizda, tajribadan spektral zichlikning qaysi chastotada maksimumga ega ekanligini aniqlashimiz mumkin. Ammo, bu maksimal chastota na Reley-Jins (28) va na Vin (33) formulalari yaxshi yushuntirib bera oladigan oraliqlarga to'g'ri kelmasdi (Fig.8). O'rta oraliqni tushuntiradigan nazariya mavjud emasdi.....




FIG. 8: AQJ nurlanishi energiyasining spektr zichligi uchun tajribada olingan grafik, Reley-Jins formulasiga asosan va Vin formulasiga asosan chizilgan grafiklar.

VI. PLANK FORMULASI

AQJ ning NQ ni na Reley-Jins formulasi va na Vin formulalari barcha chastotalar intervallarida to'g'ri tushuntirila olmasligiga asosiy sabab, bu hodisasini klassik fizika qonunlariga binoan tushuntirishga urinish edi. Klassik fizika qonunlariga binoan NESZ to'g'ri topilganligi bois, M.Plank 1900 yili

$$u(\omega, T) = \frac{\hbar\omega^3}{\pi^2 c^3} \frac{1}{e^{\hbar\omega/kT} - 1} \quad (34)$$

yoki

$$f(\omega, T) = \frac{\hbar\omega^3}{4\pi^2 c^2} \frac{1}{e^{\hbar\omega/kT} - 1},$$

$$\varphi(\lambda, T) = \frac{4\pi^2 \hbar c^2}{\lambda^5} \frac{1}{e^{2\pi \hbar c/kT\lambda} - 1}.$$

ko'rinishdagi interpolatsion formula taklif etdi. Bu yerda $\hbar = 1,05 \cdot 10^{-34} J \cdot s$ Plank doimiysi. (34) formula *Plank formulasi* deb yuritiladi. Plank (34) formulani keltirib chiqarmagan, aksincha o'ylab topgan va Olmoniya fizika jamiyatining 19 sentabridagi majlisida birinchi marta taqdim etgan. Keyingi ikki oyni o'ylab topilgan formulani keltirib chiqarishga sarflagan. Shuni aytib o'tish kerakki Plank formulasi klassik fizika qonuniyatlariga zid, uni klassik fizika doirasida keltirib chiqarish mumkin emas. Buni quyidagicha ko'rsatish mumkin. (27) formuladagi $\langle E \rangle$ deganda ω chastotali nurlanish energiyasining o'rtacha qiymatini tushunamiz. Termodinamik muvozanat holatida u ω chastotali nurlanishni yutuvchi va chiqaruvchi ostsillyatorlar o'rtacha energiyasiga teng. Ostsillyatorlarning energiya bo'yicha taqsimlanishi Boltsman qonuniga binoan bo'lishi lozim:

$$N(E) = A \exp\left(-\frac{E}{kT}\right). \quad (35)$$

Klassik fizikada ostsillyator har xil qiymatdagi energiyani qabul etishi mumkin, yani E uzluksiz miqdor. U holda ostsillyatorning o'rtacha energiyasi

$$\langle E \rangle = \frac{A \int_0^\infty E \exp(-E/kT) dE}{A \int_0^\infty \exp(-E/kT) dE} = kT. \quad (36)$$

(36) ni (27) ga qo'yib Reley-Jins formulasi (28) ni qo'lga kiritamiz. Buning hech ajablanadigan joyi yo'q, chunki biz hisoblashni klassik fizika qonuni, energiyaning erkinlik darajasi bo'yicha teng taqsimlanishi, asosida yuritdik. M.Plank tomonidan kvant fizikasini yaratish uchun birinchi dalil qadam qo'yilgan edi. Uning fikricha ostsillyatorlar energiyasi uzluksiz bo'lmay, aksincha faqat diskret qiymatlar qabul qilishi mumkin. U ostsillyator energiyasi biror minimal E_1 energiyaga proporsional ravishda o'zgaradi

$$E_n = nE_1, (n = 0, 1, 2, \dots), \quad (37)$$

deya qabul etti. U holda ostsillyatorlar o'rtacha energiyasi

$$\langle E \rangle = \frac{\sum_{n=0}^\infty E_n e^{-E_n/kT}}{\sum_{n=0}^\infty e^{-E_n/kT}} = \frac{E_1}{e^{E_1/kT} - 1}. \quad (38)$$

(38) munosabatni (27) ga qo'yib NESZ topamiz:

$$u(\omega, T) = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} \frac{E_1}{e^{E_1/kT} - 1}. \quad (39)$$

Biz haligacha minimal energiya E_1 ni ixtiyoriy deb keldik, ammo (39) formula Plankning interpolatsion formulasi bilan mos tushish uchun uni

$$E_1 = \hbar\omega \quad (40)$$

deb qabul qilishimiz zarur. Demak, ko'rinib turibdiki, tajribani to'g'ri tushuntirish uchun kovak sirtida joylashgan atom (ostsillyator) energiyasi uzluksiz emas, balki diskret qiymatlar qabul etishi mumkin degan postulatni kiritishga majbur bo'ldik. Shu sabab, atom ichki energiyasi uzluksiz emas, diskret ravishda o'zgaradi yoki uning energiyasi kvantlanadi deymiz. Energiyaning kvantlanishi klassik fizika qonunlariga mutlaqo zid. Atomning holati diskret enrgiya bilan tavsiflanadi. Atom biror vaqt mobaynida ruxsat etilgan energetik holatda bo'ladi va bu holat *statsionar holat* deyiladi. Atom biror energetik holatidan quyi energiyali holatiga o'tishida o'zidan energiya chiqaradi, bu energiya nurlanish kvanti tariqasida chiqadi. Agar energiya o'zgarishi ΔE bo'lsa, nurlanish

kvanti chastotasi $\omega = \Delta E/\hbar$ ga teng bo'ladi. Xuddi shu kabi atom quyi energetik holatdan yuqori energetik holatga o'tishi mumkin. Buning uchun atom tashqaridan biror ΔE energiyani yutishi lozim. Yuqori holatga o'tish $\omega = \Delta E/\hbar$ chastotali nurlanishni yutish orqali bo'ladi. Natijada, nurlanish modda tomonidan energiyaning biror qismi (kvanti) $E = \hbar\omega$ shaklida yutiladi va chiqariladi degan xulosaga kelamiz. (34) formula AQJ nurlanishining tajribada kuzatiladigan barcha xususiyatlarini tushuntirib bera oladi. (34) formula kichik chastotalar $\hbar\omega \ll kT$ da (28) ga, katta chastotalar $\hbar\omega \gg kT$ da esa (33) ga o'tadi. (34) formuladan Stefan-Boltsman qonuni va Vinning siljish qonunlarini keltirib chiqarish mumkin. Xususan Vinning siljish qonunidagi doimiy b ni va Stefan-Boltsman doimiysi σ ni

$$b = \frac{2\pi\hbar c}{4.965k}, \sigma = \frac{\pi^2 k^4}{60c^2 \hbar^3} \quad (41)$$

formulalar orqali topishga imkon beradi.

VII. RENTGEN SPEKTRINING QISQA TO'LQIN CHEGARASI

1895 yili olmon fizigi V.K.Rentgen (1845-1923) tezltilgan elektronlar bilan metal yoki shisha bombardimon qilinsa o'ta singuvchan nurlanish paydo bo'lishini aniqladi. Bu nurlanishni u X- nurlar deb atadi. Ammo, keyinchalik ko'pchilik bu nurlanishni *rentgen nurlanishi* (RN) deb atashdi. Tadqiqotlar RN to'lqin uzunligi $10^{-5} \div 10^2$ nm oraliqda yotuvchi elektromagnit to'lqin ekanligini ko'rsatdi. Zamonaviy rentgen trubkasi Fig.9 da keltirilgan. U ichidan havo so'rib olingan balondan iborat bo'lib, balon ichiga katod K va anod A kiritilgan. Tok bilan isitiladigan katod K dan termoelektron emissiyasi natijasida elektronlar uchib chiqadi. Uchib chiqqan elektronlar elektr maydoni ta'sirida harakatlana boshlashadi. Shu tariqa elektronlar dastasi hosil bo'ladi. Bu dasta silindrik elektrod SE yordamida fokuslanadi. Tezlatilgan elektronlar anod A ga borib uriladi. Ba'zilar anodni *antikatom* deb ham atashadi. Anod og'ir elementlardan yasaladi (W , Pt , Cu , va h.). Elektronlarni tezlatish uchun anod va katodlar orasida juda katta potentsiallar ayirmasi tashkil etiladi $\approx 100keV$. Anodga kelgan elektronlar juda katta tezlikka yoki kinetik energiyaga ega bo'ladilar. To'qnashish natijasida elektronning 97% energiyasi anodni isitishga sarflanadi. Faqat $1 \div 3\%$ energiya nurlanishga aylanadi. Oqibatda rentgen trubkasining antikatodini etarlicha sovitishga ehtiyoj tug'iladi. Antikatod uning ichidan sovutuvchi suyuqlik (suv, moy) aylanib o'tib chiqadigan qilib yasaladi. Agar anod va katod orasiga U kuchlanish qo'yilgan bo'lsa, elektron tezlanishi oqibatida eU energiya oladi. Anodga urilgan elektron qisqa vaqt ichida to'xtashga majbur bo'ladi yani tormozlanadi. Tormozlanish bu sekinlanish va shu sababli elektron elektromagnit to'lqini manbasiga yalanadi. Elektronning tormozlanishi natijasida




FIG. 9: Zamonaviy rentgen trubkasi.




FIG. 10: RN quvvatining to'liqin uzunligiga bo'g'liqligi.

hosil bo'lgan elektromagnit to'liqini *tormozlanish nurlanishi* deb ataladi. Juda katta tezliklarda anodga urilgan elektron tormozlanish nurlanishidan boshqa *xarakterli nurlanish* deb ataluvchi nurlanish ham paydo etishi mumkin. Xarakterli nurlanish uriluvchi elektronlar anod materialining quyi elektronlar qobig'ini uyg'otishi natijasida hosil bo'ladi. Bu yerda biz faqat tormozlanish nurlanishini ko'rib chiqamiz. Klassik elektrodinamika qonunlariga binoan elektronning tormozlanishi natijasida barcha to'liqin uzunlikka ega bo'lgan elektromagnit to'liqlari paydo bo'lishi kerak: $\lambda \in [0, \infty]$.

Nurlanish quvvatining maksimumi to'g'ri keluvchi to'liqin uzunlik elektronlar tezligi ortishi yani U ortishi bilan kamayishi kerak. Fig.10 da tajribada o'lchangan RN quvvatining to'liqin uzunligiga bog'liqligi grafik shaklda berilgan. Grafikdan klassik elektrodinamika xulosasi haqiqatdan ham to'g'ridek ko'rinadi. Rostdan ham, grafikdan RN quvvatining maksimumi to'g'ri

keluvchi to'liqin uzunlik elektron energiyasi ortishi bilan kamayishini ko'rsatadi. Ammo, klassik elektrodinamika tushuntirib bera olmaydiga o'ta muhim fakt ham mavjud. Bu fakt RN quvvati koordinatalar boshiga etmasdan uzilib qolishidir. RN quvvati har tezlatish energiyasiga bog'liq bo'lgan qandaydir λ_{min} to'liqin uzunligida uziladi. Berilgan potentsiallar ayirmasi U da λ_{min} dan kichik to'liqin uzunligiga ega bo'lgan RN paydo bo'lmas ekan. Yani RN spektri qisqa to'liqin uzunliklar tomonidan cheklangan: $\lambda \in [\lambda_{min}, \infty]$. λ_{min} kattalik *RN spektrining qisqa to'liqin chegarasi* deb ataladi. Tajribadan λ_{min} va potentsiallar ayirmasi U orasida $\lambda_{min}(nm) = 1239/U(V)$ munosabat borligi topilgan. RN ning qisqa to'liqin chegarasining mavjudligini klassik fizika tushuntirib bera olmaydi va u elektromagnit nurlanishning $\hbar\omega$ kvant shaklida chiqishi (yaratilishi) ning yorqin tasdig'i bo'lib topiladi. Rostdan ham, agar RN eU energiyagacha tezlatilgan elektronning tormozlanishi natijasida paydo bo'ladigan bo'lsa, nurlanish energiyasi $\hbar\omega$ elektron energiyasi eU dan katta bo'lishi mumkin emas $\hbar\omega \leq eU$. BU yerda paydo bo'lgan RN chastotalari $\omega_{mak} = eU/\hbar$ dan katta bo'lmaydi. Bu esa RN to'liqin uzunliklari

$$\lambda_{min} = \frac{2\pi c}{\omega_{mak}} = \frac{2\pi\hbar c/e}{U} \quad (42)$$

dan kichik emas deganidir.

VIII. TASHQI FOTOEFFEKT

Elektromagnit to'liqlar ta'siri ostida qattiq jismlar va suyuqliklar sirtidan elektronlarning uchib chiqishi *tashqi fotoeffekt* yoki *fotoelektron emissiya* deb ataladi. Fotoeffekt hodisasi 1887 yili G.Gerts tominidan kashf etilgan. Elektromagnit to'liqlarni ochiq tebranuvchi konturni elektr zaryadi tebranishi natijasida hosil qilgan G.Gerts (1887) metal elektrodlar orasida chaqmoq chaqnashi elektrodlardan biri, aniqrog'i katodni, ultrabinafsha nurlar bilan yoritilganda osonlashishini kuzatgan edi. 1888-1889 yillar mobaynida A.G.Stoletov fotoeffekt hodisasini Fig.11 ko'rsatilgan qurilma yordamida o'rgandi.

Bir qoplamasi t'orli setka TS dan, ikkinchisi plastina P dan iborat bo'lgan kondensator galvanometr G bilan ketma-ket tok manbaiga ulangan. Ultrabinafsha nurlar oqimi (UBN) to'liq setka TS dan o'tib tok manbasining manfiy qutbiga ulangan plastina P ga tushishi natijasida zanjirda tok paydo bo'lgan va bu tok galvanometr G bilan qayd etilgan. Tok paydo bo'ldimi, demak, uni tashuvchi zarralar ham paydo bo'lgan. UBN ta'sirida paydo bo'luvchi va tok tashuvchi zarralar manfiy zaryadga ega ekanligini Stoletov ko'rsatib berdi. Bundan tashqari Stoletov plastinkaning yoritilganligi ortishi bilan tok kuchi ham ortishini topdi. 1899 yili E.A.Lenard va J.J.Tomson nurlanish ta'sirida paydo bo'luvchi zarraning solishtirma zaryadini o'lchab u elektron ekanligini is-




FIG. 11: Fotoeffekt hodisasini o'rganish uchun ishlangan Stolevning uskunasi elektr chizmasi. TS - to'rtli setka, P - plastinka, UBN - ultrabinafsha nurlar dastasi.




FIG. 12: Fotoeffektning o'rganish uchun qurilma.

botlashdi. E.A.Lenard, V.Galvaks va b. Stolev qurilmasini, ichidan havo so'rib olingan idishga joylashtirib, yanada mukammallashtirishdilar (Fig.12).

Katod K ni yorituvchi UBN ichidan havo so'rib olingan idishga kvart oyna orqali tushadi. Fotoeffekt natijasida katod K dan chiqqan elektronlar elektr maydoni ta'sirida anod A ga etib borishadi va zanjirda tok hosil qiladi. Tok galvanometr G orqali va elektrodlar orasidagi kuchlanish voltmeter V orqali o'lchanadi. Bundan tashqari elektrodlar orasidagi kuchlanishni potentsiometr P orqali o'zgartirish mumkin. Fotoeffektning, katodga tushuvchi yorug'lik intensivligi va elektrodlar orasidagi kuchlanish o'zgarmaas bo'lgandagi volt-ampere xarakteristikasi (VAX) Fig.13 da keltirilgan. Fotoeffekt VAX sinning pog'anasimon bo'lib ketishi elektronlar katoddan har xil tezliklar bilan uchib chiqishini anglatadi. Hatto elektrodlar orasidagi kuchlanish nol bo'lganda ham katod-




FIG. 13: Fotoeffektning VAX, UBN intensivligi $S = const$ va chastotasi $\omega = const$.

dan chiqqan elektronlarning biror qismi anodga etib kelishga etarlicha tezlikka ega bo'ladilar va ular qoldiq fototok tashkil etadilar. Fototokni yo'qatish uchun elektrodlar orasiga $|U_T|$ teskari ishorasi kuchlanish berish zarur. $|U_T|$ fotoeffektning *tormozlovchi kuchlanish* deb ataladi. Tormozlovchi kuchlanish hatto maksimal tezlik bilan ichib chiqqan elektronlarni ham to'xtatib ularning anodga etib borishiga yo'l qo'ymaydi. Shu sabab

$$\frac{mv_m^2}{2} = eU_T \quad (43)$$

deb yozsak bo'ladi. Bu yerda m elektron massasi, v_m fotoelektronlarning maksimal tezligi. Kuchlanishning biror qiymatidan boshlab fototok to'yinadi. Tokning bu qiymati *to'yinish fototoki* deyiladi. Fototokning to'yinishi katoddan chiqqan barcha elektronlar anodga etib kelishini anglatadi. UBN intensivligi ortishi bilan to'yinish fototogi ham ortadi. Klassik fizika qonunlariga binoan fotoelektronning maksimal kinetik energiyasi UBN intensivligiga to'g'ri proporsional bo'lishi kerak. Ammo, 1905 yilda fotoelektronning maksimal kinetik energiyasi UBN intensivligiga mutlaqo bog'liq emasligi isbotlandi. Tormozlovchi kuchlanishning UBN chastotasiga bog'liqligi Fig.14 da keltirilgan grafikdan katoddan uchib chiquvchi elektron kinetik energiyasining maksimal qiymati UBN chastotasiga to'g'ri proporsional ekanligi kelib chiqadi. Hodisani qiziqarli tomoni shundaki fotoeffekt faqat katod materialiga bog'liq bo'lgan biror ω_{ch} chegaraviy chastotadan katta chastotalarda kuzatiladi (Fig.15). ω_{ch} chastotaga mos keluvchi λ_{ch} *fotoeffektning qizil chegarasi* deb ataladi. Stolev aniqlaganidek fototokning to'yinish qiymati UBN $\omega = const$ va $U = const$ ligida UBN intensivligiga to'g'ri proporsional bo'ladi (Fig.16).

Tajribadagi yig'ilgan natijalarga tayanib fotoeffektning quyidagi qonuniyatlarini qayd etamiz:




FIG. 14: Tormozlovchi kuchlanishning UBN chastotasi ω ga bog'liqligi.




FIG. 16: To'yinish fototokining yorug'lik intensivligi S ga proporsionalligi.




FIG. 15: Fototokning UBN chastotasiga bog'liqligi, $U = const$ va $\omega = const$.

1. Katod materiali turiga bog'liq bo'lgan va undan kichik chastotalarda *fotoeffekt* kuzatilmaydigan, *fotoeffektning qizil chegarasi* deb nom olgan minimal chegaraviy chastota mavjud. Kichik chastotali nurlanish bilan qancha yoritilmasin yoki uning intensivligi qancha katta bo'lmasin *fotoeffekt kuzatilmaydi* (Fig.15).
2. Katoddan uchib chiqibchi elektronlar energiyasi turlicha, 0 dan $mv_{max}^2/2$ oralig'ida, bo'ladi va u nurlanish intensivligiga bog'liq bo'lmay, balki nurlanish chastotasiga to'g'ri proporsional (Fig.14).
3. Nurlanish chastotasi doimiy holda vaqt birligida katoddan uchib chiquvchi elektronlar soni yorug'lik oqimi energiyasi zichligi yani yorug'lik intensivligiga to'g'ri proporsional (Fig.13 va Fig.16).

*Fotoeffekt*ni klassik fizika qonunlari bilan tushuntirib bo'lmaydi. Klassik fizika qonunlariga ko'ra elektron to'lqinning elektr maydoni ta'sirida tebrana-tebrana amplitudasini oshirib oxirida atom va metal sirtidan chiqib ketishi kerak. Ammo, bu manzara bilan topilgan elektronning chiqish vaqti juda katta ($\sim 10^4 s$) bo'lishi lozim. Tajribalar esa katodning nurlanish vaqti va elektronlar uchib chiqishi vaqti orasidagi farq $10^{-9} s$ dan kam ekanligini ko'rsatadi. Klassik fizika qonunlariga oid atomdan uchib chiquvchi elektronlarning soni yorug'lik intensivligiga to'g'ri proporsional bo'lishi lozim. Biror chegaraviy chastotadan past chastotalarda elektronlarning katod sirtidan uchib chiqmasligini ham klassik fizika nizomlariga binoan tushuntirib bo'lmaydi. Xullas, klassik fizika fotoeffekt oldida ojislik qilardi. Bu muammoni echish uchun yangi ko'z qarash va fikrlar kerak edi. 1900 yili AQJ nurlanish qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun M.Plank atom energetik holarlari diskret bo'lishi va nurlanishni portsiya shaklida yutishi va chiqarishi mumkin degan g'oyani ilgari surgan edi. Uning fikriga ko'ra atomning qo'shni diskret holatlari energiyalari farqi

$$E = \hbar\omega \quad (44)$$

ga teng ekan. 1905 yili A.Einshtein *fotoeffekt nurlanish katodda Plank ko'rsatib bergandek $\hbar\omega$ portsiya shaklida yutiladi* deb faraz qilinsa oson tushuntirilishi ko'rsatib berdi. Einstein fikricha UBN kvanti energiyasi $\hbar\omega$ katoddagi elektronga to'laligicha beriladi. Natijada elektron energiyasi oshib katoddan uchib chiqadi. Uning energiyasining A qismi katoddan chiqib ketishiga, qolgani unga kinetik energiyasi berishga sarflanadi. Nurlanish kvanti va elektron to'qnashishi natijasida

$$\hbar\omega = A + \frac{mv_{max}^2}{2}. \quad (45)$$

energoya saqlanish qonuni bajarilishi lozim. Bu yerda A - elektronning metaldan chiqish ishi, $mv_{max}^2/2$ -elektronning metal sirtidan chiqqan paytidagi maksimal kinetik energiyasi. (45) munosabat fotoeffekt uchun Einsteini tenglamasi deb ataladi. Shuni takidlash lozimki, erkin elektron bilan bo'lgan to'qnashuvda UBN elektronga barcha energiyasini bera olmaydi. Metalda esa elektronlarni erkin deb bo'lmaydi, chunki ular bir-birlari bilan va kristal panjara ionlari yoki atonlari bilan ta'sirlashadi. Agar yutilgan energiya elektronni metalda ushlab turgan kuchlarni yenga olsa elektron metaldan chiqishi mumkin. (43) va (45) tenglamalar fotoeffektning barcha xususiyatlarini tushuntiradi. Einstein Plank goyasini yanada rivojlantirdi. Einstein nurlanish, portiysi (kvant) shaklida yutilib va chiqibgina qolmay, portiysi (kvant) shaklida fazoda tarqalishi mumkin yani yorug'lik to'lqini energiyasi oqimi uzluksiz bo'lmay, energiyaning diskret portiysalari kvantlar oqimidan iborat degan yangi goyani o'rtaga tashladi. Shunaqa qilib fizikaga yorug'lik kvanti tushunchasi kiritildi. Elektromagnit to'lqini energiyasining kvanti (1926) *foton* deb ataldi. ω chastotali yorug'likka mos keluvchi foton energiyasi $E = \hbar\omega$ formula bilan topiladi.

Yorug'lik energiyasi oqimi zichligi fotonlar oqimi zichligiga to'g'ri proporsional yani 1 m^2 ko'ndalang kesim yuzini 1 s da kesib o'tuvchi fotonlar soni bilan aniqlanadi. Katod sirtidan urib chiqarilgan elektronlar soni esa fotonlar oqimi zichligiga to'g'ri proporsional (Fotoeffektning 3- qonuni) $I_T \sim S$. (45) tenglamaga muvofiq fotoelektron kinetik energiyasi faqat foton energiyasiga bog'liq bo'lib, fotonlar soniga yani yorug'lik intensivligi (oqimi zichligiga) ga bog'liq emas (Fotoeffektning 2- qonuni). Yana shu (45) tenglamaga muvofiq agar katodni yorutuvchi nurlanish foton energiyasi elektronning metaldan chiqish ishidan kichik bo'lsa fotoeffekt kuzatilmaydi (Fotoeffektning 1- qonuni). Fotoeffektning qizil chegarasi ω_{ch} tajriba yordamida topiladi va odatda mos ravishda to'lqin uzunliklarida keltiriladi λ_{ch} . Elektronning chiqish ishi esa (45) formuladan $v_{man} = 0$ bo'lganda topiladi

$$A = \hbar\omega_{ch}. \quad (46)$$

1914-1916 yillar amerikalik fizik R.E. Milliken (1868-1953) juda nozik tajribalar o'tkazib (45) va (46) formulalarning to'g'riligini isbotladi. Bundan tashqari Plank doimiysining juda aniq qiymati ham topildi $h = 6,56 \cdot 10^{-34} \text{ J} \cdot \text{s}$. Yuqorida ko'rib chiqilgan hodisa *tashqi fotoeffekt* dan farqli *ichki fotoeffekt* ham mavjud. Ichki fotoeffektda foton o'z energiyasini metall yoki umuman qattiq jism ichidagi bog'langan elektronga beradi va uni erkin elektronga aylantiradi, ammo elektron qattiq jism sirtidan chiqib ketmaydi. Ichki fotoeffekt natijasida qattiq jism hajmida erkin elektronlar soni ortadi. Yadroviy fotoeffekt deb ataluvchi hodisada juda qisqa to'lqin uzunligiga ega bo'lga elektromagnit nurlanish (rentgen yoki γ nurlanish) atom yadrosi tomonidan yutiladi va unda nuklon (proton, neytron) lar uchib chiqadi.

Einsteinning yorug'lik fotonlar oqimidan iboratligi to'g'risidagi gipotezasi 1924 yili Bote tajribasida yana




FIG. 17: Bote tajribasi cizilmasi.

bir bor o'z tasdig'ini topdi. Bote tajribasining chizilmasi Fig.17 da keltirilgan.

Juda yupqa metal folga ikki sanagich S lar orasiga joylashtiriladi. Folgaga kichik intensivlikka ega RN tushiriladi. RN ta'sirida folganing o'zi ham RN manbasiga aylanadi. Dastlabki RN intensivligi juda kichik bo'lganligi bois, folgadan chiqqan RN intensivligi ham juda kichik bo'ladi. Folgadan chiqqan RN S sanagichlarga tushadi. Sanagichlar o'z navbatida harakatlanuvchi lentaga belgi chizadigan mashina M larga ulangan. Agar yorug'lik klassik fizika qonunlariga binoan uzluksiz bo'lsa, folgadan barcha yo'nalishda bir xilda RN tarqalar va natijada mashinalar lentaga biri birining to'g'risida yotuvchi belgilar qo'yar edi. Ammo, tajribada belgilar bir biriga nisbatan tartibsiz joylashgani topilgan. Buni faqat nurlanish kvantdan tashkil topgani va ular folgadan nurlanish chiqishida yi chap yo o'ngga yo'nalgan fotonlar paydo bo'lishi bilan tushuntirish mumkin. Yuqorida biz katoddagi elektronning faqat bitta foton bilan ta'sirlashuvini ko'rib chiqqan edik. Katodni lazer nurlari bilan yoritsak ko'p fotonli jarayon ham kuzatilishi mumkin. Bunda elektron N ta fotondan bir vaqtda energiya oladi va katoddan uchib chiqadi. Ko'p fotonli fotoeffekt uchun Einstein formulasi

$$N\hbar\omega = A + \frac{mv_{max}^2}{2} \quad (47)$$

bilan beriladi. Ko'p fotonli fotoeffektda $I_T \sim S^N$.

IX. FOTON

Yorug'lik to'lqinini tavsiflovchi fotonlar mavjudligi ko'p tajribalarda o'z isbotini topgan. Yorug'lik bir vaqtda ham to'lqin ham zarra-foton oqimi deb qaralishi mumkin. Fizikaviy ob'ekt bir vaqtda ham to'lqin

ham zarra xossalari ega bo'la olishligi korpuskula-to'lqin dualizmi deyiladi. Foton energiyasi $E = \hbar\omega$ bilan aniqlanadi. W energiyaga ega elektromagnit to'lqin $K = W/c$ impulsiga ega ekanligini bilgan holda, foton impulsi uchun

$$p = \frac{E}{c} = \frac{\hbar\omega}{c} \quad (48)$$

munosabat bajarilishi kerak. Shuni aytib o'tish kerakki, fotonning tinchlikdagi massasi nolga teng va u doimo c tezlik bilan harakatda bo'ladi. Foton vakuumda ham modda ichida ham c tezlik bilan harakatlanadi. Yorug'lik tezligining moddada kamayishi fotonning modda atomlari tomonidan yutilishi va keyinchalik nurlanishi bilan bog'liq. Yutilish va nurlanish uchun vaqt sarf etiladi. Ammo, foton atomlar orasida c tezlik bilan harakatlanaveradi. Natijada, yirug'lik tezligi moddada c dan kichik bo'ladi. Foton impulsi $p = \hbar \cdot 2\pi/\lambda = \hbar k$ ga teng. Bunda k yorug'lik to'lqin soni. Foton yorug'lik tarqalishi yo'nalishida harakatlanishi sababli oxirgi formulani

$$\vec{p} = \hbar \vec{k} \quad (49)$$

deb yozsak bo'ladi. Yorug'likni yutuvchi maydonga normal ravishda fotonlar oqimi tushayotgan bo'lsin. Agar fotonlar zichligi n bo'lsa, vaqt birligida birlik maydonchaga nc fotonlar tushadi. Har bir foton maydonchaga $p = E/c$ ga teng impuls beradi. Natijada fotonlar maydonchaga

$$P = \frac{E}{c} nc = En \quad (50)$$

ga teng bosim ko'rsatadi. En hajm birligidagi fotonlar energiyasi w dir. Yani $P = w$. Agar maydoncha fotonlar dastasini to'liq qaytaradigan bo'lsa, $P = 2w$ bo'ladi. Umumiy holda ixtiyoriy sirt nurlanishning biror qismini yutib, qolganini qaytaradi. Shu sababli, agar sirtning nurlanishini qaytarish koeffitsienti ρ ga teng bo'lsa, nurlanishning sirtga ko'rsatayotgan bosimi

$$P = (1 + \rho)w \quad (51)$$

formula bilan aniqlanadi. Elektromagnit maydon fotonlar to'plamidan iborat tasavvurotidan foydalanib AQJ ning NQ $f(\omega, T)$ va u bilan termodinamik muvozanatda bo'lgan IN ning spektr zichligi $u(\omega, T)$ orasidagi formulani topish mumkin. Muvozanatli IN bilan to'lgan kovak ichida chastotalari $\omega, \omega + d\omega$ oraliqda yotuvchi dn_ω fotonlar bo'lsin. U holda xuddi o'sha intervaldagi nurlanish energiyasi zichligi

$$dn_\omega = u(\omega, T)d\omega = \hbar\omega dn_\omega \quad (52)$$

ga teng bo'ladi. Foton molekula kabi barcha yo'nalishda harakatlanadi va shu sababdan vaqt birligida birlik maydonchaga uriluvchi fotonlar soni $(1/4)cdn_\omega$ ga teng bo'ladi. Agar maydoncha sirti AQJ kabi barcha nurlanishni yutsa u $(1/4)\hbar\omega cdn_\omega$ ga teng energiya yutadi. Muvozanat holatida shuncha energiya yutgan jism xuddi shunday miqdorda energiya chiqaradi ham. Yani

$$f(\omega, T)d\omega = \frac{1}{4}\hbar\omega cdn_\omega. \quad (53)$$

(52) va (53) ni taqqoslab

$$f(\omega, T) = \frac{c}{4}u(\omega, T) \quad (54)$$

ni topamiz. Bu formulani biz ancha oldin (14) ishlatgan edik.

Yuqorida yorug'lik o'zini korpuskulalar yani fotonlar oqimi kabi tutushini ko'rib chiqdik. Ammo, hech qachon yorug'likning to'lqin ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Bunga interferentsiya va difraktsiya hodisalarini misol etib keltirsak bo'ladi. Yorug'likning to'lqin va korpuskula nuqtai nazardan qaralishi orasida qanday munosabat borligini o'rganamiz. Buning uchun biror sirtning yorug'lik bilan yoritilganligini shu ikki nuqtai nazardan qarab chiqamiz. To'lqin nazariyasiga ko'ra maydonning biror nuqtasidagi yoritilganlik o'sha nuqtadagi yorug'lik to'lqinining amplitudasi kvadratiga proporsional. Korpuskulyar nuqtai nazardan yoritilganlik fotonlar oqimining zichligiga proporsional. U holda yorug'lik to'lqini amplitudasi kvadrati va fotonlar oqimi zichligi orasida to'g'ridan to'g'ri munosabat bo'lishi lozim. Foton energiya va impuls tashuvchisi hisoblanadi. Foton tushgan nuqtada uning energiyasi ajraladi. Ixtiyoriy nuqtadagi to'lqin amplitudasining kvadrati qaralayotgan nuqtaga fotonning tushish ehtimolini bildiradi yani o'sha nuqtada atrofidagi dV hajmda topilish ehtimolini. Bu ehtimollik $dF = \chi A^2 dV$ bilan beriladi. Bunda A - yorug'lik to'lqini amplitudasi, χ proporsionallik koeffitsienti. Yuqoridagilardan yorug'lik tushadigan maydonda fotonning taqsimlanishi statistik xarakterga ega bo'lishi kelib chiqadi. Tajribada maydonning bir tekis yoritilishi odatda fotonlar sonining juda katta ekanligi bilan tushuntiriladi. O'qishda ko'z zo'riqmaydigan yoritilganlikda, 50 lk, to'lqin uzunlik 550 nm, 1 cm^2 maydonga bir sekunda $2 \cdot 10^{13}$ foton tushadi. Ehtimollik nazariyasida ko'rsatilishicha, nisbiy fluktuatsiya (biror miqdorning o'rtacha qiymatidan nisbiy chetlashishi) zarralar soni kvadrat ildiziga teskari proporsional ekan: $\sim 1/\sqrt{n}$. Shu sabab yuqoridagi fotonlar sonida fluktuatsiyasi ko'zga sezilmaydi va yoritilganlik bir tekis ko'riladi. Juda kichik yorug'li oqimining fluktuatsiyasi S.I.Vavilov va uning hamkorlari tomonidan o'rganilgan. Ularning aniqlashicha, ko'zning eng yaxshi ko'rish qobiliyatida ($\lambda = 555nm$) ko'z to'r pardasiga taxminan 200 foton tushishi ko'rish sezgisini yug'otar ekan.






FIG. 18: Kompton tajribasi chizilmasi.

X. KOMPTON EFFEKTI

Yorug'lining korpuskula xossasi Kompton effekti deb nom olgan hodisada yanada yaqqol namoyan bo'ladi. Amerikalik fizik A.X.Kompton (1892-1962) 1923 yili RN ning har xil moddalarda sochilishini o'rganayotib sochilgan nurlanishda dastlabki to'lqin uzunligi λ dan tashqari katta to'lqin uzunligi $\lambda' > \lambda$ ga ega bo'lgan nurlanish ham borligini topdi. $\Delta\lambda = \lambda' - \lambda$ ayirma faqat sochilish burchagi ϑ ga bog'liq bo'lib chiqdi. U na λ , na sochuvchi modda turiga bog'liq emasdi. Kompton tajribasi chizilmasi Fig.18 da keltirilgan. Rentgen trubkasidan olinadigan monoxromatik xarakteristik RN ($K_\alpha Mo$) diafragmalari D yordamida sochuvchi moddaga yo'naltiriladi. Sochilgan RN kristal va ionizatsion kameralardan tashkil topgan spektrometr yordamida qayd etiladi. Fig.19 da sochilgan nurlanish intensivligining har xil sochilish burchaklarida to'lqin uzunligiga bog'liqligi berilgan. Kompton effektida to'lqin uzunligi o'zgargan nurlanish intensivligining dastlabki nurlanish intensivligiga nisbati sochuvchi modda elemento atomi tartib nomeriga bog'liq. Katta tartib nomerli atomlarda sochilganda bu nisbat kichik, yengil modda atomlarida sochilishda asosan u katta. Yani Komptone effekti yengil moddalarda yaxshi kuztilar ekan. Kompton effektini RN fotonlarining "erkin elektronlar" bilan to'qnashishi asosida tushuntirish mumkin ekan. Bunda erkin elektron deganda atom bilan zaif bog'langan va energiyasi RN foton energiyasidan kichik elektronni tushunamiz.

Tinch turgan elektronga foton kelib urilsin va ϑ burchakka sochilsin (Fig.20). Foton $\hbar\omega$ energiyaga va $\hbar\vec{k}$ impulsiga ega. Elektron esa mc^2 energiyaga ega. To'qnashuvdan keyin elektron $\vec{p}$ impulsiga va $c\sqrt{m^2c^2 + p^2}$ energiyaga ega bo'ladi. Sochilgan foton esa $\hbar\vec{k}'$ impulsiga va $\hbar\omega'$ energiyaga ega bo'ladi.

Energiya va impulsning saqlanish qonunlarini yozamiz:

FIG. 19: Kompton tajribasi natijasi. Mo elementining xarakteristik K_α RN ning grafitda sochilishida to'lqin intensivligining to'lqin uzunligiga bog'liqligi.FIG. 20: $\hbar\omega$ energiyaga va $\hbar\vec{k}$ impulsiga ega foton tinch turgan mc^2 energiyali elektronga kelib uriladi va ϑ burchakka sochiladi. Natijda $\vec{p}$ impulsli qaytma elektron, $\hbar\omega'$ energiyali va $\hbar\vec{k}'$ impulsli sochilgan foton paydo bo'ladi.

$$\hbar\omega + mc^2 = \hbar\omega' + c\sqrt{m^2c^2 + p^2} \quad (55)$$

$$\hbar\vec{k} = \hbar\vec{k}' + \vec{p}. \quad (56)$$

(55) tenglamani c ga bo'lib va $\omega/c = k$ ekanligini inobatga olib

$$\sqrt{p^2 + m^2c^2} = \hbar(\vec{k} - \vec{k}') + mc \quad (57)$$

shaklda yozib olamiz va uning ikkala tarafini ham kvadratga ko'taramiz:

$$p^2 = \hbar^2(k^2 + k'^2 - 2kk') + 2\hbar mc(k - k'). \quad (58)$$

Shunga o'xshash (56) ni ham kvadratga ko'taramiz:

$$p^2 = \hbar^2(\vec{k} - \vec{k}')^2 = \hbar^2(k^2 + k'^2 - 2kk' \cos \vartheta). \quad (59)$$

(58) va (59) larni taqqoslab

$$mc(k - k') = \hbar k k' (1 - \cos \vartheta) \quad (60)$$

ni topamiz. Oxirgi fomrulani 2π ga ko'paytiramiz va $mckk'$ ga bo'lamiz:

$$\frac{2\pi}{k'} - \frac{2\pi}{k} = \frac{2\pi\hbar}{mc}(1 - \cos \vartheta). \quad (61)$$

$\lambda = 2\pi/k$ bo'lganligi sababli oxirgi formulani

$$\Delta\lambda = \lambda' - \lambda = \lambda_C(1 - \cos \vartheta) \quad (62)$$

deb yozamiz. Bu yerda $\lambda_C = 2\pi\hbar/mc = h/mc$ elektronning kompton to'liqini uzunligi deb ataluvchi kattalik. Uning qiymati 0.00243 nm. Kompton tajribasi (62) formula asosida to'liq tushuntiriladi. Atom bilan juda kuchli bog'langan elektronlarda RN ning sochilishi natijasida energiya va impuls foton va butun atom orasida ro'y beradi. Atom massasi elektron massasidan taxminan 2000 marta katta bo'lganligi bois, bunday sochilish natijasida to'liqin uzunligining o'zgarishi ham 2000 marta kichik yani sezilmas bo'ladi.

XI. DE BROYL GOYASI

Yorug'lik xossalariining chuqur o'rganilishi optik hodisalarda dualizm mavjudligini ko'rsatdi. Yorug'likning to'liqin xossasiga ega ekanligini yaqqol ko'rsatuvchi hodisalar (interferentsiya va difraktsiya) dan tashqari, uning korpuskulyar xossaga ham ega ekanligini isbotlovchi inkor etib bo'lmas tajribalar (fotoeffekt, Kompton effekti) bor. 1924 yili fransuz fizigi Lui de Broyl (1892-1987) yangi goyani taklif etdi. Unga ko'ra dualizm faqat optik hodisalarga xos bo'lib qolmay, balki universal xarakterga ega. To'liqin zarra xossasiga ega bo'lsa, zarra ham o'z navbatida to'liqin xossasiga ega bo'lishi kerak degan fikrni ilgari surdi. Foton

$$E = \hbar\omega \quad (63)$$

energiyaga va

$$p = 2\pi\hbar/\lambda \quad (64)$$

impilsga ega bo'lsa, de Broyl fikricha elektron yoki biror zarra bilan to'liqin uzunligi

$$\lambda = 2\pi\hbar/p \quad (65)$$




FIG. 21: Devisson va Jermer tajribasi chizilmasi.

va chastotasi

$$\omega = E/\hbar \quad (66)$$

bo'lgan to'liqin jarayon bog'liq. Zarraning energiyasi E ni va impulsini $\vec{p}$ ni uni tavsiflovchi de Broyl to'liqini chastotasi ω va to'liqin soni $\vec{k}$ bilan bog'lovchi

$$E = \hbar\omega, \vec{p} = \hbar\vec{k} \quad (67)$$

munosabatlar *de Broyl tenglamalari* deb ataladi. Norelyativistik tezlik v bilan harakatlanuvchi zarra to'liqin uzunligi

$$\lambda = 2\pi\hbar/mv \quad (68)$$

ga teng. de Broylning goyasi tezda amerikalik fiziklar K.J.Devisson (1881-1958) va L.X.Jermer (1896-1971) lar tomonidan 1927 yili tekshildi va o'z tasdig'ini topdi. Ular elektronlar dastasining Ni monokristal sirtidan qaytishini kuzatdilar (Fig.21). Ni monokristali kubik sistemaga tegishli va uning sitri yaxshi tekislangan bo'lgan.

Monoxromatik elektronlarning juda ingichka dastasi katta diagonalga perpendikulyar etib kesilgan va shlifovka etilgan Ni sirtiga yo'naltiriladi. Ni dan sochilgan elektronlar galvanometrqa ulangan silindrik elektrod bilan qayd etilgan. Qaytgan elektronlar intensivligi galvanometrtdagi tokka qarab o'lchangan. Elektronlar tezligi kuchlanish orqali o'zgartirilgan. Qaytgan elektronlar intensivligi har xil burchaklarda o'lchangan. Olingan natijalar Fig.22 da keltirilgan. Galvanometrtdagi tok kuchi qaytish burchagi va kuchlanish funktsiyasi sifatida chizilgan. Suratdan qaytgan elektronlarning intensivligi aniq bir φ burchakda juda katta ekanligi ko'rinib turibdi. Bu burchak Ni kristali atomlar tekisligidan qaytishga mos kelgan. Berilgan φ da qaytga elektronlar intensivligi 54




FIG. 22: Qaytgan elektronlar dastasi intensivligining sochilish burchagi φ ga bog'liqligi. Vertikal o'q tushuvchi elektronlar dastasi yo'nalishi anglatadi va φ unga nisbatan o'lchanadi. Mazkur yo'nalishdagi tok kattaligi sanoq boshidan egri chiziqqacha bo'lgan kesma uzunligiga teng. O'lchashlar elektronni tezlatuvchi kuchlanishning har xil qiymatlarida bajarilgan.

V da maksimal qiymatga erishgan. Bu kuchlanishga mos keluvchi to'lqin uzunligi (65) ga muvofiq

$$\lambda = \frac{2\pi\hbar}{p} = \frac{h}{\sqrt{2meU}} = 0.167nm \quad (69)$$

ekan. Xuddi shu Ni kristalida kuzatiladigan difraksiya sharti Bregg formulasi $2d \sin \varphi = \lambda$ dan topilgan to'lqin uzunlik 0.165 nm bo'lib chiqdi. Devisson vs Jermer silindrik elektrodni o'zgarmas burchak ostida o'rnatib qaytgan elektronlar dastasi intensivligining elektronlar energiyasiga yani tezlatuvchi kuchlanish U ga bog'liqligi o'rgandlar. Natija Fig.23 da berilgan. Desidson va Jermerining bu natijasini faqat elektron kristal sirtiga tushishi va qaytishida o'zni xuddi to'lqin kabi tutadi debgina tushuntirish mumkin. Bu to'lqin ham de Broyl to'lqinidir. Rostdan ham elektronlarning kristaldagi difraksiyasi xuddi to'lqinning difraksiyasi kabi sodir bo'lgan va bu holda ham Vulf-Bregg munosabatlari bajariladi. Tushish burchagi α o'zgarmas bo'lganda, qaytgan nurlar oqimining intensivligi maksimum bo'lishi

$$n\lambda_n = 2d \sin \alpha, (n = 1, 2, 3, \dots) \quad (70)$$

shart bajarilganda kuzatiladi va uni Bregg formulasini inobatga olib

$$\sqrt{U_n} = \left(\frac{h}{d \sin \varphi} \right) \frac{1}{\sqrt{2em}} n = \text{const} \cdot n \quad (71)$$

deb yozishimiz mumkin. Yani qaytgan elektronlar oqimi intensivligi maksimumi har $\sqrt{U}$ dan oraliqdan kuzatiladi. Natijalarning bunday bir biriga mos kelishini




FIG. 23: Qaytgan elektronlar intensivligining tezlatish potentsiallari ayirmasiga bog'liqligi.

Devisson va Jermer tajribasi de Broyl goyasini to'liq isbotladi deyishga asos beradi. Ingliz fizigi J.P.Tomson (1892-1975) 1927 yili va rus fizigi P.S.Tartakovskiy (1895-1939) juda kichik oqim zichligiga ega elektronlar dastasining metal folgadan o'tishi natijasida difraksiyon manzarani kuzatdilar. Bir nechta o'n kiloelktron Volt potentsiallar ayirmasida tezlatilgan elektronlar yupqa metal folgaga tushadilar va to'siqdan o'tib folga orqasidagi fotoplastinkada difraksiyon manzara hosil qildilar. Yani elektron o'zini to'lqin kabi namayon etadi. 1929 yili nemis fizigi Otto Shtern (1888-1969) atomlar va molekulalar dastalari bilan tajribalar bajarib ulaning ham to'lqin xossalari bor ekanliklarini ko'rsatib berdi.

XII. DE BROYL TO'LQINI XOSSASI

Oldingi bo'limda zarra o'zini to'lqin kabi tutishini ko'rgan edik. Ma'lumki, ω chastotali va $\vec{k}$ to'lqin vektor bilan tavsiflanuvchi fotonning tarqalishi

$$\psi(\vec{r}, t) = A \exp(-i(\omega t - \vec{k}\vec{r})) \quad (72)$$

yassi to'lqin bilan ifodalanadi. Bunda A to'lqin amplitudasi. de Broyl goyasiga binoan E energiyali va $vecp$ impulsli zarraga (72) bilan ifodalanuvchi to'lqinni mos qo'yish mumkin. Bunda zarra va to'lqin parametrlari o'zaro $\omega = E/\hbar$ va $\vec{k} = \vec{p}/\hbar$ formulalar bilan bog'langan. U holda (72) ni

$$\psi(\vec{r}, t) = A \exp \left[-\frac{i}{\hbar} (Et - \vec{p}\vec{r}) \right] \quad (73)$$

deb yozsak bo'ladi. (73) munosabat zarraning de Broyl to'lqin funktsiyasini ifodalaydi. Bu to'lqin funktsiya yassi

to'liq funktsiya bo'lib zarra holatini to'liq ifodalaydi. Odatda uni psi-funktsiya deb ham atashadi. de Broyl to'liq funktsiyasi zarraning energiyasi va impulsi bilan tavsiflanadi. Zarra to'liq funktsiyasi optika qonunlariga ko'ra interferentsiyada va difraktsiyada qatnashadi va fazoda tarqaladi. To'liq funktsiyaning to'g'ri ma'nosini 1926 yili nemis fizigi Maks Born (1882-1970) berdi. Unga ko'ra zarraning de Broyl to'liq funktsiyasi modulining kvadrati zarrani dV hajmda topish ehtimolini anglatar ekan:

$$dF = |\psi|^2 dV = \psi^* \psi dV. \quad (74)$$

Oxirgi ifodadan dV bo'yicha integral olsak natija birga teng bo'lishi kerak, chunki zarrani fazoning qaysidir bir nuqtasida topish ehtimolliigi birga teng bo'ladi:

$$\int \psi^* \psi dV = 1. \quad (75)$$

(75) munosabati zarra to'liq funktsiyasini *normalash sharti* deb ataladi. (75) formuladan to'liq funktsiya modulining kvadrati zarrani hajm birligida topish ehtimolini yani *ehtimollik zichligini* anglatishi kelib chiqadi. To'liq funktsiya o'z mahiyati bo'yicha bir qiymatli, uzluksiz va cheklangan bo'lishi kerak. To'liq funktsiyaga qo'yiladigan bu talablar standart shartlar hisoblanadi.

Endi zarra tezligi va to'liqning tarqalish tezligi orasidagi umumiylikni aniqlaymiz. To'liqning fazaviy tezligi deb to'liq frontining tarqalish tezligiga aytiladi. Agar yassi to'liq faqat x o'qi bo'ylab tarqalayotgan bo'lsa, to'liq fazasi teng bo'lgan nuqtalar $Et - px = \text{const}$ tenglik bilan aniqlanadi. de Broyl to'liqning fazaviy tezligi ushbu tenglikdan vaqt bo'yicha hosila olish bilan topiladi:

$$E - p \frac{dx}{dt} = 0. \quad (76)$$

Bu yerdan

$$\frac{dx}{dt} = v_f = \frac{E}{p} = \frac{mc^2}{mv} = c \frac{c}{v}, \quad (77)$$

v -zarra tezligi. $v < c$ bo'lganligi bois de Broyl to'liqning fazaviy tezligi doimo yorug'lik tezligidan katta. Lekin bu bilan, olinga natija, nisbiylik nazariyasi postulati yani barcha zarralar tezligi yorug'lik tezligidan kichik bo'lishi lozim degan postulati zid bo'lib qolmaydi. Aksincha, nisbiylik nazariyasi postulatida faqat massa va energiya tarqalishi tezligi to'grisida aytilgan xolos. To'liqning fazasi esa hech qanday massa va energiya tarqalishini anglatmaydi. de Broyl to'liqning energiyasi va massasi (yani zarraning o'zi) ning tarqalish tezligi esa gruppaviy tezlik bilan tavsiflanadi va bu miqdor

$$v_{gr} = \left(\frac{d\omega}{dk} \right)_{k=k_0} \quad (78)$$

formula bilan topiladi. de Broyl to'liqini uchun $v_{gr} = d\omega/dk = dE/dp$. Agar $E = c\sqrt{p^2 + mc^2}$ deb hisoblash, $v_{gr} = v$ ekanligini topamiz. Demak, de Broyl to'liqining gruppaviy tezligi zarra tezligiga teng. (77) va (78) formulalardan de Broyl to'liqining gruppaviy va fazaviy tezliklarining ko'paytmasi formulasi $v_{gr}v_f = c^2$ ni topamiz. Zarraning de Broyl to'liqini uzunligi uning tezligi (energiyasi) ga bog'liq. Masalan, U potentsiallar ayirmasidan o'tgan norelyativistik elektron $mv^2/2 = eU$ kinetik energiyaga erishadi. Tezligi esa $v = \sqrt{2eU/m}$ va shu zarraga mos keluvchi de Broyl to'liqini uzunligi

$$\lambda = 2\pi\hbar/\sqrt{2eU} \quad (79)$$

formula bilan aniqlanadi. Elektron zaryadi $e = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$ va massasi $m = 9,1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$, $\lambda = (1,2/\sqrt{U}) \text{ nm}$ bo'ladi. Yani bir nechta eV potentsiallar ayirmasi uchun de Broyl to'liqini uzunligi taxminan 1 nm atrofida bo'ladi. Shuni aytish lozimki (78) formula bilan to'liq paketining ham gruppaviy tezligi topiladi. Lekin bu bilan de Broyl to'liqini yoki zarrani to'liq paketi deb qarab bo'ladi degani emasdir. Chunki, to'liq pakiti vaqt o'tishi va fazoda harakatlani bilan dispersiya natijasida yoyilib ketadi, zarra esa stabil ob'ektdir.

XIII. NOANIQLIK PRINTSIPI

Tajribalarning ko'rsatishicha mikroob'ektlarga nisbatan klassik fizika qonunlarini qo'llab bo'lmas ekan. Mikrozarra biror aniq traektoriya bo'yicha harakatlanadi deb qaralishi ham notog'ri bo'lar ekan. Bunga misol tariqasida ekrandagi tirqishdan o'tayotgan elektronlar koordinatasini aniqlashga urinib ko'ramiz (Fig.24). Elektronlas dastasi ekran EK tirqishidan o'tib fotoplastinka F ga tushishadi. Elektron o'zini to'liq kabi tutishi sababli fotoplastinkada difraktsion manzara kuzatiladi. Elektronlar tirqishdan o'tishlaridan oldin $\vec{p}$ ($p_x = 0, p_y = p_0, p_z = 0$) impulsiga ega bo'lsinlar. Bunday elektronlar to'liq vektori $\vec{k}_0 = \vec{p}_0/\hbar$ bo'lgan de Broyl to'liqini bilan ifodalanadi. de Broyl to'liqini yassi to'liq bo'lganligi sabab (u butun fazoda yoyilgan), elektronni ham butun fazoda yoyilgan deb qarash mumkin. Tirqishdan o'tgan elektronlar yassi to'liq emas, balki tarqaluvchi sferik to'liq bilan tavsiflanadilar. Tarqaluvchi to'liq intensivligi tarqalish yo'nalishi ϑ ga murakkab ravishda bog'liq. Tirqishdan o'tgan elektronlar har xil yo'nalishda tarqalgani bois ular aniq bir to'liq vektori $\vec{k}$ bilan tavsiflanmaydilar. Natijada ularning impulsi dastlabki impuls $\vec{p}_0$ ga teng emaslar. Tirqishdan o'tgan elektron impulsining p_x komponenti o'zgaradi. O'sha o'zgarish Δp_x ni topamiz. Tirqishdan o'tgan elektronning fotoplastinkaning biror nuqtasiga tushish ehtimoli difraktsion manzara bilan aniqlanadi. Manzaraning qaysi




FIG. 24: Elektronlar dastasining tirqishdan o'tishi.

sohasida maksimum bo'lsa elektronning o'sha sohaga tushishi katta bo'ladi. 50% ehtimollik bilan elektron eni l markaziy maksimum sohasiga tushadi. l maksimumning yarim balandligida o'lchangan. Bu soha o'lchami l ni taxmin etib markaziy maksimumdan birinchi minimumgacha bo'lgan masofa bilan almashtirishimiz mumkin. Markaziy maksimumdan va birinchi minimum orasidagi burchakni elektronni tavsiflovchi to'liqining yoyilishini ifodalovchi me'yor sifatida qabul etamiz. Birinchi minimum yo'nalishi

$$\Delta x \sin \vartheta = \lambda \quad (80)$$

bilan aniqlanadi. Bunda Δx tirqish eni, elektronning de Broyl to'liqini uzunligi. ϑ juda kichik bo'lganligi sabab (80) ni

$$\frac{\lambda}{\Delta x} = \sin \vartheta \approx \operatorname{tg} \vartheta \quad (81)$$

deb yozib olamiz. Ammo, $\operatorname{tg} \vartheta = \Delta p_x / p_y$. U holda

$$\Delta p_x \Delta x \approx \lambda p_y. \quad (82)$$

yoki

$$\Delta p_x \Delta x \approx 2\pi\hbar. \quad (83)$$

Elektronlarning difraktsiyasi holi uchun keltirib chiqarilgan (83) munosabat, umumiy xarakterga ega va Geyzenbergning noaniqlik munosabati (GNP) deb ataladi. Uning ma'nosi quyidagicha: *elektron koordinatasining aniqlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, uning impulsining aniqlanishi shunchalik noaniq bo'ladi*. Bunday noaniqlikning mavjudligi bizning bilimimiz nomukammalligida bo'lmay, balki elektron to'liqin funksiyasi Δp_x va Δx




FIG. 25: Elektronlar dastasining tirqishdan o'tishi.

sohalarda yoyilishi oqibatidir. GNP biror koordinata noaniqligini impulsning aynan shu koordinatadagi proektsiyasi noaniqligi bilan bog'laydi:

$$\Delta p_x \Delta x \approx 2\pi\hbar, \Delta p_y \Delta y \approx 2\pi\hbar, \Delta p_z \Delta z \approx 2\pi\hbar. \quad (84)$$

Yani GNP koordinata va impulsning shu koordinata o'qidagi tashkil etuvchisining bir vaqtning o'zida aniqlanishiga cheklov kiritadi. Ammo, bir vaqtning o'zida x va p_y yoki p_z larning aniqlanishiga hech qanday cheklov qo'ymaydi. Endi GNP ning matematik ma'nosini ko'rib chiqamiz. Zarra koordinatasini aniqlash uchun bajarilgan qandaydir bir tajriba zarra koordinata boshida turganligini qayd etsin. Koordinatani aniqlash xatoligi a bo'lsin. U holda zarraning de Broyl to'liqin funksiyasi $[-a, a]$ kesmadagina noldan farqli bo'ladi. To'liqin funktsiyaning shakli bu kesmada turlicha bo'lishi mumkin va u o'lchash usuliga ham bog'liq. Yuqoridagi misolda ko'rgan tajriba to'liqin funktsiya Fig.25(a) da ko'rsatilgandek natija beradi.

Zarrani $[-a, a]$ kesmada tavsiflovchi to'liqin funktsiya ψ_0 bo'lsin. Ta'rifga ko'ra $|\psi(x)|^2 dx$ zarrani $[-a, a]$ kesmada topilishi ehtimolini anglatadi. Umuman zarraning qayerdadir topilish ehtimoli

$$\int_{-\infty}^{+\infty} |\psi(x)|^2 dx = 1 \quad (85)$$

bo'lishi shartidan $\psi_0(x) = 1/\sqrt{2a}$ ni topamiz. Fig.25(a) da tasvirlangan to'liqin funktsiya yassi to'liqin emas. Shu sabab, tirqishdan o'tgan elektron aniq bir impulsiga ega bo'lmaydi. Shunga qaramasdan ixtiyoriy to'liqin funktsiya Fur'e teoremasiga binoan yassi to'liqlar superpozitsiyasi shaklida tasvirlanishi mumkin:

$$\psi(x) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{+\infty} f(k) e^{ikx} dk. \quad (86)$$

Bu yerda $f(k)$ har xil to'liqin soniga ega bo'lgan yassi to'liqlarning $\psi(x)$ ni hosil etish uchun qo'shgan hissasi

hisoblanadi. Bundan tashqari (86) formula impulslar taqsimoti formula bo'lib ham hisoblanadi. $|f(x)|^2 dk$ zarraning to'liq soni $k, k + dk$ yoki impulsi $\hbar k, \hbar(k + dk)$ oraliqda yotish ehtimolini bildiradi. Yani zarraning koordinata bo'yicha taqsimoti uning impuls bo'yicha taqsimotini beradi. Chunki ular o'zaro GNP orqali bog'liq miqdorlar hisoblanadi. (86) formuladan

$$f(k) = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} \int_{-\infty}^{+\infty} \psi(x) e^{-ikx} dx \quad (87)$$

ni topamiz. Bu formulaga $\psi_0(x)$ ning ifodasini qo'yib

$$f^2(k) = \frac{1}{\pi a} \frac{\sin^2(ka)}{k^2} \quad (88)$$

ni topamiz. $f^2(k)$ ning grafigi Fig.25(b) da keltirilgan. Yani impuls bo'yicha taqsimot difraksion manzarani eslatadi. Oldingidek markaziy maksimumdan birinchi minimumgacha bo'lgan oraliqni zarra to'liq soni eni deb qabul etamiz $\Delta k = \pi/a$. U holda $\Delta p = \hbar \Delta k = \hbar \pi/a$. Bizning holda $\Delta x = 2a$ bo'lgani uchun $\Delta p \Delta x \approx 2\pi \hbar$ bo'ladi. Demak, yana GNP ga keldik. Xulosa etib quyidagini aytishimiz mumkin: kvant mexanikasida zarraning traektoriyasini aniqlash mumkin emas, faqat uning to'liq funktsiyasi topilishi mumkin yani uning qayerda bo'lish ehtimoli.

XIV. O'RTACHA QIYMAT VA OPERATORLAR

Kvant mexanikasida fizikaviy miqdorlarning o'rtacha qiymatini hisoblash zuda muhim masalalardan biri bo'lib topiladi. Agar har xil tezliklar bilan harakatlanuvchi N molekula bo'lsa, molekulalarning o'rtacha energiyasi

$$\bar{E} = \frac{1}{N} \sum_{i=1}^N E_i \quad (89)$$

formuladan topiladi. Bunda E_i i - molekula energiyasi. (89) formulani boshqacha qilib ham yozish mumkin. Buning uchun yig'indini

$$\sum_{i=1}^N E_i = \sum_k N_k E_k \quad (90)$$

shaklga keltiramiz. Bunda N_k energiyasi E_k ga teng bo'lgan molekulalar soni. (90) formula taqribiy bo'lib, uning aniqligi energiyani bo'lishni kamaytirish bilan keraklacha oshirilishi mumkin. U holda

$$\bar{E} = \frac{1}{N} \sum_k N_k E_k = \sum_k E_k \frac{N_k}{N} = \sum E_k P_k. \quad (91)$$

Bu yerda N_k/N nisbat P bilan belgilandi va u energiyasi E_k ga teng molekulalar qismini yoki molekula energiyasi E_k ga teng bo'lish ehtimolini anglatadi. Agar energiya uzluksiz o'zgaruvchan bo'lsa, molekula energiyasi $E, E + dE$ oraliqda bo'lishi ehtimolini $P(E)dE$ bilan belgilaymiz. O'rtacha qiymat esa

$$\bar{E} = \int EP(E)dE \quad (92)$$

formuladan topiladi. Endi $\psi(x)$ de Broyl to'liq funktsiyasi bilan tavsiflanadigan mikrozarraning koordinatasini topishga o'tamiz. Ta'rifga ko'ra

$$\bar{x} = \int x |\psi(x)|^2 dx = \int \psi^*(x) x \psi(x) dx. \quad (93)$$

Umuman, zarrani tavsiflovchi ixtiyoriy kattalikning o'rtacha qiymati

$$\overline{f(x)} = \int \psi^*(x) f(x) \psi(x) dx. \quad (94)$$

formula bo'yicha topiladi. Xususan,

$$\overline{p_x} = \int p_x P(p_x) dp_x, \quad (95)$$

bu yerda $P(p_x) dp_x$ zarra impulsining x o'qidagi proektsiyasi $p_x, p_x + dp_x$ oraliqda bo'lishligi ehtimoli va u $\psi(x)$ ning turiga bog'liq. Bu bog'liqlikni topish uchun eni $2a$ bo'lgan potentsial o'radagi zarrani ko'rib chiqamiz. Agar o'ra eni $2a$ juda katta bo'lsa, zarra o'ra chegarasini sezmaydi va erkin zarra kabi harakatlanadi. Zarrani o'rada tavsiflovchi to'liq funktsiya $\psi(x)$ normallashtirish shartini qanoatlantirishi kerak:

$$\int_{-a}^a |\psi(x)|^2 dx = 1. \quad (96)$$

Zarra to'liq funktsiyani Fur'e qatoriga yoyamiz:

$$\psi(x) = \frac{1}{\sqrt{2a}} \sum_{m=-\infty}^{\infty} C_m \exp\left(i \frac{p_m}{\hbar} x\right). \quad (97)$$

Fur'e qatori haqidagi teoremlardan $p_m = \pi \hbar m/a$ bo'lishi kerakligi kelib chiqadi.

(96) shartdan *to'liqlik teoremasi* kelib chiqadi:

$$\sum_{m=-\infty}^{\infty} |C_m|^2 = 1. \quad (98)$$

Bunda

$$C_m = \frac{1}{\sqrt{2a}} \int_{-a}^a \psi(x) \exp\left(-i\frac{p_m}{\hbar}x\right) dx. \quad (99)$$

Zarra impulsining o'rtacha qiymati

$$\overline{p_x} = \sum_m C_m^* p_m C_m \quad (100)$$

formuladan topiladi. (99) ni (100) ga qo'yib

$$\overline{p_x} = \int \psi^*(x) \left(-i\hbar \frac{\partial}{\partial x}\right) \psi(x) dx \quad (101)$$

ni topamiz. Yoki

$$\overline{p_x} = \int \psi^*(x) \hat{p}_x \psi(x) dx, \quad (102)$$

bu yerda

$$\hat{p}_x = -i\hbar \frac{\partial}{\partial x} \quad (103)$$

impuls operatori. Kvant mexanikasining umumiy qoidalaridan biri shuki, ixtiyoriy kattalikning o'rtacha qiymatini shu miqdor operatori va sistema to'liqin funksiyasini yordamida

$$\overline{f} = \int \psi^*(x) \hat{f} \psi(x) dx, \quad (104)$$

aniqlash mumkin. Agar to'liqin funktsiya x, y, z o'zgaruvchilarga ham bog'liq bo'lsa

$$\overline{f} = \int \psi^*(x, y, z) \hat{f} \psi(x, y, z) dx dy dz \quad (105)$$

yoki

$$\overline{f} = \int \psi^* \hat{f} \psi dV. \quad (106)$$

Impuls komponentlari operatorlar:

$$\hat{p}_x = -i\hbar \frac{\partial}{\partial x}, \hat{p}_y = -i\hbar \frac{\partial}{\partial y}, \hat{p}_z = -i\hbar \frac{\partial}{\partial z}. \quad (107)$$

Oxirgi formulani qisqa etib

$$\hat{\vec{p}} = -i\hbar \nabla \quad (108)$$

yozish mumkin. Bunda

$$\nabla = \frac{\partial}{\partial x} \vec{i} + \frac{\partial}{\partial y} \vec{j} + \frac{\partial}{\partial z} \vec{k}. \quad (109)$$

Kvant mexanikasida $\hat{x}$ va $\hat{p}$ operatorlar asosiy operatorlar hisoblanadi. Bu operatorlarni bila turib boshqa miqdorlarning ham operatorlarini topish mumkin. Masalan, DKS sida zarra KE si

$$T = \frac{1}{2m} (p_x^2 + p_y^2 + p_z^2) \quad (110)$$

bo'lsa, unga mos qo'yiluvchi operator

$$\hat{T} = \frac{1}{2m} (\hat{p}_x^2 + \hat{p}_y^2 + \hat{p}_z^2) = -\frac{\hbar^2}{2m} \nabla^2, \quad (111)$$

$$\nabla^2 = \Delta = \frac{\partial^2}{\partial x^2} + \frac{\partial^2}{\partial y^2} + \frac{\partial^2}{\partial z^2}$$

bilan beriladi. Δ operatori *Laplass operatori* deb ataladi. Xuddi shunga o'xshash ravishda zarraning to'liq energiyasi operatorini ham topish mumkin. Kvant mexanikasida bu operator *Gamilton operatori* $\hat{H}$ deb ataladi:

$$\hat{H} = \hat{T} + \hat{U} = -\frac{\hbar^2}{2m} \nabla^2 + \hat{U}. \quad (112)$$

Endi zarra impulsi momentining operatorini topamiz. Klassik mexanikaga ko'ra zarraning impuls momenti

$$\vec{M} = [\vec{r} \times \vec{p}] = \begin{vmatrix} \vec{i} & \vec{j} & \vec{k} \\ x & y & z \\ p_x & p_y & p_z \end{vmatrix}. \quad (113)$$

Impuls momentining z proektsiyasi operatori DKS sida

$$\begin{aligned} \hat{M}_z &= x \hat{p}_y - y \hat{p}_x = x \left(-i\hbar \frac{\partial}{\partial y}\right) - y \left(-i\hbar \frac{\partial}{\partial x}\right) \\ &= -i\hbar \left(x \frac{\partial}{\partial y} - y \frac{\partial}{\partial x}\right) \end{aligned} \quad (114)$$

formuladan topiladi. SfKS siga o'tamiz (Fig.26):

$$x = r \sin \theta \cos \varphi, y = r \sin \theta \sin \varphi, z = r \cos \theta. \quad (115)$$

φ bo'yicha xususiy hosilani dekart koordinatalar bo'yicha xususiy hosilalar bilan bog'laymiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial}{\partial \varphi} &= \frac{\partial x}{\partial \varphi} \frac{\partial}{\partial x} + \frac{\partial y}{\partial \varphi} \frac{\partial}{\partial y} + \frac{\partial z}{\partial \varphi} \frac{\partial}{\partial z} = \\ &= -r \sin \theta \sin \varphi \frac{\partial}{\partial x} + r \sin \theta \cos \varphi \frac{\partial}{\partial y} = \\ &= -y \frac{\partial}{\partial x} + x \frac{\partial}{\partial y}. \end{aligned} \quad (116)$$




FIG. 26: SfKS sidan DKS siga o'tish.

(114) va (116) larni taqqoslab $\widehat{M}_z$ operatorini topamiz:

$$\widehat{M}_z = -i\hbar \frac{\partial}{\partial \varphi}. \quad (117)$$

Hisoblashlar

$$\widehat{M}_x = i\hbar \left(\sin \varphi \frac{\partial}{\partial \theta} + \cot \theta \cos \varphi \frac{\partial}{\partial \varphi} \right), \quad (118)$$

$$\widehat{M}_y = -i\hbar \left(\cos \varphi \frac{\partial}{\partial \theta} - \cot \theta \sin \varphi \frac{\partial}{\partial \varphi} \right). \quad (119)$$

Impuls momenti kvadrati $\widehat{M}^2$ operatori ham kvant fizikasida katta ahamiyatga ega. U

$$\widehat{M}^2 = -\hbar^2 \left[\frac{1}{\sin \theta} \frac{\partial}{\partial \theta} \left(\sin \theta \frac{\partial}{\partial \theta} \right) + \frac{1}{\sin^2 \theta} \frac{\partial^2}{\partial \varphi^2} \right] \quad (120)$$

formula bilan aniqlanadi. Laplass operatorining SfKS sida ko'rinishi quyidagicha

$$\Delta = \Delta_r + \frac{1}{r^2} \Delta_{\theta, \varphi}, \quad (121)$$

$$\Delta_r = \frac{1}{r^2} \frac{\partial}{\partial r} \left(r^2 \frac{\partial}{\partial r} \right), \quad (122)$$

$$\Delta_{\theta, \varphi} = \frac{1}{\sin \theta} \frac{\partial}{\partial \theta} \left(\sin \theta \frac{\partial}{\partial \theta} \right) + \frac{1}{\sin^2 \theta} \frac{\partial^2}{\partial \varphi^2}. \quad (123)$$

Ko'rib turganimizdek impuls momenti kvadratining operatori $\widehat{M}^2$ Laplass operatori Δ ning burchak qismining Plank doimiysi kvadratiga ko'paytmasiga teng ekan. Gamilton operatoridan foydalanib to'liq energiyani o'rtacha qiymatini topishimiz mumkin:

$$\begin{aligned} \overline{E} &= \int \psi^* \widehat{H} \psi dV = \int \psi^* \widehat{T} \psi dV + \int \psi^* \widehat{U} \psi dV, \\ \overline{E} &= \overline{T} + \overline{U}. \end{aligned}$$

Yani to'liq energiyani o'rtacha qiymati KE ning o'rtacha qiymati va PE ning o'rtacha qiymati yig'indisiga teng ekan. Kvant fizikasida eng asosiy masala bu sistemaning to'liq funktsiyasini topishdir. Sistema har xil holatlarda bo'lishi mumkin. Sistemani tavsiflovchi miqdor aniq bir qiymatga ega bo'lgan holat ana shu miqdorning *hususiy holati* deb ataladi. Yassi de Broyl to'liqini $\exp(ip_m x/\hbar)$ impulsi p_m ga teng bo'lgan zarra holatini ifodalaydi. Kvant mexanikasi ta'limotiga binoan: fizikaviy miqdor f aniq bir f_0 qiymatga ega bo'ladigan sistema holati to'liq funktsiyasi ψ

$$\widehat{f}\psi = f_0\psi \quad (124)$$

tenglamani qanoatlantirishi lozim. Bu tenglama *xususiy qiymat* ni topish tenglamasi deb ham ataladi. f_0 xususiy qiymat, ψ esa xususiy funktsiya deyiladi. Rostdan ham, agar (124) dan f ning o'rtacha qiymatini topsak $\overline{f} = f_0$ ni topamiz. Shuni aytib o'tish kerakki (124) tenglama odatda operatorli differentsial tenglama bo'ladi. Misol uchun impulsning x proeksiyasi uchun

$$\widehat{p}_x \psi = -i\hbar \frac{\partial}{\partial x} \psi = p_x \psi \quad (125)$$

tenglama o'rinlanishi uchun zarra to'liq funktsiyasi $\psi \sim \exp(-i\vec{p}\vec{r}/\hbar)$ ko'rinishda bo'lishi lozim. (124) tenglamani bitta yoki bir nechta xususiy qiymatlar va xususiy funktsiyalar qanoatlantirishi mumkin. Agar (124) tenglamani qanoatlantiruvchi $f_{0,1}, f_{0,2}, \dots, f_{0,n}$ xususiy qiymatlar mavjud bo'lsa, bu xususiy qiymatlar to'plami $\widehat{f}$ operatorning *spektri* deb ataladi. Operatorning spektri uzlukli (diskret) yoki uzluksiz bo'lishi mumkin. Agar xususiy qiymatning bittasiga bitta xususiy funktsiya mos kelsa, sistema holati aynimagan, aks holda, nechta xususiy funktsiya mos kelsa, shunga teng darajada aynigan holat deyiladi. Tajribada o'lchash natijasida biz $\widehat{f}$ operatorining xususiy qiymatini topamiz.

XV. SHRYODINGER TENGLAMASI

de Broylning zarraning to'liq xossaga ega ekanligi goyasini yanada rivojlantirish oqibatida 1926 yili avstriyalik fizik Ervin Shryodinger (1887-1961) zarraning harakatini har xil kuch maydonlarida ifodalovchi, uning to'liq funktsiyasini topishga imkon beruvchi va kvant mexanikasida muhim ahamiyat kasb etuvchi tenglamani qo'lga kiritdi. Bu tenglama quyidagi ko'rinishga ega:

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \nabla^2 \Psi + U\Psi = i\hbar \frac{\partial \Psi}{\partial t}. \quad (126)$$

Bu yerda m zarraning massasi, U uning PE si. (126) tenglama *Shryodinger tenglamasi* (ShT) deyiladi. ShT norelyativistik kvant mexanikasining asosiy tenglamasi hisoblanadi va tajribalarni to'g'ri tushuntiradi. Laplas operatori $\Delta = \nabla^2$ ning zarra to'liq funktsiyasi Ψ ga ta'siri quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\Delta\Psi = \frac{\partial^2\Psi}{\partial x^2} + \frac{\partial^2\Psi}{\partial y^2} + \frac{\partial^2\Psi}{\partial z^2}. \quad (127)$$

Shryodinger o'z tenglamasini optika va mexanika hodisalarining analogiyasidan quyidagicha yaratgan*. To'g'ri chiziqli, misol uchun x o'qi, bo'yicha harakatlanayotgan erkin zarrani ko'rib chiqamiz. de Broyl fikriga ko'ra zarrani

$$\Psi = A \exp\left[\frac{i}{\hbar}(px - Et)\right] \quad (128)$$

to'liq funktsiya bilan to'liq tavsiflash mumkin. Bu ifodaning vaqt t bo'yicha birinchi hosilasini va koordinata x bo'yicha ikkinchi hosilasini topamiz:

$$\frac{\partial\Psi}{\partial t} = -\frac{i}{\hbar}E\Psi, \quad \frac{\partial^2\Psi}{\partial x^2} = -\frac{1}{\hbar^2}p^2\Psi. \quad (129)$$

Bu yerdan

$$E = \frac{1}{\Psi}i\hbar\frac{\partial\Psi}{\partial t}, \quad p^2 = -\frac{1}{\Psi}\hbar^2\frac{\partial^2\Psi}{\partial x^2}. \quad (130)$$

Norelyativistik fizika $E = p^2/2m$ formulasiga (130) dan o'z ifodalarini qo'yib va Ψ ga qisqartirib

$$-\frac{\hbar^2}{2m}\frac{\partial^2\Psi}{\partial x^2} = i\hbar\frac{\partial\Psi}{\partial t} \quad (131)$$

ni topamiz. (131) formula (126) bilan bir xil, agar oxirigida $U = 0$ deb qabul etsak. Agar zarra U PE ga ega bo'lsa,

$$\frac{p^2}{2m} = E - U \quad (132)$$

ga (130) dan o'z ifodalarini qo'yib

$$-\frac{1}{\Psi}\frac{\hbar^2}{2m}\frac{\partial^2\Psi}{\partial x^2} = \frac{q}{\Psi}i\hbar\frac{\partial\Psi}{\partial t} - U \quad (133)$$

ni topamiz. (133) ning ikkala tomonini Ψ ga ko'paytirib (126) ni topamiz. Agar zarra statsionar potentsial maydonda harakatlansa, U bevosita t ga bog'liq bo'lmaydi. U holda ShT ning echimi ikki ko'paytuvchiga ajraladi:

$$\Psi(\vec{r}, t) = \psi(\vec{r}) \exp\left[-i\frac{E}{\hbar}t\right]. \quad (134)$$

Bu yerda E zarraning to'liq energiyasi. Statsionar maydonda E saqlanadi. (134) ni (126) ga qo'yib

$$-\frac{\hbar^2}{2m}\Delta\psi + U\psi = E\psi \quad (135)$$

tenglamani topamiz. Bu tenglama *Shryodingerning statsionar tenglamasi* (ShST) deb ataladi. O'z navbatida (126) tenglama *Shryodingerning nostatsionar tenglamasi* (ShNST) deb ataladi. Gamilton operatori yordamida ShNST si qisqacha

$$\hat{H}\Psi = i\hbar\frac{\partial\Psi}{\partial t} \quad (136)$$

shaklida yozsa bo'ladi. Statsionar maydonda $\Psi^*\Psi = \psi^*\psi$ yani ehtimollikning zichligi vaqtga bog'liq emas. ShT siga energiya E parametr sifatida kiradi. Differentsial tenglamalar nazariyasida ko'rsatilishicha (126) tenglama E ning barcha qiymatlarida echimga ega bo'lmay faqat tanlangan qiymatlarida echimga ega bo'ladi. Energiyaning bu tanlangan qiymatlari ShT sinning xususiy qiymatlari deyiladi. Xususiy qiymatlarga mos keluvchi to'liq funktsiyalar xususiy funktsiyalari deyiladi. Oldin takidlab o'tganimizdek, energiyaning xususiy qiymatlari to'plami energiyaning *spektri* deb ham ataladi. Agar energiyaning xususiy qiymatlari diskret bo'lsa, *spektr diskret* deyiladi. Agar xususiy qiymatlar uzluksiz ravishda o'zgarsa *spektr uzluksiz* yoki *tutash* deyiladi. Tutash spektrga erkin zarraning impulsi spektri misol bo'ladi, chunki erkin zarra to'liq funktsiyasi yassi to'liq va shuning uchun (125) tenglama p_x ning ixtiyoriy qiymatida o'rinlanadi. Diskret spektrda xususiy qiymat va unga mos keluvchi xususiy funktsiyalarni tartib bilan yozishimiz mumkin:

$$E_1, E_2, E_3, \dots, E_n \\ \psi_1, \psi_2, \psi_3, \dots, \psi_n.$$

Demak, energiya kvantlanadi. Kvant mexanikasida xususiy qiymat va funktsiyaning topilishi juda murakkab matematik masala hisoblanadi. Odatda ko'pchilik masalalar faqat soddalashtirilgandan keyingina echim mumkin bo'ladigan holga keltiriladi.

XVI. POTENTIAL O'RADAGI ZARRA

Diskret spektrga ega bo'lgan sodd misolni ko'rib chiqamiz. Bir o'lchamli eni l bo'lgan potentsial o'radagi zarrani qaraymiz (Fig.27.a).

Zarraning o'radagi PE si

$$U = \begin{cases} 0, & 0 \leq x \leq l; \\ \infty, & x < 0 \text{ va } x > l. \end{cases} \quad (137)$$

munosabat bilan berilgan. Bu masala uchun ShT si




FIG. 27: Zarraning potentsial o'radagi holati va uning energiya sathlari.

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \frac{\partial^2 \psi}{\partial x^2} + U\psi = E\psi \quad (138)$$

shaklda yoziladi. Zarra o'radan tashqaridagi sohaga o'tishi mumkin emas. Shu sababli zarrani o'radan tashqarida topish ehtimolligi nolga teng. O'z navbatida zarraning de Broyl to'lqin funktsiyasi ham o'radan tashqarida nolga teng. To'lqin funktsiyaning uzluksiz bo'lishi shartidan u o'ra chegarasida nolga teng bo'lishi kelib chiqadi: $\psi(0) = \psi(l) = 0$. (138) tenglamadan topilgan xususiy funktsiya ham bu chegaraviy shartni qanoatlantirishi lozim. O'ra ichida ($U = 0$) ShT

$$\frac{\partial^2 \psi}{\partial x^2} + \frac{2m}{\hbar^2} E\psi = 0 \quad (139)$$

ko'rinishda yoziladi. $k^2 = 2mE/\hbar^2$ belgilash kiritib, bizga tebranishlar nazariyasidan tanish bo'lgan tenglamani qo'lg'a kiritamiz:

$$\psi'' + k^2\psi = 0. \quad (140)$$

Bu tenglamaning echimi

$$\psi(x) = A \sin(kx + \alpha) \quad (141)$$

ko'rinishga ega. Chegara shartlaridan quyidagilarni aniqlaymiz:

$$\begin{aligned} \psi(0) = 0 &\Rightarrow \alpha = 0 \\ \psi(l) = 0 &\Rightarrow kl = \pm\pi n (n = 1, 2, 3, \dots). \end{aligned}$$

Zarra energiyasi

$$E_n = \frac{\pi^2 \hbar^2}{2ml^2} n^2, (n = 1, 2, 3, \dots) \quad (142)$$

ga teng bo'ladi. Yani u kvantlanadi. Kvant soni n . Zarraning o'radagi energetik sathlari Fig.27.b da berilgan. Ikki qo'shni energetik sath orasidagi ayirma

$$\Delta E_n = E_{n+1} - E_n = \frac{\pi^2 \hbar^2}{2ml^2} (2n+1) \approx \frac{\pi^2 \hbar^2}{ml^2} n \quad (143)$$

ga teng. Agar zarra massasi $m \sim 10^{-26} kg$, o'ra o'lchami $l \sim 0.1m$ bo'lsa, $\Delta E_n \approx n \cdot 10^{-20} eV$ bo'ladi. Energetik sathlarning bunday darajada zich joylashishi bizga uzluksiz bo'lib tuyuladi va kvant effektlar sezilmaydi. Elektron uchun bu ayirma $\Delta E_n \approx n \cdot 10^{-16} eV$ bo'ladi. Ko'rib turganimizdek mikrozarra makroskopik o'lchamli idish ichida bo'lsa, kvantlanish hodisasi ro'y bersada u sezilmaydi. Agar biz elektronni atom o'lchamiga teng sohaga qamasak, butunlay boshqacha holga duchor bo'lamiz. Atom o'lchami $\sim 10^{-10}m$ bo'lsa, $\Delta E_n \approx n \cdot 10^2 eV$ bo'ladi. Yani kvantlanish yaqqol seziladi. (142) formulaga binoan zarraning minimal energiyasi noldan farqli va u zarraning to'lqin xossasi bilan bog'liq. Bu natijaga GNP orqali kelish ham mumkin. Zarra l sohada harakatlansa uning koordinatasining aniqsizligi $\Delta x = l$. U holda zarraning impulsi aniqsizligi $p = \Delta p = \hbar/l$. O'z navbatida uning KE si

$$E_{min} = \frac{p^2}{2m} \approx \frac{\hbar^2}{2ml^2}. \quad (144)$$

Zarra muvozanat holatida $n = 1$ holatni egallaydi va E_1 energiyaga ega bo'ladi. Biror tashqi sabab natijasida u energiyasini oshirishi mumkin va yuqoridagi energetik sathlarga o'tadi. Har bir holat (energetik sath) da zarra E_n ga mos keluvchi xususiy funktsiya $\psi(x) = A \sin \pi n x / l$ bilan tavsiflanadi. Normallashtirish sharti (85) dan A ni aniqlab

$$\psi_n(x) = \sqrt{\frac{2}{l}} \sin \frac{n\pi x}{l} \quad (145)$$

ekanligini topamiz. Xususiy funktsiyaning grafigi Fig.28(a) da keltirilgan. Fig.28(b) da zarrani o'rada topish ehtimoli zichligi berilgan.

Fig.28(b) dan $n = 2$ energetik holatda zarrani o'ra p'rtasida topish ehtimoli nolga teng ekanligini ko'ramiz. Zarrani o'raning yon tomonlarida tenh ehtimollik bilan topish mumkin. Zarraning o'zini bunday tutushi klassik fizika qonunlariga mutlaqo zid. Klassik fizika qonunlariga ko'ra o'raning barcha nuqtalari teng huquqli va zarrani topish ehtimoli hamma nuqtalarda teng bo'lishi kerak.

XVII. GARMONIK OSTSILLYATOR

Massasi m bo'lgan zarraning garmonik tebranma harakatini qarab chiqamiz. Bunda uning PE si $U =$




FIG. 28: Zarraning potentsial o'radagi xususiy funktsiyasi ψ_n va uni shu o'rada topish ehtimoli zichligi $\psi_n^* \psi_n$ ning zarra koordinatasi x bog'liqligi.

$kx^2/2$ bilan berilgan bo'lsin. Yani harakat bir o'lchamli va tebranishlar kichik deb hisoblaymiz. Klassik fizikaga ko'ra zarra koordinatasi $x(t) = a \cos(\omega t + \alpha)$ kabi o'zgaradi. Uning to'liq energiyasi esa $E = T + U = m\omega^2 a^2/2$ ixtiyoriy qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Kvant fizikasida zarraning energiyasini topish uchun ShT sini echishimiz lozim. Zarra uchun ShST si

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \frac{\partial^2 \psi(x)}{\partial x^2} + \frac{m\omega^2 x^2}{2} \psi(x) = E\psi(x) \quad (146)$$

shaklda yoziladi. Tenglamani echish uchun o'lcham birligisiz ζ va ε o'zgaruvchilarga o'tish maqul:

$$\zeta = \frac{x}{x_0}, x_0 = \sqrt{\frac{\hbar}{m\omega}}$$

$$\varepsilon = \frac{E}{E_0}, E_0 = \frac{\hbar\omega}{2}$$

Yangi o'zgaruvchilarda hosila

$$\frac{d}{dx} = \frac{d\zeta}{d\zeta} \frac{d\zeta}{dx}$$

$$\frac{d^2}{dx^2} = \frac{1}{x_0^2} \frac{d^2}{d\zeta^2}$$

formulalar yordamida hisoblanadi va (146) formula

$$\psi'' + \varepsilon\psi - \zeta^2\psi = 0 \quad (147)$$

ko'rinishga olib kelinadi. Oldiniga $\psi(\zeta)$ funktsiyaning $|\zeta| \rightarrow \infty$ da asimptotasini aniqlab olamiz. ζ ning katta qiymatlarida (147) formulada $\varepsilon\psi$ hadni inobatga olmasa ham bo'ladi. U holda

$$\psi''_\infty - \zeta^2\psi_\infty = 0. \quad (148)$$

(148) tenglamaning echimini

$$\psi_\infty = \exp(\alpha\zeta^2) \quad (149)$$

shaklda qidiramiz. Bu yerda α ixtiyoriy doimiy. (149) ni (148) ga qo'yib $\alpha = \pm 1/2$ ni topamiz. Cheksizlikda to'lqin funktsiya cheklangan bo'lishi kerakligidan faqat $\alpha = -1/2$ qiymatni olamiz. Demak,

$$\psi_\infty = \exp(-\zeta^2/2). \quad (150)$$

(147) tenglamaning aniq echimini

$$\psi(\zeta) = v(\zeta)\psi_\infty = v(\zeta)\exp(-\zeta^2/2) \quad (151)$$

ko'rinishda qidiramiz. (151) ni (147) ga qo'yib

$$v'' - 2\zeta v' + (\varepsilon - 1)v = 0 \quad (152)$$

ni topamiz. Bu tenglamaning echimi $|\zeta| \rightarrow \infty$ da $\exp(-\zeta^2/2)$ had bilan aniqlanadi va shu sabab $v(\zeta)$ cheklangan darajali polinom bo'lishi kerak:

$$v(\zeta) = \sum_{k=0}^{\infty} b_k \zeta^k. \quad (153)$$

(153) ni (152) ga qo'yib va bi xil hadlarni gruppalam

$$\sum_k [(k+2)(k+1)b_{k+2} - (2k - \varepsilon + 1)b_k] \zeta^k = 0 \quad (154)$$

ni topamiz. (154) da $\zeta^k \neq 0$ sababli uning oldidagi koeffitsient nolga teng bo'lishi kerak:

$$b_{k+2} = \frac{2k - \varepsilon - 1}{(k+1)(k+2)} b_k. \quad (155)$$

$\psi(\zeta)$ funktsiya cheklangan bo'lishi uchun (153) yig'indi ham biror hadda qir qilishi lozim. Misol uchun n -haddacha bo'lgan b_k koeffitsientlar noldan farqli bo'lib, undan keyingilari nolga teng bo'lsin: $b_{n+2} = b_{n+4} = \dots = 0$. Bunaqa bo'lishi uchun (155) ifodadagi kasr surati $2n - \varepsilon + 1 = 0$ bo'lishi kerak. Faqat shu oxirgi tenglik

$$\varepsilon = 2n + 1 \quad (156)$$

bajarilganda $v(\zeta)$ cheklangan polinom bo'ladi. (156) dan $\varepsilon = 2E/\hbar\omega$ ni inobatga olib garmonik ostsillyatorning energiyasini topamiz:

$$E_n = \left(n + \frac{1}{2}\right) \hbar\omega. \quad (157)$$




FIG. 29: Garmonik ostsillyatorning energetik sathlari.

Demak, GO energiyasi kvantlanar ekan. Kvant soni $n = 0, 1, 2, \dots$ GO ning energetik spektri ekvidistant (teng masofalarda) joylashgan sathlardan iborat bo'ladi (Fig.29). GO ning asosiy holati energiyasi $n = 0$ da $E_0 = \hbar\omega/2$ bo'lib *nolinchi energiya* deb ataladi. Klassik GO ning asosiy holati $x = 0$ da bo'lib energiyasi ham nolga teng. Shu sabab nolinchi holatdagi tebranish kvant tabiatga ega. Koeffitsientlari o'zaro (155) munosabat oqrali bog'langan $v(\zeta)$ polinom *maxsus funktsiya* bo'lib, *Ermit polinomi* nomi bilan ataladi:

$$H_n(\zeta) = (2\zeta)^n - \frac{n(n-1)}{1!}(2\zeta)^{n-2} + \frac{n(n-1)(n-2)(n-3)}{2!}(2\zeta)^{n-4} + \begin{cases} b_1\zeta, & n \text{ toq bo'lganda;} \\ b_0, & n \text{ juft bo'lganda.} \end{cases} \quad (158)$$

GO ning to'liq funktsiyasi natijaviy ko'rinishi

$$\psi_n(\zeta) = C_n e^{-\zeta^2/2} H_n(\zeta) \quad (159)$$

bo'ladi.

Koeffitsienti C_n normallashtirish shartidan topiladi:

$$\int_{-\infty}^{+\infty} |\psi(\zeta)|^2 d\zeta = 1 \Rightarrow C_n = \frac{1}{\sqrt{2^n n! \sqrt{\pi}}}. \quad (160)$$

Misol tariqasida GO ning birinchi 3 ta xususiy energiyalari va funktsiyalarini keltiramiz:

$$\begin{aligned} E_0 &= \frac{\hbar\omega}{2} & \psi_0(x) &= \frac{1}{\sqrt{x_0\sqrt{\pi}}} e^{-\frac{(x/x_0)^2}{2}} \\ E_1 &= \frac{3\hbar\omega}{2} & \psi_1(x) &= \frac{1}{\sqrt{2x_0\sqrt{\pi}}} \frac{2x}{x_0} e^{-\frac{(x/x_0)^2}{2}} \\ E_2 &= \frac{5\hbar\omega}{2} & \psi_2(x) &= \frac{1}{\sqrt{8x_0\sqrt{\pi}}} \left[4\left(\frac{x}{x_0}\right)^2 - 2 \right] e^{-(x/x_0)^2/2} \end{aligned} \quad (161)$$




FIG. 30: Garmonik ostsillyatorning xususiy funktsiyalari va uning ehtimoligi zichligi.




FIG. 31: Klassik garmonik ostsillyatorning ehtimoligi zichligi.

Fig.30 da bu funktsiyalarning va garmonik tebranuvchi zarrani biror koordinatada topish ehtimoli zichligining grafiklari berilgan.

Suratlardan ko'rinib turganidek GO ning asosiy holatida $n = 0$ tebranuvchi zarrani koordinata boshi atrofida topish ehtimoli katta. Birinchi uyg'ongan holatda $n = 1$ zarrani muvozanat holati atrofida topish ehtimoli nolga teng. Bu klassik fizika qonunlariga mutlaqo zid. Klassik fizika qonunlaricha zarrani biror koordinata atrofida topish ehtimoli zarraning shu nuqta atrofida harakatlanish vaqti dt ga proporsional $dP = dt/T$ yoki $dP = dx/(T|\dot{x}|)$. $\dot{x} = a\omega\sqrt{1 - x^2/a^2}$ ekanligini eslab

$$\frac{dP_{kl}}{dx} = \frac{1}{2\pi a \sqrt{1 - x^2/a^2}} \quad (162)$$

ni topamiz. Tebranuvchi zarrani topish ehtimoli klassik GO da Fig.31 berilgan.

XVIII. ZARRANING TO'SIQDAN O'TISHI

To'g'ri chiziqli bo'ylab harakatlanuvchi zarra oldida Fig.32 da ko'rsatilgandek potentsial to'siq bo'lsin. Klassik fizika qonunlariga ko'ra, agar zarraning energiyasi E to'siq balandligi U_0 kichik bo'lsa, u to'siqning ortiga o'ta olmaydi. Ammo kvant mexanikasi hatto bunday E, U_0 holda ham zarraning to'siqdan o'ta olishini ko'rsatadi. Keling buni ko'rib chiqamiz. To'siqni zarra oldida uchrovchi

$$U = \begin{cases} 0, & -\infty < x < 0 \text{ (1- soha);} \\ U_0, & 0 < x < l \text{ (2- soha);} \\ 0, & l < x < \infty \text{ (3- soha).} \end{cases} \quad (163)$$

formula bilan beriluvchi PE deb qarasak bo'ladi. Zarra uchun 1- va 3- sohalarida ShT si

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \frac{d^2\psi_{1,3}(x)}{dx^2} = E\psi_{1,3}(x) \quad (164)$$

ko'rinishda va 2- sohada

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \frac{d^2\psi_2(x)}{dx^2} + U_0\psi_2(x) = E\psi_2(x) \quad (165)$$

ko'rinishda yoziladi. ShT lari (164) va (165) ni

$$k = \sqrt{\frac{2mE}{\hbar}}, \kappa = \sqrt{\frac{2m(U_0 - E)}{\hbar}} \quad (166)$$

belgilashlar kiritib mos ravishda

$$\psi_{1,3}'' + k^2\psi_{1,3} = 0 \quad (167)$$

$$\psi_2'' - \kappa\psi_2 = 0 \quad (168)$$

shakllarda yozsak bo'ladi. Bu ikkinchi darajali differentsial tenglamalarning echimini Eyler usuli bilan qidiramiz yani $\exp(\lambda x)$ shaklida. U holda har ikkisi uchun quyidagi xarakteristik tenglamalarni topamiz: $\lambda^2 + k^2 = 0$ va $\lambda^2 - \kappa^2 = 0$. Ularning ildizlari mos ravishda $\lambda_{1,3} = \pm ik$ va $\lambda_2 = \pm \kappa$ bo'ladi. Natijda zarraning to'lqin funktsiyasi quyidagicha yozilishi mumkin:

$$\psi_1(x) = A_1 e^{ikx} + B_1 e^{-ikx} \quad (169)$$

$$\psi_2(x) = A_2 e^{\kappa x} + B_2 e^{-\kappa x} \quad (170)$$

$$\psi_3(x) = A_3 e^{ikx} + B_3 e^{-ikx} \quad (171)$$

1- va 3- sohalarida zarraning to'lqin funktsiyasi yassi monoxromatik de Broyl to'lqini ekanligi ko'rinib turibdi. To'lqin funktsiyalar chegaralarda silliq, uzluksiz bo'lishi kerak yani

$$\psi_1(0) = \psi_2(0), \quad \psi_2(l) = \psi_3(l), \quad (172)$$

$$\psi_1'(0) = \psi_2'(0) \quad \psi_2'(l) = \psi_3'(l). \quad (173)$$

3- sohada faqat to'siqdan o'tgan to'lqin x yo'nalishicha tarqaladi. Shuning uchun $B_3 = 0$ deb olishimiz kerak. (172) va (173) formulalardan biz B_1, A_2, B_2, A_3 larni A_1 orqali ifodalashimiz mumkin. A_1 1- sohada zarralar manbasi intensivligi bilan aniqlanadi. Uni ixtiyoriy deb tanlashimiz, xususan $A = 1$ deb qabul etishimiz ham mumkin. Chegaravish shartlardan

$$A_2 = \frac{2i(n-i)e^{\kappa l}}{(n+i)^2 e^{-\kappa l} - (n-i)^2 e^{\kappa l}}, \quad (174)$$

$$B_2 = \frac{2i(n+i)e^{-\kappa l}}{(n+i)^2 e^{-\kappa l} - (n-i)^2 e^{\kappa l}}, \quad (175)$$

$$A_3 = \frac{4in}{(n+i)^2 e^{-\kappa l} - (n-i)^2 e^{\kappa l}}, \quad (176)$$

$$B_1 = 1 - A_2 - B_2. \quad (177)$$

larni topamiz. Bu yerda $n = \kappa/k = \sqrt{(U_0 - E)/E}$. Agar to'siq keng va baland bo'lsa $\kappa l \gg 1$

$$A_2 \approx -\frac{2i}{n-i}, B_2 \approx -\frac{2i(n+i)}{(n-i)^2} \approx 0 \quad (178)$$

bo'ladi. Demak, to'siq sohasida zarraning to'lqin funktsiyasi 0 dan l gacha eksponentsial ravishda kamayar ekan $\psi_2(l)/\psi_2(0) \sim \exp(-\kappa l)$. Xuddi shunga o'xshash zarraning to'siqgacha va to'siqdan keyinchi to'lqin funktsiyalari amplitudalari nisbati: $A_3/A_1 \ll 1$. Yani 3- sohada zarrani topish ehtimoli eksponentsial kichik son bilan tavsiflanadi. 1- sohada zarra to'lqin funktsiyasi tushuvchi va qaytuvchi to'lqinlarning superpozitsiyasidan iborat bo'ladi. 3- sohada faqat to'siqdan o'tgan to'lqin funktsiyasi bo'ladi. 1- va 3- sohalarida zarraning impulsi teng bo'lgani uchun shu sohalaridagi to'lqin funktsiyalar davrlari ham teng bo'ladi. To'siqga tushgan zarralar oqimining bir qismi qaytadi. Shuning uchun to'siqni tavsiflovchi *qaytarish* koeffitsienti va *to'siqning shaffofligi* tushunchalari kiritiladi. Ular quyidagicha ifodalanadi:

$$R = \left| \frac{j_q}{j_t} \right|, D = \left| \frac{j_{o't}}{j_t} \right|. \quad (179)$$

Bu yerda $j_t, j_{o't}$ va j_q lar mos ravishda to'siqga tushgan, to'siqdan o'tgan va to'siqdan qaytgan zarralar oqimi zichliklari. Kvant mexanikasida *zarralar oqimi zichligi* yoki *ehtimollik oqimi zichligi*

$$\vec{j} = \frac{i\hbar}{2m} (\psi \nabla \psi^* - \psi^* \nabla \psi) \quad (180)$$

formuladan topiladi. U holda $R = |B_1|^2$ va $D = |A_3|^2$ ni topamiz. Ta'rifga ko'ra $R + D = 1$ bo'lishi lozim. To'siqning shaffofligini

$$D \approx \frac{16n^2}{(n^2 + 1)^2} e^{-2\kappa l} \quad (181)$$

deb yozsak bo'ladi. Eksponenta oldida turgan ifoda $16n^2/(n^2 + 1)^2$ ning qiymati n ni ko'p qiymatlarida birga teng. Shuning uchun

$$D \approx \exp(-2\sqrt{2m(U_0 - E)}l/\hbar). \quad (182)$$

Oxirgi ifodadan to'siq shaffofligi to'siqning eni l ga, zarra massasi m ga va to'siq balandligining zarra energiyasidan ortiq $U_0 - E$ ga bog'liq ekanligi kelib chiqadi. Ixtiyoriy shaklga ega bo'lgan to'siq shaffofligi

$$D \approx \exp\left[-\frac{2}{\hbar} \int_{x_1}^{x_2} \sqrt{2m(U(x) - E)} dx\right] \quad (183)$$

formuladan topiladi. Bu formulada klassik fizikaga $\hbar \rightarrow 0$ deb o'tsak $D = 0$ bo'ladi yani zarra to'siqdan o'ta olmaydi.

XIX. REZERFORD TAJRIBASI

Moddalarning atomlardan tashkil topganligi Demokrit zamonidan ma'lum bo'lsada, atomning o'zi qanday tuzilganligi XX asr boshlarigacha mavhum bo'lib qolaverdi. J.J.Tomson 1903 yili taklif etgan modelga ko'ra atom musbat zaryad bilan bir tekis zaryadlangan shar sifatida qaralib, elektr neytrallikni ta'minlash uchun shar ichida elektronlar bor va ular tinch holatda turadi deb qaralgan. Atom statik muvozanatda deb tasavvur etilgan. Ammo musbat va manfiy zaryadlardan tashkil topgan sistema faqat dinamik muvozanatda bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgach Tomson modelining to'g'riligiga katta gumon bor edi. Atomning tuzilishi to'g'risida Lenard va Nagaokalar ham o'z modellarini taklif etgan. Lenardga ko'ra moddalarning atomlari yahona lekin har xil miqdordagi tashkil etuvchilardan iborat. Nagaokaga ko'ra atom markazida katta massali musbat zaryad joylashgan bo'lib uning atrofida aniq oraliqlarda elektronlar joylashgan. Nagaoka modeli Quyosh sistemasi tuzilishini eslatar edi. Ammo elektronlarning Nagaoka modelida statik ravishda turilishi ajobtovur edi. Atomning qanday tuzilishga ega ekanligini faqat tajriba yordamida tekshirish mumkin edi. Ana shunday tajribani ingliz fizigi E.Rezerford (1871-1937) o'z shogirdlari bilan 1911 yili qo'ydi (Fig.32).

Tajribaning vazifasi atom ichidagi elektr zaryadining taqsimlanishini aniqlash edi. Bu muammoni echish uchun atomni zaryadlangan zarralar dastasi bilan bombardimon etib zarralarning sochilishini kuzatish, keyin esa bu sochilishni tahlil etib zaryad taqsimotini topsa




FIG. 32: Rezerford tajribasi chizmasi.

bo'lardi. Tajribada α nurlarning yupqa oltin folgadan o'tishida sochilishi o'rganilgan. Folgadan o'tgan α zarralarning biror qismi o'z yo'nalishidan θ burchakka og'gan va harakatlanib ekran E ga tushgan. Ekraning ichki tomoni rux oltingugurti ZnS bilan qoplangan bo'lib unga α zarralar tushganda *stsintillyatsiya* yani kichik chaqmoq orqali nurlanish beradi. Bu chaqmoq mikroskop M orqali kuzatilgan. Zarralarning havo molekularida sochilishini chetlab o'tish uchun tajriba vakuum sharoitida bajarilgan. Tajribada ba'zi α zarralar juda katta hattoki 180° ga ham sochilishi kuzatilgan. Tajriba natijalarini tahlil etib Rezerford shunday xulosaga keladi: α - zarralarining katta burchakka sochilishini atom ichidagi kuchli elektr maydoni mavjudligi va bu maydon manbasi musbat zaryad katta massaga ega bo'lib, juda kichik hajmda mujassamlashgani bilan tushitirish mumkin. Bu xulosaga tayanib u atomning *planetar model* ini taklif etdi. Rezerfordga ko'ra: *atom markazida juda katta massaga va $+Ze$ zaryadiga ega yadro va uning atrofida atom hajmini egallagan Z ta elektronlardan iborat. Yadro o'lchami $\approx 10^{-14}$ m. Atomning barcha massasini yadroda mujassamlashgan deb qarasa ham bo'ladi.* U o'zi taklif etgan atomda zarralarning sochilish jarayonini quyidagicha o'rganib chiqdi.

Ernst Rezerford fikricha nuqtaviy zaryadlar Kulon qonuni bilan ta'sirlashadi va shu sabab ularning birisining ikkinchisi Kulon maydonida sochilishini nazariy o'rganib chiqish lozim. Massasi m_1 va zaryadi Z_1e bo'lgan nuqtaviy zarraning massasi m_2 va zaryadi Z_2e bo'lgan boshqa zarra atrofida v tezlik bilan o'tishini ko'rib chiqamiz. $m_2 \gg m_1$ deb faraz etamiz. Shu bois ikkinchi zarrani tinch turibdi deya olamiz. Mexanika kursidan ma'lum bo'lishicha markaziy kuch maydonida energiyadan tashqari impuls momenti ham saqlanadi:

$$\frac{1}{2}m_1(\dot{r}^2 + r^2\dot{\varphi}^2) + \frac{Z_1Z_2e^2}{4\pi\epsilon_0 r} = E = const, \quad (184)$$




FIG. 33: Zaryadlangan zarra traektoriyasini aniqlashga doir.




FIG. 34: Rezerford formulasini keltirib chiqarishga doir.

$$-m_1 r^2 \dot{\varphi} = M = \text{const} = m_1 v b. \quad (185)$$

Bunda b merganlash masofasi yani ta'sirlashish kuchi bo'lmaganda zarralarning yaqinlashuvi mumkin bo'lgan eng qisqa masofadir. Yangi o'zgaruvchi miqdor $\rho = 1/r$ ni kiritamiz va

$$\dot{r} = \frac{dr}{dt} = \frac{dr}{d\varphi} \frac{d\varphi}{dt} = \frac{d}{d\varphi} \left(\frac{1}{\rho} \right) \frac{d\varphi}{dt} = \frac{M}{m_1} \frac{d\rho}{d\varphi} \quad (186)$$

ni etiborga olib (184) dan

$$\left(\frac{d\rho}{d\varphi} \right)^2 = -\frac{2m_1 E}{M} - 2 \frac{Z_1 Z_2 e^2 m_1}{4\pi\epsilon_0 M^2} \rho - \rho^2 \quad (187)$$

topamiz. (187)- formuladan φ bo'yicha hosila olib ρ ni aniqlash uchun ikkinchi darajali differentsial tenglamani qo'lga kiritamiz:

$$\frac{d^2 \rho}{d\varphi^2} + \rho = -\frac{Z_1 Z_2 e^2 m_1}{4\pi\epsilon_0 M^2} = C. \quad (188)$$

Bu tenglamaning umumiy echimi

$$\rho = C + A \cos \varphi + B \sin \varphi \quad (189)$$

ko'rinishga ega. A va B doimiylar $\varphi \rightarrow \pi$ bo'lganda $r \rightarrow \infty$ va $r \sin \varphi \rightarrow b$ bo'lish shartidan aniqlanishi mumkin. Unda $A = B, B = 1/b$ va (189) tenglik

$$\frac{1}{r \sin \varphi} = C \cdot \text{ctg}(\varphi/2) + \frac{1}{b} \quad (190)$$

ko'rinishga keltiriladi. Oxirgi formulada $r \rightarrow \infty$ bo'lganda $\varphi \rightarrow \theta$ ekanligidan sochilish burchagini topamiz

$$\text{ctg} \frac{\theta}{2} = -\frac{1}{b \cdot C} = \frac{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2 b}{Z_1 Z_2 e^2}. \quad (191)$$

Tajribada zarraning faqat θ burchakka sochilishi natijasida merganlanish masofasi b ni o'lchash mumkin emas, shu sababli ko'p zarralar sochilishidan va statistik usuldan foydalanishga to'g'ri keladi. Zarralarning θ va $\theta + d\theta$ burchaklar orasiga sochilishning differentsial ko'ndalang kesimi $d\sigma$ berilgan burchakka sochilgan zarralar soni dN_θ ning zarralarning umumiy soni N ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$d\sigma = \frac{dN_\theta}{N}. \quad (192)$$

θ va $\theta + d\theta$ burchaklar orasiga merganlanish masofasi b va $b + db$ oralig'ida bo'lgan zarralar sochiladi. Merganlanish masofasi b va $b + db$ oralig'iga mos keluvchi zarralar soni radiusi b , eni esa db bo'lgan halqaga tushuvchi zarralar soniga teng

$$dN_\theta = N \cdot 2\pi b db. \quad (193)$$

Differentsial ko'ndalang kesim

$$d\sigma = 2\pi b |db| = \pi \left(\frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{\text{ctg}(\theta/2)}{\sin^2(\theta/2)} d\theta \quad (194)$$

munosabat bilan aniqlanadi. Ko'ndalang kesimni hisoblashda b ning moduli olingan. Aks holda manfiy ifoda chiqib qoladi, ko'ndalang kesim esa musbat bo'lishi lozim. Manfiy ishora merganlanish masofasining ortishi bilan sochilish burchagi kamayishini anglatadi. Fazoviy burchak $d\Omega = 2\pi \sin \theta d\theta$ ni kiritib oxirgi formulani

$$d\sigma = \frac{1}{4} \left(\frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{\text{ctg}(\theta/2)}{\sin^2(\theta/2)} \quad (195)$$

deb yozsak bo'ladi. (195)- formula Rezerford formulasi deyiladi. Shu formula yordamida Rezerford o'z

tajribasi yani α -zarralarning atomlarda sochilishini tahlil etdi. Rezerford tajribasida radioaktiv element atomlaridan uchib chiquvchi α -zarralarining atomda sochilishini o'rgandi. α -zarra geliy atomining yadrosi bo'lib zaryadi $2e$ va massasi to'rt proton massasiga teng. Shu bois $Z_1 = 2$ deb olamiz. Sochuvchi atomlar sifatida oltin elementi atomlari olingan. Ammo, oltin atomi massasi geliy atomi massasidan juda katta emas. Bu esa ikkinchi zarrani tinch turadi deb qarashimiz aniq emasligi ko'rsatadi. Ammo, biz uni rostdan ham tinch turadi deb va geliy atomi massasi o'rniga geliy va oltin atomlari massalarining keltirilgan qiymatini olsak bo'ladi. Tajribada geliy atomining sochilishi yakka akt natijasida bo'lishi uchun zarralar dastasi oldiga juda yupqa oltin plastinkasi qo'yilgan. Sochilgan zarralar maxsus qayid etuvchi tsintillyatorli mikroskop yordamida kuzatilgan va hisoblab turilgan. Agar sochuvchi atomlar konsentratsiyasi n bo'lsa $d\Omega$ fazoviy burchakka sochilgan α -zarralar soni

$$dN^{(n)} = nN \left(\frac{Ze^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{ctg(\theta/2)}{\sin^2(\theta/2)} \quad (196)$$

ga teng. Bu yerda Ze sochuvchi atom zaryadi. Agar $d\Omega = const$ bo'lib θ burchakka sochiluvchi zarralar soni qayd etiladigan bo'lsa (196) dan

$$dN_{(n)} \sin^4(\theta/2) = const \quad (197)$$

ekanligi kelib chiqadi. 1913 yili Rezerfordning qo'l ostida ishlovchi xodimlar tajribasida aynan (197) shartning bajarilishi tekshirdilar. Tajribada (197) tenglikning chap tomonida turuvchi miqdorlar ming martadan ko'proq o'zgarganda ham ularning ko'paytmasi doimiy bo'lib qolishi aniqlanib Rezerford formulasi tasdiqlandi. Bu o'z navbatida Rezerfordning atom ta'limoti va zaryadlangan zarraning atomdan sochilish mexanizmi aynan Rezerford modeli bo'yicha ro'y berishini ko'rsatdi.

A. Yadro zaryadi

(196) formuladagi Z dan boshqa barcha miqdorlar tajribada aniqlanishi mumkin. Shu sababli bu formula orqali sochuvchi moddaning zaryadini aniqlash mumkin. Z Mendeleevning davriy jadvalidagi elementlarning tartib raqami ekanligi ma'lum. Rezerford tajribasi elementlar Mendeleev dabriy jadvalida zaryadi Ze ning ortishi tartibi bo'yicha joylashishini ko'rsatdi. Bu Rezerford tajribasidan kelib chiquvchi muhim xulosa.

B. Yadro o'lchami

Rezerford tajribasidan yadro o'lchami va atomdagi zaryadning tadsimlanishi haqida axborot olish mumkin. Tajribada ba'zi α -zarralar π burchakka sochilgan. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin. E_k KE ga ega α -zarra

yadro bilan mumkin qadar minimal masofagacha yaqinlashadi. Bunda uning KE si PE ga aylanadi

$$\frac{mv_{max}}{2} = \frac{2Ze^2}{4\pi\epsilon_0 r_{min}}. \quad (198)$$

Oxirgi formuladan yadroning taxminiy radiusini topish mumkin. Sochuvchi modda kumush $Z = 47$, $m_\alpha = 4 \cdot 1,66 \cdot 10^{-27} kg = 6,6 \cdot 10^{-27} kg$ va $v_\alpha = 10^7 m/s$ bo'lsa, $r \approx 6 \cdot 10^{-14} m$ ni topamiz.

Rezerford taklif etgan va tajribada o'z tasdig'ini topgan atomning yadro modeli klassik mexanika va elektrodinamika qonunlariga mutlaqo zid edi. Zaryadlangan sistema statik muvozanatda bo'la olmasligidan Rezerford elektronlar yadro atrofida egri traektoriya bo'yicha harakatlanadi deb faraz etdi. Ammo egri traektoriyada harakatlanuvchi elektron tezlanish bilan harakatlanishi sabab u elektromagnit to'lqin tarqatishi lozim. Nurlanish jarayoni energiyaning kamayishiga olib keladi va oxir oqibat elektronning yadroga qulab tushishi bilan tugallanishi kerak edi. Bu atom turg'un emas yoki mavjud emas degan gap edi. Butub tajribalar atomning realligi, mavjudligi va turg'unligini ko'rsatar edi.

XX. BOR POSTULATLARI

Rezerford tajribasi natijalarini tushintirish uchun daniyalik fizik Nils Bor (1885-1962) 1913 yili fizikada inqilob yasagan yangi ikki postular kiritdi.

1. Atom faqat ruxsat etilgan muayyan *statsionar* holatlardagina cheksiz ko'p vaqt bo'lishi mumkin. Statsionar holatlar energiyalari $E_1, E_2, \dots$ diskret spektr hosil qiladi.
2. Atom n - statsionar holatdan m - statsionar holatga o'tganda nurlanish yutadi yoki chiqaradi. Nurlanish chastotasi $\omega = (E_n - E_m)/\hbar$, $E_n > E_m$ formuladan topiladi.

Statsionar holat enegriyasi *kvantlash qoidasi* dan aniqlanadi. Agar elektronlar yadro atrofida doiraviy tarektoriya bo'yicha aylanadi deb qarajak, Bor fikricha, elektronning orbital impuls momenti L Plank doimiysi $\hbar$ ga karrali ravishda o'zgarishi lozim:

$$M = mvr = n\hbar, (n = 1, 2, \dots). \quad (199)$$

B yerda n kvant soni deb ataladi. Kvantlash qoidasi klassik mexanikaga yo'l qo'yuvchi orbitalardan faqat Borning 1- postulatiga mos keluvchi yani energiyalari diskret spektr hosil qiladigan orbitalarni tanlab beradi. Bor o'z postulatlariga tayanib vodorodsimon atomlar nazariyasini yaratdi. U vodorodsimon atomi elektronining doiraviy orbitalari radiusini va ularga mos keluvchi energiyalarini topdi. Vodorodsimon atomlarda e zaryadli elektron Ze zaryadli yadro atrofida r radiusli aylana

bo'yicha harakatlanadi deb faraz qilaylik. Yadroning massasi elektron massasidan juda katta bo'lgani uchun uni tinch turibdi deb qarasa bo'ladi. Elektroniga ta'sir etuvchi kulon kuchi unga markazga intilma tezlanish beradi:

$$\frac{1}{4\pi\epsilon_0} \frac{Ze^2}{r^2} = \frac{mv^2}{r}. \quad (200)$$

Elektronning yadro maydonidagi PE si va to'liq energiyasi mos ravishda

$$E_p = -\frac{1}{4\pi\epsilon_0} \frac{Ze^2}{r} \quad (201)$$

$$E = E_p + E_k = -\frac{1}{8\pi\epsilon_0} \frac{Ze^2}{r} \quad (202)$$

bilan beriladi. Kvantlash qoidasidan

$$m^2v^2 = \frac{n^2\hbar^2}{r^2} \quad (203)$$

kelib chiqadi. (200) va (203) tenglamalardan statsionar orbita radiusini topamiz:

$$r_n = \frac{4\pi\epsilon_0\hbar^2}{mZe^2} n^2. \quad (204)$$

Birinchi statsionar holat radiusi

$$r_1 = \frac{4\pi\epsilon_0\hbar^2}{me^2} = 0,529 \cdot 10^{-10} m \quad (205)$$

bo'lib, u *Bor radiusi* $a_B = r_1$ deb ataladi. Elektronning statsionar orbitalari Fig.35 da ko'rsatilgan. Demak ruxsat etilgan orbitalar n^2 ga karrali ravishda bo'lar ekan. Yadro zaryadi qancha katta bo'lsa, radius shuncha kichik bo'ladi. Elektronning n - orbitadagi energiyasi

$$E_n = \frac{mZ^2e^4}{32\pi^2\epsilon_0^2\hbar^2} \frac{1}{n^2} \quad (206)$$

formula bilan aniqlanadi. Bu formula statsionar holatlar energiyasini tavsiflaydi. $n \rightarrow \infty$ da energiya sathlari jipslashadi va $E_0 = 0$ qiymatiga intiladi. Atomning eng kam energiyaga ega bo'lgan holati $n = 1$ asosiy holat deyiladi.

XXI. FRANK-GERTS TAJRIBASI

Atomning energetik holatlari diskret ekenligi birinchi marotaba Frank-Gerts tajribasida o'z isbotini yaqqol topdi. Elektron gazdan o'tishida molekulalar bilan to'qnashadi. Agar to'qnashish natijasida gaz molekulasida ichki energiyasi o'zgarmasa to'qnashish elstatik deb




FIG. 35: Elektronning statsionar orbitalari va uning o'tishlari.

ataladi. Elastik to'qnashuvda elektron kinetik energiyasi o'zgarmaydi. Aslida elektron kinetik energiyasi o'zgina bo'lsa ham kamayadi, u molekulaga o'z kinetik energiyasini beradi. Lekin bu energiya m_e/M_{mol} miqdor bilan o'lchanadi yani 10^{-4} va uni inobatga olmasa bo'ladi. Agar to'qnashuvda molekula ichki energiyasi o'zgarsa bunday to'qnashuv noelastik deb ataladi. Elektronning gaz molekulalari bilan noelastik to'qnashuvi ikki turli bo'lishi mumkin. Birinchi turli noelastik to'qnashuvda elektron o'z kinetik energiyasini molekulaga beradi, yani energiyasini kamaytiradi. Molekula olgan energiya uning uyg'onishiga, bazida uning ionlashuviga olib kelishi mumkin. Bunda molekuladan elektron urib chiqariladi. Ikkinchi turli to'qnashuv elektron va uyg'ongan molekula orasida sodir bo'ladi. To'qnashish natijasida molekulaning barcha uyg'onish energiyasi yoki bir qismi elektronga beriladi va elektron kinetik energiyasi ortadi. Molekula ichki energiyasi esa kamayadi. Bu ikki to'qnashuvdan tashqari yana bir turli elektronning molekula bilan bilvosita ta'sirlashishi mumkin. Elektron molekula bilan ta'sirlashib uning atrofida tezlanish bilan harakat etadi va foton nurlanishi mumkin. Qarabsizki elektron energiyasi kamayadi, lekin bu to'qnashuv birinchi turli to'qnashuvdan farqli elektron yo'qotgan energiya molekulada qolmay, balki foton tomonidan olib ketiladi.

Elektron va atomning birinchi turli noelastik to'qnashuvda energiya elektrondan atomga beriladi. Bunda elektron kinetik energiyasi turlicha bo'lishi mumkin. Agar atom ichki energiyasi uzliksiz tarzda o'zgaradigan bo'lsa, atom elektrondan ixtiyoriy energiya qabul qila olar edi. Atomning massasi elektron massasidan ancha katta bo'ganligi bois uning kinetik energiyasi juda oz miqdorda o'zgaradi. Agar atomning energetik holati diskret bo'lsa, u elektrondan to'qnashuv natijasida faqat statsionar holatlar energiyalari ayirmasiga teng energiyani qabul etishi mumkin. Shu sabab elektron noelastik to'qnashuvda atomga aniq bir




FIG. 36: Frank-Gerts tajribasi sxemasi.

qiymatga teng energiyani berishi mumkin. Elektronning atomga bergan energiyasini o'lchab, atomning energetik holatlari to'grisida qimmatli ma'lumot olish mumkin. Frank-Gerts tajribasi mohiyati ham shundan iborat!

Bu tajribada qizagan K katod va setka A orasiga katod-dan chiquvchi elektronlarni tezlatuvchi U potentsiallar ayirmasi qo'yilgan (Fig.36). Elektronlar $1mm.sm.ust. \approx 130Pa$ bosimli simob bug'lari atmosferasida tezlatiladi. Elektronlar harakatlanish davomida simob atomlari bilan to'qnashadi. Setka A ortida B plastinka o'rnatilgan, setka va plastinkalar orasiga U ga teskari ishorali tormozlovchi $U_T \approx 0,5V$ potentsial qo'yilgan. Natijada, A setkaga $U_T = 0,5eV$ dan kam kinetik energiya bilan etib kelgan elektron plastinka B ga etib bormaydi. Plastinka B ga $U_T = 0,5eV$ dan katta kinetik energiya bilan harakatlanayotgan elektronlar o'tishi mumkin va ularning soni plastinka B ga ulangan G galvonometr bilan o'lchanadi. Tajribada volt-amper xarakteristika (VAX) qayt etilgan, $I = f(U)$ (Fig.37). Tokning maksimumga erishadigan ekstremal kuchlanishlar bir-biridan teng masofalarda joylashgan. Maksimumlar orasi $\approx 4,9V$, birinchi maksimum esa $U = 4,1V$ da sodir bo'ladi. Shu takidlab o'tish kerakki, katod va setka orasidagi kuchlanishning haqiqiy qiymati $4,1V$ dan ozgina $0,8V$ ga farq qiladi. Bu farq katod va setkalar orasidagi kontakt potentsiallari ayirmasi bilan tushuntiriladi. U holda tajribada olingan VAX shuncha $0,8V$ ga o'ngga siljiydi, birinchi maksimum esa $4,9V$ ga to'g'ri keladigan bo'ladi. Maksimumlar orasidagi interval esa o'zgarmay qolaveradi.

Frank-Gerts tajribasining VAX sini tushuntirish uchun simob atomlari elektronlar bilan to'qnashib energiya-ni faqat diskret portsiyasini yutishi mumkin deb faraz qilishimiz darkor. Energiyaning bu portsiyasi $4.9eV$ ga teng. Elektron kinetik energiyasi $4.9eV$ dan kam bo'lganda uning simob atomi bilan to'qnashuvi elastik bo'lib o'z energiyasini o'zgartirmaydi. Natijada har qancha to'qnashmaison elektron A setkaga tormozlovchi potentsial U_T ni engib o'ta oladigan energiya bilan etadi




FIG. 37: Frank-Gerts tajribasi volt-amper xarakteristikasi.

va B plaskinkaga etib G galvonometr bilan qayt etiladi. Elektron energiyasi $4.9eV$ bo'lganda elektron energiyasi shunday darajaga etadiki u simob atomlari bilan noelastik to'qnashib, butun energiyasini ularga beradi. Bundan keyin elektron tezligi juda kamayib ketib, A setkaga etganda tormozlovchi potentsial U_T ni engi olmaydigan bo'lib qoladi, galvonometr G da tok qayt etilmaydi. Ana shu kuchlanishdan boshlab tokning kamayishi boshlanadi. Plastinka B ga faqat noelastik to'qnashuvda ishtirok etmagan elektronlar etib borishi mumkin. Ularning soni esa kam bo'ladi. Kuchlanish U ni keyinchalik oshirib borsak elektronlar yana tormozlovchi potentsialni engi oladigan kinetik energiya to'plab, B plastinkaga eta boshlaydi. Bu esa tokning yana o'sishiga olib keladi. Tezlatuvchi kuchlanish taxminan $9.8eV$ bo'lganda elektronlar harakati davomida ikki marta noelastik to'qnashishi mumkin. Bu holda ham tezligini yo'qotgan elektronlar tok hosil etishi juda oz bo'ladi va tokning kamayishi ham $9.8V$ dan boshlab kuzatiladi. VAX dagi boshqa maksimumlarni ham shu tariqa tushuntirish mumkin. Tajribadan simob atomining asosiy va eng yaqin (yani birinchi) uyg'ongan holatlari energiyalari farqi $4.9eV$ ekanligi kelib chiqadi. Bu atom holati diskret ekanligininig dalolatidir. Keyinchalik bunga o'xshash tajribalar boshqa atomlarda ham bajarildi. Barcha tajribalarda atom holati diskret energetik spektrga ega ekanligi va faqat o'ziga xos potentsial faqlar topilgan. Bu potentsillar *rezonans* potentsillar deyiladi. Misol uchun, kaliy elementi atomi rezonans potentsiali $1.63eV$, natriy atomi uchun $2.12eV$ va h. Rezonans potentsial atomni asosiy holatdan birinchi uyg'ongan holatga chiqarish uchun zarur bo'lgan energiyadir. Shuni aytish kerakki, atomning uyg'ongan boshqa energetik holatlari ham ko'p. Shu sabab agar atomga etarli darajada energiya berilsa u o'z energiyasini oshirishi mumkin. O'ta murakkab eksperimental uskunalar yordamida atomlarning yuqori uyg'ongan holatlarini ham tekshirish mumkin. Bunday turdagi tajribalarning barchasi *atomning holati diskret ravishda o'zgarishini*

tasqiqlashgan. Atom holatining diskretligi unga nisbatan klassik mexanikani qo'llab bo'lmasligini anglatadi.

XXII. ATOMLAR SPEKTRLARI

Ma'lumki barcha moddiy o'bektlar elektromagnit nurlanish manbalari hisoblanadi. Nurlanish energiyasi manbasi tabitaiga qarab elektromagnit nurlanishni ikki turga ajratish qabul etilgan:

1. Issiqlik nurlanish;
2. Lyuminestsentsiya.

Lyuminestsentsiya ham bir nechta turlarga bo'linadi:

- xemilyuminestsentsiya;
- elektrolyuminestsentsiya;
- katodolyuminestsentsiya;
- fluorestsentsiya.

Issiqlik nurlanishi jismlarning isishi natijasida paydo bo'ladi. Jismni tashkil etgan atom yoki molekularlar harakatlanib bir-biri bilan to'qnashadilar. To'qnashuvda atomning kinetik energiyasi uning ichki energiyasiga o'tadi, natijada atom asosiy holatdan uyg'ongan holatga o'tadi. Vaqt o'tishi bilan uyg'ongan atomlar foton chiqarib asosiy holatga qaytadi. Shu bois issiqlik nurlanishi manbasini atomlarning tartibsiz harakari kinetik energiyasi deb hisoblash mumkin. Nurlanishning kelib chiqishida issiqlik (atomlar kinetik) energiyasi ahamiyati bo'lmasa bunday nurlanishni *lyuminestsentsiya* deb atash qabul etilgan. Lyuminestsentsiya nurlanishi paydo bo'lishida atomlarni yuqori energiyali holatlarga uyg'otishda atomlarning kinetik energiyasidan foydalanilmaydi. Elektrolyuminestsentsiya deb har xil elektr razryadlardagi nurlanishni, xemilyuminestsentsiya deb atomlarning uyg'onishi ximiyaviy reaksiya natijasida va nihoyat fluorestsentsiya deb esa atomlarning nurlanishni yorug'likni yutish natijasida hosil qilgan nurlanishiga aytamiz. Elektronlar das-tasining qattiq jismga tushib jismning yorug'lanishi katodolyuminestsentsiya deb ataladi. O'tgan asrning ikkinchi yarmi mobaynida har xil nurlanishlarning spektrlari juda mukammal darajada o'rganib chiqildi. Tadqiqotlar molekularlar spektri aniq chegaraga ega bo'lmagan polosalardan tashkil topganligini ko'rsatdi. Spektrning bunday turi polosali spektr deb ataldi. Atomlarning spektri yakka tartibda joylashgan liniya (chiziq) lardan iborat bo'lib, chiziqli spektrni hosil etadi. Spektrdagi liniyalarning joylasjish tartiri har bir atom uchun o'ziga xos bo'ladi. Shu bois spektrni o'rganib atomning qaysi elementga tegishli ekanligini bilib olish mumkin. Liniyalarning spektrda joylashishi aniq bir qonuniyatga bo'ysinadi. Chiziqli spektrlarni o'rganishda birinchilardan Balmer empirik formula topib uni tushintirishga harakat qildi. Balmer 1885 yili vodorod atomi spektrini

o'rganib, uning ko'rinish qismida ba'zi liniyalarni aniq qonuniyat bo'yicha umumiyashtirilishi va

$$\omega_{n2} = R \left(\frac{1}{2^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 3, 4, 5, \dots) \quad (207)$$

formula bilan ifodalanishi mumkinligini topdi. Bu yerda R - doimiy miqdor bo'lib uning qiymati $R = 2,0670687 \cdot 10^{16} Hz$ tajribada shved fizigi R.Ridberg (1854-1919) tomonidan aniqlangan. Shu sabab R Ridberg doimiysi deb ataladi. Bu liniyalar to'plami *Balmer seriyasi* deb ataladigan bo'ldi. Xuddi shunga o'xshash Layman 1906 yili vodorod atomi spektrining ultrabinofsha qismida joylashgan va

$$\omega_{n1} = R \left(\frac{1}{1^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 2, 3, 4, \dots) \quad (208)$$

emperik formula bilan ifodalanadigan yana bir spektrlar seriyasini kashf etti. Bu seriya *Layman seriyasi* deb ataladi. Keyinchalik *Pahsen seriyasi* (1908), *Breket seriyasi* va *Pfundt seriya* lari kashf etildilar. Bu seriyalarning hammasi yorug'lik spektrining infraqizil qismida joylashgan va mos ravishda

$$\omega_{n3} = R \left(\frac{1}{3^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 4, 5, 6, \dots), \quad (209)$$

$$\omega_{n4} = R \left(\frac{1}{4^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 5, 6, 7, \dots), \quad (210)$$

$$\omega_{n5} = R \left(\frac{1}{5^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 6, 7, 8, \dots) \quad (211)$$

formulalar bilan ifodalanadilar. Yuqoridagi (209)-(211) formulalarni kuzatish atomning spektral seriyalaridagi har bir chastotani

$$T(n) = \frac{R}{n^2} \quad (212)$$

ko'rinishga ega bo'lgan ikki hadning ayirmasi shaklida yozish mumkin ekanligini payqash mumkin:

$$\omega_{nl} = T(l) - T(n). \quad (213)$$

$T(n)$, ($n = 1, 2, 3, \dots$) miqdor *spektr termi* deb ataladi. Shu bois atomning nurlanishi spektral termlarga bog'liq deb ham aytsak bo'ladi. *Atomning barcha nurlanishlari chastotasi spektr termlar ayirmasi (213) shaklida ifodalanishi mumkin.* Bu printsip *Rittsning kombinatsion printsipi* deb ataladi. Bu printsip Ritts tomonidan 1908 yili talaffuz etilgan. Murakkab atomlarning spektrlarini o'rganish ularning nurlanish chastotalarini ham termlar ayirmasi shalida yozish mumkin ekanligi aniqlandi. Ammo, bunda term hadi ancha murakkab turga ega bo'ladi. Masalan, ishqoriy metal atomlari termlari




FIG. 38: Vodorod atomi nurlanishi seriyalari.

$$T(n) = \frac{R_1}{(n + \alpha)^2} \quad (214)$$

bo'ladi, bunda R_1 va α biror doimiylardir. Kombinatsion printsip barcha atomlarning nurlanish chastotasi termlar kombinatsiyasi shaklida yozish mumkin ekanligini takidlaydi. Atomlarning nurlanish spektrlari klassik fizika qonuniyatlarini bilan tushuntirib bo'lmaydi. Klassik nuqtai nazardan moddiy jismlarning muvozanat holda turishi ham tushunarsiz! Tajribadan ma'lumki barcha moddiy jismlar manfiy va musbat zaryadlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu zaryadlar juda kichik hajmda cheklangan. Irnshou teoremasiga muvofiq har xil ishorali zaryadlar sistemasida faqat dinamik muvozanat bo'lishi mumkin. Lekin cheklangan hajmda zaryadlar faqat tezlanish bilan harakatlanishi mumkin. Klassik elektrodinamika qonunlariga ko'ra tezlanish bilan harakatlangan zaryad elektromagnit to'lqin tarqatadi. To'lqin tarqatgan elektron energiyasi doimo kamayishi va u musbat zaryadga urilib rekombinatsiya bo'lishi lozim. Bu degani atom bo'lishi mumkin emas deganidir. Agar atom energiyasining kamayishi biror boshqa energiya hisobidan to'ldirilish turadi deb faraz qilsak ham klassik qonunlar tajribani tushuntira olmaydi. Klassik qonunlarga binoan atomning nurlanish spektrlari chiziqli bo'lmay, balki karali obertonlardan (xuddi turg'un to'lqinlarga o'xshab) iborat bo'lishi kerak. Obertonlar orasi ham teng bo'lishi darkor. Tajribada esa spektrdagi liniyalar har xil joylashishi va bazi qismida ular orasi torayib ketib biror cheklangan chastotaga intilishini ko'rsatadi. Masalan vodorod atomining Balmer seriyasida chekli chastota $\omega_{\infty,2} = R/4$ bo'ladi. Umuman aytganda klassik fizika va xususan klassik elektrodinamikani atom hodisalariga qo'llab bo'lmaydi.

Vodorodsimon atomlarning Bor nazariyasi tajribada kuzatilgan Layman, Balmer, Pashen, Breket va Pfund

seriyalarini va Rezerford tajribasini to'g'ri tushuntirib bera oldi. Rostdan ham Borning ikkinchi postulatiga ko'ra elektronning bir holatdan boshqa holatga o'tishida

$$\omega_{nm} = \frac{E_n - E_m}{\hbar} = R \left(\frac{1}{n^2} - \frac{1}{m^2} \right) \quad (215)$$

chastotali nurlanish yutiladi yoki chiqariladi. Bu yerda

$$R = \frac{Z^2 e^4 m}{32 \pi^2 \epsilon_0^2 \hbar^3} \quad (216)$$

va uning $Z = 1$ dagi qiymati Ridberg doimiysi qiymatiga teng. Har xil nurlanish seriyalarida kuzatiladigan chiziqlar elektronning "tashqi orbita" dan "ichki orbita" ga o'tishida hosil bo'ladi. Balmer seriyasi chiziqlari elektronning yuqori orbitalardan 2- orbitaga o'tishida hosil bo'lgan nurlanishga to'g'ri keladi (Fig.38). Atom nurlanish yutsa elektron energiyasi ortadi va elektron yuqori orbitalarga o'tadi. Vodorod atomida elektronning atomdan to'liq qutulishi uchun kerak bo'lgan energiya miqdori E_I ionizatsion energiya deb ataladi. Bunda elektron $n = 1$ asosiy holatdan $n = \infty$ holatga yani erkin holatga o'tadi:

$$E_I = \frac{me^4}{32 \pi^2 \epsilon_0^2 \hbar^2} = 13,6 \text{ eV}. \quad (217)$$

E_I bu qiymati tajriba tomonidan tasdiqlanadi.

Bor nazariyasi XX asr boshida kvant fizikasining yaratilishida katta ahamiyat o'ynagan. U mikrodunyoda klassik fizika qonunlari bajarilmasligini ko'rsatibgina qolmay, ko'pchilik hodisalarni to'g'ri talqin qilib bera oldi. Ammo, Borning nazariyasi boshidanoq "chala" nazariya edi. Uni yarim klassik fizika va yarim kvant fizika nazariyasi edi. Borning nazariyasi spektr chiziqlarni tushuntirib bergani bilan ularning intensivligini hisoblab bera olmadi. Xuddi shu kabi, nurlanishning qutblanishi, kogerentligi va ishqoriy metallar nurlanishida kuzatilgan spektr chizig'ining dubletligini tushuntirib bera olmadi. Geliy atomi nazariyasini Bor modelida yaratish muvaffaqiyat topmadi. Molekulalarning hosil bo'lishida katta ahamiyatga ega *almashish kuchlari* ni va umuman ko'p elektronli sistemani tavsiflay olmadi. Bor nazariyasi difraktsiya hodisasini ham tushuntirib bera olmadi.

XXIII. VODOROD ATOMI

Vodorod atomida elektron proton markaziy kulon maydonida harakat qiladi. Uning harakatini quyidagi ShST si to'liq tavsiflaydi:

$$-\frac{\hbar^2}{2m} \nabla^2 \Psi + U \psi = E \Psi. \quad (218)$$

Kuch maydoni markaziy bo'lganligi uchun SfKS sida ishlash qulay. SfKS sida (218) tenglama

$$\left(\Delta_r + \frac{1}{r^2}\Delta_{\theta,\varphi}\right)\Psi(r, \theta, \varphi) + \frac{2m}{\hbar^2}(E - U)\Psi(r, \theta, \varphi) = 0 \quad (219)$$

shaklda yoziladi. Bu yerda Δ_r va $\Delta_{\theta,\varphi}$ (122) va (123) munosabatlar bilan berilgan. (219) tenglamani o'zgaruvchilarni ajratish usuli bilan echish maqsadga muvofiq: $\Psi(r, \theta, \varphi) = R(r) \cdot Y(\theta, \varphi)$. Bu yerda R faqat radiusga, Y esa burchaklarga bog'liq funktsiyalar. Shu sababli R radial, Y sferik funktsiyalar deyiladi. U holda (129) tenglamani

$$\frac{1}{R} \frac{d}{dr} \left(r^2 \frac{dR}{dr} \right) + \frac{2m}{\hbar^2} r^2 (E - U(r)) = -\frac{1}{Y} \nabla_{\theta,\varphi}^2 Y \quad (220)$$

deb yozib olamiz. Bu tenglamaning ikki tarafi ikki o'zgaruvchiga bog'liq. Shu sababli tenglamaning ikki tomoni ham biror songa teng bo'lishi kerak. Bu sonni λ deb belgilaymiz. Natijada radial R va sferik Y funktsiyalar uchun mos ravishda

$$\frac{d}{dr} \left(r^2 \frac{dR}{dr} \right) + \left\{ \frac{2m}{\hbar^2} r^2 [E - U(r)] \right\} R = \lambda R, \quad (221)$$

$$\frac{1}{\sin \theta} \frac{\partial}{\partial \theta} \left(\sin \theta \frac{\partial Y}{\partial \theta} \right) + \frac{1}{\sin^2 \theta} \frac{\partial^2 Y}{\partial \varphi^2} = -\lambda Y \quad (222)$$

tenglamalarni qo'lga kiritamiz. (222) tenglamada o'zgaruvchilarni yanada ajratish mumkin. Sferik funktsiyani $Y(\theta, \varphi) = P(\theta) \cdot \Phi(\varphi)$ shaklida tasvirlab va ajratish doimiysini μ^2 deya belgilab quyidagi tenglamalarni topamiz:

$$\frac{d^2 \Phi}{d\varphi^2} + \mu^2 \Phi = 0 \quad (223)$$

$$\frac{1}{\sin \theta} \frac{d}{d\theta} \left(\sin \theta \frac{dP}{d\theta} \right) + \left(\lambda - \frac{\mu^2}{\sin^2 \theta} \right) P = 0. \quad (224)$$

(223) tenglamaning bir qiymatli echimi

$$\Phi(\varphi) = (2\pi)^{-1/2} e^{im\varphi}, \quad (m = 0, \pm 1, \pm 2, \dots) \quad (225)$$

ko'rimishga ega. (224) tenglama esa $\xi = \cos \theta$ o'zgaruvchisi kiritish bilan

$$\frac{d}{d\xi} \left[(1 - \xi^2) \frac{dP}{d\xi} \right] + \left[\lambda - \frac{m^2}{1 - \xi^2} \right] P = 0 \quad (226)$$

ko'rinishga keltiriladi. Funktsiya $P(\theta)$ θ ning barcha qiymatlarida uzluksiz va cheklangan bo'lishi uchun $\lambda = l(l+1)$ (l musbat butub son) ga teng bo'lishi shart. Bunday holda (226) ning echimi *Lejandrning birlashgan funktsiyalari* bo'ladi va u

$$P_l^m = \frac{1}{2^l l!} (1 - \xi^2)^{m/2} \frac{d^{l+m}}{d\xi^{l+m}} (\xi^2 - 1)^l \quad (227)$$

tenglama bilan beriladi. l ning berilgan qiymatida m turli xil $2l+1$ qiymat qabul qilishi mumkin: $m = -l, -l+1, \dots, l-1, l$.

Elektronning to'lqin funktsiyasini normallashtirish sharti

$$\int \Psi^* \Psi dx dy dz = 1 \quad (228)$$

ikki tenglamaga keltiriladi:

$$\int_0^\infty R^* R r^2 dr = 1, \quad (229)$$

$$\int_0^\pi d\theta \sin \theta \int_0^{2\pi} Y^* Y d\varphi = 1. \quad (230)$$

Agar (222) tenglamaning xususiy funktsiyasini $Y_l^m(\theta, \varphi) = C_l^m e^{im\varphi} P_l^m(\cos \theta)$ deb yozib olsak,

$$\int_0^{2\pi} e^{i(m-m')\varphi} d\varphi = 2\pi \delta_{m,m'}, \quad (231)$$

$$\int_{-1}^1 P_l^m(x) P_l^m(x) dx = \frac{2}{2l+1} \frac{(l+m)!}{(l-m)!} \delta_{l,l'} \quad (232)$$

integral xossalaridan foydalanib

$$C_l^m = \left(\frac{2l+1}{4\pi} \frac{(l-m)!}{(l+m)!} \right)^{1/2} \quad (233)$$

normallashtirish koeffitsientini topamiz. U holda

$$Y_l^m(\theta, \varphi) = \left[\frac{2l+1}{4\pi} \frac{(l-m)!}{(l+m)!} \right]^{1/2} e^{im\varphi} P_l^m(\cos \theta). \quad (234)$$

A. impuls momenti

Elektronning orbital impulsi momenti operatori $\widehat{M}^2 = -\hbar^2 \Delta_{\theta,\varphi}$ bo'lganligi bosi

$$\widehat{M}^2 \Psi = M^2 \Psi \iff -\hbar^2 \Delta_{\theta,\varphi} Y(\theta, \varphi) = L^2 Y(\theta, \varphi) \quad (235)$$

bo'ladi. Oxirgi tenglama (222) tenglamaning o'zginasi. Yani (235) tenglamaning xususiy qiymati

$$M^2 = \hbar^2 l(l+1), \quad (l = 0, \pm 1, \pm 2, \dots) \quad (236)$$

Demak, impuls momenti kvantlanar ekan. Kvant soni l elektronning *orbital kvant soni* deb ataladi. Elektronning orbital impuls momenti

$$M = \hbar \sqrt{l(l+1)} \quad (237)$$

qiymatlarni qabul etishi mumkin. Elektron impulsi momemtnining z o'qiga proektsiyasi operatori $\widehat{M}_z$ ning xususiy qiymati

$$\widehat{M}_z \Psi = M_z \Psi \iff -i\hbar \frac{d\Phi(\varphi)}{d\varphi} = M_z \Phi(\varphi) \quad (238)$$

tenglamadan topilishi lozim. (238) tenglamaga (225) dan Φ ifodasini qo'yib

$$M_z = \hbar m, (m = 0, \pm 1, \pm 2, \dots, \pm l) \quad (239)$$

ni topamiz. Yani impuls momemtnining z o'qidagi proektsiyasi ham kvantlanar ekan. Kvant soni m elektronning *magnit kvant soni* deb ataladi. Shuni aytib o'tish kerakki, Ψ funktsiya bir vaqtning o'zida Gamilton operatori $\widehat{H}$, $\widehat{M}^2$ va $\widehat{M}_z$ operatorlarning xususiy funksiyasidir. Shu sababli bu operatorlar ifodalovchi E , M^2 va M_z miqdorlar aniq qiymatlar qabul qila olishadilar va bir vaqtning ozida o'lchanishi mumkin. Shu bilan birga Ψ to'lqin funktsiya $\widehat{M}_x$ va $\widehat{M}_y$ operatorlarning xususiy funksiyasi bo'la olmaydi:

$$\widehat{M}_x \Psi \neq M_x \Psi, \widehat{M}_y \Psi \neq M_y \Psi. \quad (240)$$

Buning ma'nosi quyidagicha: elektronning $\widehat{M}^2$ va $\widehat{M}_z$ operatorlari aniq qiymatga ega bo'lganda, $\widehat{M}_x$ va $\widehat{M}_y$ operatorlarining qiymatlari aniq emas va shu sabab ularni o'lchash mumkin emas! $l = 0$ holat bundan mustasno, chunki $M = 0$ va $M_z = M_x = M_y = 0$ yani barchasi aniqlangan.

Kvant mexanikasida bir vaqtda qiymatga ega va natijada o'lchasa bo'ladigan turli miqdorlarning operatorlari o'zaro *kommutatsiyalanishi* lozimligi ko'rsatilladi. $\widehat{A}$ va $\widehat{B}$ larning *kommutatori* deb $[\widehat{A}, \widehat{B}] = \widehat{A}\widehat{B} - \widehat{B}\widehat{A}$ ayirmaga aytiladi. Agar $\widehat{A}$ va $\widehat{B}$ lar tavsiflovchi miqdorlarni bir vaqtda o'lchash mumkin bo'lsa $[\widehat{A}, \widehat{B}] = 0$, kas holda $[\widehat{A}, \widehat{B}] \neq 0$ bo'ladi. Impuls momenti operatorlari orasida quyidagi munosabatlar bajariladi: $\widehat{M}^2 = \widehat{M}_x^2 + \widehat{M}_y^2 + \widehat{M}_z^2$;

$$[\widehat{M}^2, \widehat{M}_i] = 0, [\widehat{M}_i, \widehat{M}_j] = i\hbar \widehat{M}_k, (i, j, k = x, y, z) \quad (241)$$

B. elektron energiyasi

(235) va (236) larni inobatga olib (220) tenglamani

$$\frac{1}{r^2} \frac{d}{dr} \left(r^2 \frac{dR}{dr} \right) + \left\{ \frac{2m}{\hbar^2} \left[E + \frac{Ze^2}{4\pi\epsilon_0 r} \right] - \frac{l(l+1)}{r^2} \right\} R = 0 \quad (242)$$

ko'rinishda yozamiz. Oxirgi tenglamaning xususiy qiymati E elektronning vodorodsimon atomdagi energiyasini, xususiy funksiyasi esa elektronning to'lqin




FIG. 39: Vodorod atomida 1s, 2s va 3s holatlarda elektron zaryadi zichligining taqsimlanishi.

funktsiyasini beradi. Bu tenglamani echish murakkab bo'lganidan uning natijalarini keltirib qo'ya qolamiz:

$$R_{nl} = \left(\frac{Z}{na_B} \right)^{3/2} \sqrt{\frac{4}{(n-l-1)!(n+1)!}} \times e^{-\rho/2} \rho^l Q_{n-l-1}^{(2l+1)}(\rho), \quad (243)$$

$$Q_{n_r}^{(2l+1)}(\rho) = e^\rho \rho^{-2l-1} \frac{d^{n_r}}{d\rho^{n_r}} (e^\rho \rho^{2l+1+k}),$$

$$E_{n,l} = -\frac{mZ^2e^4}{32\pi^2\epsilon_0^2\hbar^2} \frac{1}{n^2}. \quad (244)$$

Bu yerda $\rho = 2Zr/na_B$ va $n = l + n_r + 1$. $Q_{n_r}^{(2l+1)}$ *Leger polinomi* deb ataladi. Ko'rib turganimizdek E_{nl} energiya faqat n kvant soni bilan aniqlanadi. Ammo bunda n murakkab tarkibga ega. U l va n_r larga bog'liq. n , n_r lar mos ravishda bosh va radial kvant sonlar deyiladi. Elektronning n - holati aynigan bo'ladi yani energiyasi teng

$$\sum_{l=0}^{n-1} \sum_{m=-l}^{m=l} 1 = n^2 \quad (245)$$

holat mavjud! Elektronning atomdagi holatini ifodalash uchun spektroskopiya belgilashlaridan foydalani-ladi. Elektronlar energiyasining ortishi bilan navbatma navbat $n = 1$, $n = 2$ va h. sathlarni egallashi mumkin. Bundan tashqari berilgan n uchun elektronning holati turlicha bo'lishi ehtimoli ham bor. Masalan, $n = 1$ da elektron faqat $l = 0$ holatda bo'lishi, $n = 2$ da $l = 0, 1$ holatlarda bo'lishi, $n = 3$ da $l = -1, 0, 1$ va h. holatlarda bo'lishi mumkin. $l = 0$ ega elektron s , $l = 1$ ega elektron p , $l = 2$ ega elektron d elektron va $l = 3$ ega elektron f elektron deb atash qabul etilgan. $n = 3$ va $l = 1$ kvant holatidagi elektron $3p$ deb belgilanadi. Elektron zaryadi

zichligining 1s, 2s va 3s holatlardagi taqsimlanish Fig.39 da berilgan. Kvant mexanikasida isbotlanishicha atomdan nurlanish chiqqanda yoki yutilganda elektronning orbital kvant soni $l = \pm 1$ ga o'zgaradi. Yani elektron bir holatdan ikkinchi holatga o'tishida nurlanish yutishi yoki chiqarishi uchun uning impuls momenti $\hbar$ ga o'zgarishi kerak ekan. Bu qoida orbital kvant soni l uchun *saralash qoidasi* hisoblanadi.

XXIV. ELEKTRONNING MEXANIK VA MAGNIT MOMENTLARI

Doiraviy orbitada harakatlanuvchi zaryadlangan klassik zarra mexanik impuls momenti M va magnit moment μ ga ega bo'ladi. Agar elektronning r radiusli doirada aylanish davti T va tezligi v bo'lsa, uning mexanik impuls momenti va magnit momentlari

$$M = mvr \quad (246)$$

$$\mu = IS = -\frac{e\pi r^2}{T} \quad (247)$$

bilan beriladi. Ularning nisbati

$$\frac{\mu}{M} = -\frac{e}{2m} \quad (248)$$

ga teng. *Giromagnit munosabat* nomi bilan ataluvchi bu ifoda elektron doiraviy traektoriyada klassik qonunlarga bo'ysinadi degan farazda keltirib chiqarilgan edi. Ammo, oldin ko'p marta takidlab o'tganimizdek kvant mexanikasida traektoriya tushunchasini ishlatib bo'lmaydi. Tajribalarning ko'rsatishicha (248) formula hodisalarni to'g'ri ifodalaydi. Shu sabab bu formula kvant fizikasida ham to'g'ri, uni

$$\frac{\mu_l}{M_l} = -\frac{e}{2m} \quad (249)$$

deb yozamiz. l indeks ikkala kattaliklarning ham orbital tabiatga ega ekanligini anglatadi. (237) formulani inobatga olib

$$\mu_l = -\frac{e\hbar}{2m}\sqrt{l(l+1)} = -\mu_B\sqrt{l(l+1)} \quad (250)$$

ni topamiz. Bu yerda $\mu_B = e\hbar/2m = 0,927 \cdot 10^{-23} \text{ J/Tl}$ kattalik *Bor magnetoni* deyiladi va u magnit momentning mikrodunyoda tabiiy o'lchami bo'lib xizmat qiladi. (250) formuladagi "-" ishora elektronning orbital mexanik momenti va magnit momentlari qarama-qarshi yo'nalganini anglatadi. Bu qarama-qarshilik elektron zaryadining "-" ishorasi bilan bog'liq. Mexanik momentning biror, masalan z , o'qqa proektsiyasi

$$M_{lz} = m_l \hbar, (m_l = -l, -l+1, \dots, l-1, l) \quad (251)$$




FIG. 40: Elektronning mexanik impuls momenti va magnit momentlarini hisoblashga doir.

bilan aniqlanadi. Magnit momentning z o'qiga proektsiyasi

$$\mu_{lz} = -\mu_B m_l, (m_l = -l, -l+1, \dots, l-1, l) \quad (252)$$

bilan aniqlanadi.

Ishqoriy metallar (Na, K, Li va b.) spektrlarini ajrata olish qobiliyati juda katta asboblarda o'rganish spektr chiziqlarining o'zi ikkita alohida chiziqlardan iborat yani *dublet* ekanligini ko'rsatgan. Keyinchalik boshqa elementlar spektrida ham chiziqlar murakkab (ikki, uch, va h.) tarkibga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Spektr chiziqlarining ajralishi albatta, energetik sathlarning ajralishi bilan bog'liq. Spektr chiziqlarining komponentlarga ajralishini ko'rsatuvchi spektr tarkibi *nozik struktura* deb ataladi. Bir nechta komponentlardan tashkil topgan murakkab chiziqlar *multiplet* deb ataladi. Agar multipletda komponentlar soni 2 bo'lsa u dublet, 3 bo'lsa u triplet, 4 bo'lsa u kvartet, 5 bo'lsa u kvintet va h.deb atash qabul qilingan. Energetik sathlarning ajralishini tushuntirish uchun amerikalik fiziklar S.A.Gaudsmit(1902-1979) va J.Yu.Ulenbek (1900-1974) 1925 yili elektron fazoda harakati bilan bog'liq bo'lmagan xususiy mexanik impuls momentiga ega degan farazni taklif etdilar. Bu xususiy impuls momenti *spin* deb nom oldi. Oldiniga spin elektronning o'z o'qi atrofida aylanishi bilan bog'liq deb o'ylangandi. Ammo, tezda bu fikrdan voz kechishga to'g'ri keldi. Chunki aks holda aylanish bilan bog'liq magnit moment mexanik moment bilan (249) formulaga binoan nisbatda bo'lardi. Tajriba esa bu nisbat ikki marta katta bo'lishini ko'rsatar edi:

$$\frac{\mu_s}{M_s} = -\frac{e}{m}. \quad (253)$$

Demak, elektronni aylanuvchan sharcha deb faraz qilish yaramaydi. Spinni elektronning ichki xossasi, xuddi

uning zaryadi va massasi, kabi qarash darkor ekan. (253) munosabatning to'g'riligi Einshtein va Xaaz tajribasida ham isbotlangan. Spin gipotezasi ko'pchilik tajribalarda o'z tasdig'ini topgan. Dirak relyativistik kvant mexanikasi tenglamasini aniqlab, undan spin tushunchasini keltirib chiqardi. Spin barcha mikrozararlarga xos xususiyat ekan. Proton, neytron va boshqa elementar zarralar ham spinga ega. Elektron xususiy impulsi momenti yoki spini kvant mexanikasining umumiy qoidalariga ko'ra

$$M_s = \hbar\sqrt{s(s+1)} \quad (254)$$

bilan aniqlanadi. Bu yerda s elektronning spin kvant soni bo'lib u $1/2$ ga teng ekan. U holda

$$M_s = \frac{\sqrt{3}\hbar}{2}. \quad (255)$$

Spinning z o'qiga proektsiyasi

$$M_{sz} = m_s\hbar, (m_s = \pm s = \pm \frac{1}{2}). \quad (256)$$

Elektronning xususiy magnit momenti

$$\begin{aligned} \mu_s &= -\frac{e}{m}M_s = -\frac{e\hbar}{m}\sqrt{s(s+1)} = \\ &= -2\mu_B\sqrt{s(s+1)} = -\mu_B\sqrt{3}. \end{aligned} \quad (257)$$

Xususiy magnit momentning z o'qiga proektsiyasi ikki qiymat qabul qilishi mumkin:

$$\mu_{sz} = -\frac{e}{m}M_{sz} = -\frac{e\hbar}{m}m_s = -\frac{e\hbar}{m}\left(\pm\frac{1}{2}\right) = \mp\mu_B. \quad (258)$$

Demak, elektronning spini $(+1/2)\hbar$ va $(-1/2)\hbar$, xususiy magnit momenti esa mos ravishda $-\mu_B$ va $+\mu_B$ qiymatlarni qabul qilar ekan.

Umumiy holda elektronning mexanik momenti ikki qo'shiluvchidan iborat bo'ladi: biri orbital mexanik impuls momenti bo'lsa ikkinchisi xususiy impuls momenti - spindir. Ikkovining yig'indisi elektronning to'liq momentini beradi. Uning moduli, boshqa impuls momentlari kabi

$$M_j = \hbar\sqrt{j(j+1)} \quad (259)$$

formula bilan aniqlanadi. Bunda kvant son j elektronning *to'liq momenti kvant soni* deyiladi va u $j = l + s$ va $j = |l - s|$ qiymatlarni qabul qilishi mumkin. $l = 0$ da $j = 1/2$ bitta qiymatga ega. l ning boshqa qiymatlarida $j = l + 1/2$ va $j = l - 1/2$ qiymatlarni qabul etadi. Vodorod atomida $j = 1/2, 3/2, 5/2, \dots$ bo'lishi

mumkin. Elektronning to'liq impulsi momentining z o'qidagi tashkil etuvchisi

$$M_{jz} = m_j\hbar, (m_j = -j, -j+1, \dots, j-1, j) \quad (260)$$

qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Elektronning to'liq magnit momenti

$$\mu_j = -\mu_B g\sqrt{j(j+1)} \quad (261)$$

bilan ifodalanar ekan. Bunda

$$g = 1 + \frac{j(j+1) + s(s+1) - l(l+1)}{2j(j+1)} \quad (262)$$

va u *Lande ko'paytmasi* yoki g -faktor yoki *magnit parchalanish faktori* deb ataladi.

XXV. ATOMNING MEXANIK VA MAGNIT MOMENTI

Oldingi bo'limlarda ko'rib chiqqanimizdek elektronning atomdagi holati n, l, m_l va m_s to'rt kvant sonlar bilan to'liq tavsiflanadi. Elektron holatini ifodalash uchun boshqa kvant sonlar: n, l, j, m_j larni ishlatish ham mumkin. Ko'p elektronli atomlarda elektron holatini ifodalash uchun yuqoridagi kvant sonlarni ishlatish mumkin. Boshqa elektronlarning qaralayotgan elektronga ta'siri, kuch maydonining $\sim r^{-2}$ qonuniyatdan chetlashishiga olib keladi. Natijada elektron energiyasi nafaqat n ga, balki l ga ham bog'liq bo'lib qoladi. Atomning mexanik va magnit momentlari uni tashkil etgan elektronlarning orbital mexanik momentlari va magnit momentlari yig'indisidan tashkil topadi. Odatda ikki hol uchraydi:

1. M_l momentlar bir birlari bilan M_s ga qaraganda kuchli ta'sirlashadi. M_s lar ham o'z navbatida M_l lar bilan zaif ta'sirlashadi, o'zlari bilan kuchli birikkan. Natijda barcha M_l lar yig'indisi M_L ni, barcha M_s lar yig'indisi esa M_S ni tashkil qiladilar. M_L va M_S larning yig'indisi atomning to'liq momenti M_J ni hosil qiladi. Momentlarning bunday tarzda birikishi ko'pchilik hollarda uchraydi va u *LS- bog'lanish* deb ataladi.
2. Agar elektronga tegishli M_l va M_s larning ta'sirlashuvi boshqa elektron momentlari bilan ta'sirlashuviga nisbatan kuchli kuchli bo'lsa, M_l va M_s lar qo'shilib elektronning natijaviy M_j sini hosil qiladi. Keyingi navbatda elektronlarning M_j lari qo'shilib atomning to'liq momenti M_J sini hosil qiladi. Momentlarning bunday birikishi *jj- bog'lanish* deb ataladi. *jj-* bog'lanish odatda og'ir elementlar atomlarida uchraydi.

Biz faqat LS - bog'lanishni ko'rib chiqamiz. Bu holda to'liq orbital impuls momenti

$$M_L = \hbar\sqrt{L(L+1)} \quad (263)$$

formuladan topiladi. Bu yerda L - atomning orbital kvant soni bo'lib, agar atomda ikki elektron bo'lsa, quyidagi qiymatlarni qabul qilishi mumkin:

$$L = l_1 + l_2, l_1 + l_2 - 1, \dots, |l_1 - l_2|, \quad (264)$$

bu yerda l_1 va l_2 lar mos ravishda 1- va 2- elektronlarning orbital kvant sonlari. L ning qiymatlari soni $2l_{min} + 1$, bu yerda $l_{min} = \min[l_1, l_2]$. Agar atom ko'p elektronli bo'lsa, L ning maksimal qiymati barcha elektronlarning l_i lari yig'indisiga teng bo'ladi. L ning minimal qiymatini topish uchun oldiniga ixtiyoriy ikki elektronning l larini qo'shamiz. Hosil bo'lgan yig'indini 3- elektron l ga qo'shamiz va h. Barchasining ichidan minimali L ning minimal qiymati bo'lib hisoblanadi. Misol uchun uchta elektronli sistemani qarab chiqamiz: $l_1 = l_2 = 1$ va $l_3 = 3$ bo'lsin. 1- va 2- elektronning momentlarining yig'indisi 0, 1 va 2 bo'lishi mumkin. Bularni l_3 ga qo'shib $L = 3, L = 2, 3, 4$ va $L = 1, 2, 3, 4, 5$ ni topamiz. Demak, momentlarning yig'indisi $L = 1, 2, 3, 4, 5$ bo'lishi mumkin ekan. Ularning eng kichigi 1 L ning minimal qiymati bo'ladi. Orbital kvant son l doimi butun bo'ladi. Shu sabab L ham butun bo'ladi. Atomning natijaviy momentining z o'qidagi tashkil etuvchisi

$$M_{Lz} = m_L \hbar, (m_L = -L, -L + 1, \dots, L - 1, L) \quad (265)$$

formula bilan topiladi. Atomning to'liq spini yoki xususiy momenti va uning z o'qidagi proektsiyasi mos ravishda (263) va (265) formulalarda $L \rightarrow S$ va $m_L \rightarrow m_S$ almshtirish bajarilib topiladi.

Atomning spin momenti M_S ning qiymati atomdagi elektronlar soniga bog'liq. Agar atomdagi elektronlar soni juft va N bo'lsa, S spin momenti $N \cdot (1/2)$ (barcha spinlar parallel) dan 0 (spinlar bir biriga antiparallel) gacha bo'lgan butun qiymatlarni qabul etadi. Agar atomdagi elektronlar soni toq va N bo'lsa, S spin momenti $N \cdot (1/2)$ (barcha spinlar parallel) dan $1/2$ (bitta spindan boshqa barcha spinlar bir biriga antiparallel) gacha bo'lgan yarim butun qiymatlarni qabul etadi. Masalan: $N = 4$ da $S = 2, 1, 0$ va $N = 5$ da $S = 5/2, 3/2, 1/2$. Atomning to'liq spin va to'liq orbital momentlari uning to'liq impuls momenti

$$M_J = \hbar\sqrt{J(J+1)} \quad (266)$$

ni tashkil etadi. Berilgan M_L va M_S larda kvant son J quyidagi qiymatlarni qabul etadi:

$$J = L + S, L + S - 1, \dots, |L - S|. \quad (267)$$

Demak, agar S butun son bo'lsa J ham butun son, S kasr son bo'lsa J ham kasr son bo'ladi. Agar $L = 2, S = 1$ bo'lsa, $J = 3, 2, 1$, $L = 2, S = 3/2$ bo'lsa $J = 7/2, 5/2, 3/2, 1/2$ bo'ladi. Atomning to'liq momentining z o'qiga proektsiyasi

$$M_{Jz} = m_J \hbar, (m_J = -J, -J + 1, \dots, J - 1, J) \quad (268)$$

formula orqali ifodalanadi. Har bir mexanik moment bilan bog'liq magnit moment ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun atomning energiyasi M_L momentlarning bir biriga nisbatan yo'nalishi (yani L) ga, M_S momentlarning bir biriga nisbatan yo'nalishi (yani S) ga va M_L va M_S momentlarning bir biriga nisbatan yo'nalishiga (yani J ga) bog'liq bo'ladi. Yani atomning energiyasi L, S va J kvant sonlari bilan aniqlanadi. Atomning energetik holatini spektroskopiya belgilashi bilan qisqacha

$$^{2S+1}L_J \quad (269)$$

deb yoziladi. Bunda L deganda S, P, D, F va h. larning biri tushuniladi:

Orbital moment	L=0	L=1	L=2	L=3
Atom holati belgilanishi	S	P	D	F

Masalan: 1S_0 belgi kvant sonlari $L = 0, S = 0, J = 0$ bo'lgan atom holatini, $^2P_{3/2}$ belgi kvant sonlari $L = 1, S = 1/2, J = 3/2$ bo'lgan atom holatini va 3D_1 belgi kvant sonlari $L = 2, S = 1/2, J = 1$ bo'lgan atom holatini ifodalaydi. $S < L$ holda (269) dagi $2S + 1$ belgi energetik sathning multipletligini anglatadi. Multiplet sathlar bir biridan J kvant soni bilan farqlanadi. $S > L$ holda atomning energetik sathi multipletlik soni $2L + 1$ ga teng bo'lishiga qaramasdan, belgilash (269) shaklda yozilaveradi. Atomning magnit momenti

$$\mu_J = -\mu_B g \sqrt{J(J+1)} \quad (270)$$

formula orqali ifodalanadi. Bu yerdagi Lande ko'paytmasi

$$g = 1 - \frac{J(J+1) + S(S+1) - L(L+1)}{2J(J+1)} \quad (271)$$

formuladan topiladi. Agar atomning to'liq orbital momenti nolga teng $L = 0$ bo'lsa, atomning to'liq momenti $J = S$ bo'ladi. Xuddi shu kabi $S = 0$ bo'lsa, $J = L$ bo'ladi. Lande faktori nol, birdan kichik va boshqa qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Xususan, $g = 0$ ($L = 3, S = 2, J = 1$) da atom mexanik momentga ega bo'lsada uning magnit momenti nolga teng bo'ladi. Magnit momentning z o'qidagi tashkil etuvchisi

$$\mu_{Jz} = -\mu_B g m_J, (m_J = -J, -J + 1, \dots, J - 1, J) \quad (272)$$




FIG. 41: Shtern va Gerlax tajribasi. Atomlar oqimi dastasi bir jinsli bo'lmagan magnet maydondan o'tib ekranda iz qoldiradi.

bilan beriladi.

Atomlarning magnet momentlari 1922 yili O.Shtern va V.Gerlax (1889-1979) tomonlaridan tajribada aniqlandi. Ular atomlar oqimi dastasini bir jinsli bo'lmagan magnet maydondan o'tkazdilar. Bir jinsli emas magnet maydon maxsus shaklga ega elektromagnet yordamida erishildi (Fig.41). Magnet maydonda, atom magnet momentiga ega bo'lganligi sabab, o'zini magnet dipoli kabi tutadi. Shu sabab unga

$$F_x = \mu_B \frac{\partial B}{\partial x} \cos \alpha \quad (273)$$

II. Korpuskulalarning to'liqin xossalari.

Elektronlarning gaz va kristallardan o'tishida difraksiya va interferentsiya sodir bo'ladi, natijada ularning to'liqin xossalari namoyan bo'ladi. Keyinchalik barcha korpuskula (atom, yadro, molekula, va b.) lar to'liqin xossalarga ega ekanligi tajribalarda isbotlandi. Korpuskulaning to'liqin xossalari namoyon bo'lishi uning massasi va tezligiga bog'liq. Korpuskula massasi va tezligi qanchalik kichik bo'lsa uning to'liqin xossalari shunchalik aniq ko'rinadi.

Rentgen nurlari

Rentgen nurlari katta tezlikka ega elektronlarning anodga urilishi natijasida hosil qilinadi. Elektronlar bunday tezlikka yuqori vakuumli trubkada katta potentsiallar ayirmasi yordamida erishadi. Vakuum trubkadagi H metal ip yuqori haroratda bo'lib o'zidan elektronlar emissiya etadi. Emissiya etilgan elektronlar S setkakattodan o'tib S katod va A anod oralig'idagi tezlashtiruvchi elektr maydoni ta'siriga tushadi. Keyinchalik elektronlarning anod A ga urilishi natijasida rentgen nurlari paydo bo'ladi. Tezlashtiruvchi elektr maydoni potentsiallari ayirmasi odatda 100 kV yoki undan ham katta bo'lishi mumkin. Bundan tashqari rentgen nurlari tormozlangan elektron tomonidan betatron va sinxrotronlarda ham paydo bo'lishi mumkin. Rentgen nurlari to'liqin uzunli 10 va 0.001 nm oralig'ida bo'lgan elektromagnit to'liqindir. Ammo, rentgen nurlariga nisbatan bunday ko'z qarash darrov ham shakllanmadi. Rentgen o'zi kashf etgan nurlarni bo'ylama elektromagnit to'liqini deb faraz qilsa ham, bu fikrni himoya etmadi. Rentgen nurlarining tabiatini 1897 yili Stoks uncha munch to'g'ri anglab etdi. Uning fikricha rentgen nurlari tezlashgan elektronlarning katodga urilib tormozlanishi natijasida hosil bo'ladi dedi. Stoks rentgen nurlarini elektromagnit impulsi sifatida qaradi. Rentgen nurlari elektromagnit to'liqin ekanligi to'liqigicha 1912 yili Laue tajribasida o'z tasdig'ini topdi. Laue rentgen nurlarining kristal panjarada difraksiyasini kuzatib uning to'liqin tabiatga ega ekanligini va to'liqin uzunligini o'lchashga muvaffaq bo'ldi. Kristal panjaraning qo'shni parallel atomlari tekisligidan qaytgan nurlar bosib o'tgan yo'llari farqi

$$\Delta = 2d \cos \theta \quad (12)$$

formula bilan aniqlanadi. Bu yerda d - qo'shni atomlar tekisligi orasidagi masofa, θ - nurning kristal sir-tiga tushish burchagi, Δ - bosib o'tilgan yo'llar farqi. Qo'shni atomlar tekisligidan qaytgan to'liqin fazalari farqi $\delta = k\Delta = (2\pi/\lambda)\Delta$ ga teng. Agar qaytgan nurlar bosib o'tgan yo'llari farqi to'liqin uzunligiga butun songa karra bo'lsa qaralayotgan yo'nalishda qaytgan nurlarning kuchayishi kuzatiladi yani

$$2d \cos \theta = m\lambda, \quad (13)$$

bu yerda $m = 0, \pm 1, \pm 2, \dots$ (13) formulalar rentgen nurlarining kristalda difraksiyasini hisoblash formulalari bo'lib Bregg-Vulf formulasi deb ataladi. Bu formulada yordamida kristalga θ burchak ostida tushgan to'liqin qanday sharoitda qaytib interferentsion maksimum hosil qilishini hisoblashga imkon beradi. Umuman parallel atomlar tekisligiga tushgan to'liqinlardan faqat tushish burchagi (13) tenglikni qanoatlantirganlarigina kristaldan qytadi va interferentsion maksimum hosil qiladi. Kristalda rentgen nurlarining difraksiyasini kuza-tishning bir nechta usullari bor:

1. *Laue usuli.* Laue usulida monokristal uzliksiz spektrga ega rangtgen nurlari bilan yo'ritiladi. Monokristalning har bir parallel atomlari sistemasi (13) formulaga mufoviq berilgan burchak ostida ma'lum to'lqin uzunlikdagi nurlarni qaytaradi. Agar qaytgan nurlar oldiga fotoplastinka qo'yilsa interferentsion manzara - qora va yorug' dog'lar sistemasi - *lauegramma* kuzatiladi. Tajriba geometriyasini bila turib, kristal strukturasini va to'lqin uzunligini aniqlash mumkin.
2. *Bragg usuli.* Bu usulda kristal monoxromatik rentgen nurlari bilan yoritiladi. Monokristalni aylantirganda qaralayotgan atomlar tekisligidan nurlarning qaytishi kuzatiladi. Qaytish faqat muayyan burchaklar ostida sodir bo'ladi. Bu burchakni o'lchab va difraktsion maksimum tartibi m ni bila turib atomlar sistemasi tekisligi orasidagi masofa d ni aniqlash mumkin. Ba'zida kristalni emas, balki nurning tushish burchagini o'zgartirish qulayroq bo'ladi, kristal esa tinch turadi.
3. *Debay-Sherer usuli.* Odatda katta o'lchamga ega monokristalni laboratoriyada o'stirish juda qiyin va ko'p mehnat talab etadi. Shu bois olinishi oson bo'lgan polikristallar ustida tajriba o'tkaziladi. Polikristal bir biriga nisbatan tartibsiz ravishda joylashgan ko'p monokristallardan iborat bo'ladi. Polikristallarda rentgen nurlarining difraktsiyasini kuzatish Debay-Sherer metodiga asoslangan. Agar polikristalni monoxromatik rentgen nurlari bilan yoritilsa, polikristalni tashkil etuvchi monokristallar ichidan tushuvchi nurga nisbatan shunday jo'ylashgani topiladiki nurning tushish burchagi θ , atomlar tekisligi orasidagi masofa d (13) Vulf-Bregg munosabatini qanoatlantiradi. Tushuvchi nurlar oldiga fotoplastinka o'rnatilgan bo'lsa, tushish va qaytish nurlari aksial simmetrik bo'lganligi bois fotoplastinkada halqalar sistemasi kuzatiladi. Tajriba geometriyasi, to'lqin uzunligi va halqalar joylashishini ila turib monokristal strukturasini to'g'risida qimmatli axborot olish mumkin.

Hozirgi zamon ilmiy izlanish, texnika va sanoatda uchala metod ham keng qo'llanilmoqda. Shu metodlar yordamida rentgen nurlarining qisqa to'lqin uzunlikka ega elektromagnit to'lqin ekanligi to'la isbotlandi. Rentgen nurlari to'lqin uzunligi kristal strukturasini doimiysi atrofida. Yuqoridagi metodlarga asoslangan uskunalar yasali ularda rentgen nurlarining to'lqin uzunliklari aniq o'lchanadigan bo'ldi. Natijada hozirgi fan va texnikada katta ahamiyat kasb etuvchi *rentgenostruktura analizi* rivojlandi.

Yuqorida biz Vulf-Bregg formulasini keltirib chiqarganda rentgen nurlarining vakuumdan kristal ichiga kirishiga sinishini etiborga olmagan edik. Odatda, rentgen nurlarining kristalga kirishida sinishi juda kam va ularni etiborga olmasa ham bo'ladi. Lekin biz bu fenomenni ham inobatga oladigan bo'lsak Vulf-Bregg formulasi quyidagicha yoziladi

$$2nd \cos \theta_s = m\lambda. \quad (14)$$

Bunda n, θ_s mos ravishda kristalning sindirish ko'rsatgichi va nurning kristalga o'tishida sinich burchagi.

Elektronning gaz molekulari bilan to'qnashuvi.

Elektronlarning gazdan o'tishida molekular bilan to'qnashadi. Agar to'qnashish natijasida gaz molekulasini ichki energiyasi o'zgarmasa to'qnashish elstatik deb ataladi. Elastik to'qnashuvda elektron kinetik energiyasi o'zgarmaydi. Aslida elektron kinetik energiyasi o'zgina bo'lsa ham kamayadi, u molekulaga o'z kinetik energiyasini beradi. Lekin bu energiya m_e/M_{mol} miqdor bilan o'lchanadi yani 10^{-4} va uni inobatga ham olmash mumkin. Agar to'qnashuvda molekula ichki energiyasi o'zgarsa bunday to'qnashuv noelastik den ataladi. Elektronlarning gaz molekulari bilan to'qnashuvi ikki turli bo'lishi mumkin. Birinchi turli noelastik to'qnashuvda elektron o'z kinetik energiyasini molekulaga beradi, yani energiyasini kamaytiradi. Molekula olgan energiya uning uyg'onishiga, bazida uning ionlashuviga olib kelishi mumkin. Bunda molekuladan elektron urib chiqariladi. Ikkinchi turli to'qnashuv elektron va uyg'ongan molekula orasida sodir bo'ladi. To'qnashish natijasida molekulaning barcha uyg'onish energiyasi yoki bir qismi elektronga beriladi va elektron kinetik energiyasi ortadi. Molekula ichki energiyasi esa kamayadi. Bu ikki to'qnashuvdan tashqari yana bir turli elektronning molekula bilan bilvosita ta'sirlashishi mumkin. Elektron molekula bilan ta'sirlashib uning atrofida tezlanish bilan harakat etadi va foton nurlanishi mumkin. Qarabsizki elektron energiyasi kamayadi, lekin bu to'qnashuv birinchi turli to'qnashuvdan farqli elektron yo'qotgan energiya molekulada qolmay, balki foton tomonidan olib ketiladi.

Ko'ndalang kesim.

Elektronning molekula bilan to'qnashishi bexosdan bo'ladigan yoki tasodifiy hodisadir va shu sabab biror ehtimol bilan sodir bo'ladi. Fizikada mikroob'ektlarning bir biri bilan to'qnashish ehtimoli *ko'ndalang kesim* deb ataluvchi miqdor bilan o'lchanadi. To'qnashish jarayonida elektronning nuqtaviy zarra molekulani esa biror hajmga ega shar shakliga tasavvur etiladi. Molekula shari ko'ndalang kesimi yuzi σ bo'lsin. Bu kesim yuzi faqat tasavvurda, molekulaning asli geometrik ko'ndalang kesimi yuzi emas. σ hatto bitta molekula uchun ham har xil jarayonlar uchun turlicha bo'lishi mumkin. Elektron S yuzali sirtga urilayotgan bo'lsin. Molekular konsentratsiyasi n_0 bo'lsin. Elektron harakati yo'nalishidagi dx qatlamda $n_0 S dx$ molekula bo'ladi. Agar bu molekular bir biri yuzlarini berkitmaydigan bo'lishsa ularning umumiy ko'ndalang kesimi yuzi $dS = \sigma n_0 S dx$ ga teng. U holda elektronning bitta molekulaga to'qnashish ehtimoli

$$dP = \frac{dS}{S} = \sigma n_0 dx \quad (15)$$

tenglik bilan aniqlanadi. Bu elektronning gaz molekulasini bilan to'qnashish ko'ndalang kesimi yuzidir.

To'qnashuvning ehtimoli tajribadan topiladi, ko'ndalang kesim yuzi esa (15) formula yordamida hisoblanadi.

O'rtacha erkin yugurish yo'li.

Agar elektronning gaz molekularining biri bilan to'qnashuvi boshqa to'qnashuvlarga bo'g'liq bo'lmasa, to'qnashish ehtimoli x ga proporsional ravishda ortadi. Yani elektron qancha katta masofani bosib o'tsa yo'lida gaz molekulasi uchratib uning bilan to'qnashish mumkinchiligi ko'payadi. To'qnashish ehtimolining qiymati 1 ga teng bo'ladigan o'rtacha $\langle l \rangle$ masofa *elektronning o'rtacha erkin yugurish yo'li uzunligi deb ataladi*. Erkin yugurish yo'li uzunligining o'rtacha qiymatini (15) tenglamadan topamiz

$$\langle l \rangle = \frac{1}{\sigma n_0}. \quad (16)$$

$\langle l \rangle$ elektronning gaz molekulasini bilan ketma ket bo'ladigan to'qnashishlar orasida bosib o'tgan yo'lining o'rtacha qiymatini ifodalaydi. Elektronning erkin yugurish yo'li uzunligini Faradey tsilindri yordamida aniqlash mumkin. Faradey tsilindrida gaz kontsentratsiyasi uning bosimi va harorati orqali aniqlab turiladi. Elektronlar dastasining gazdan o'tishi

$$I(x) = I_0 \exp\left(-\frac{x}{\langle l \rangle}\right) \quad (17)$$

orqali berilgan yani elektronlar dastasi intensivligi gaz ichkarisiga kira borishi bilan eksponentsial ravishda kamayadi. Elektronlar dastasi intensivligini gaz qatlamlarida o'lchab

$$\sigma = \frac{1}{n_0 x} \ln \frac{I_0}{I(x)} \quad (18)$$

formuladan to'qnashish ko'ndalang kesimi topiladi, keyin esa (16) formuladan elektronning erkin yugurish yo'li uzunligi hisoblanadi.

Ramzauer-Taunsend effekti.

Ramzauer 1921 yili 1 eV dan kichik bo'lgan energiyali elektronlardan tortib bir nechta o'n keV energiyali elektronlarning argon gazi atomlari bilan elastik to'qnashuvini tajribada tekshirib o'rgandi. Ayni shu vaqtlarda Taunsend ham shunga tajribalar o'tkazdi. Ikkala olim ham to'qnashishning ko'ndalang kesimining yuzining elektron energiyasiga bog'liqligini tekshirdi. Izlanish natijasida keyinchalik Ramzauer-Taunsend deya nomlangan fenomem kashf etildi. Ramzauer-Taunsend effektining mohiyati quyidagidan iborat: Elektronning energiyasi bir nechta o'n eVdan kamaya borgan sari ko'ndalang kesim orta boradi va 16 eV ga yetganda maksimumga erishadi, keyin kamaya borib 1 eV da taxminan nolga teng. Elektron energiyasini yana kamaytirish ko'ndalang kesimning ortishi kuzatiladi (Fig.). Ko'ndalang kesimning energiya ortishi bilan ortishi va uning 1 eV da sochilishning butunlay yo'qolishini klassik fizika nuqtai qonunlariga asoslanib tushuntirish mumkin

emas. Chukni ko'ndalang kesimning nolga tengligi argon atomlarining yo'qolib ketishi va elektronlar ular orasidan to'qnashuvsiz o'tib ketishini anglatadi. Keyinchalik o'tlazilgan tajribalar kuzatilayongan ajobtovur xossalarga faqat argon atomlarigina emas balki barcha inert gazlar atomlariga xos ekanligini ko'rsatdi. Ramzauer-Taunsend tajribasi bir nechta yillar mobaynida o'z tushuntirishini kutib qoldi. Faqat bir nechta yillar o'tgandan keyingina effekt elektron to'lqin xossasiga egaligining isboti ekanligi ko'rsatildi. Shuni takidlab o'tish joizki Ramzauer-Taunsend effektiga o'xshash effekt taxminan 100 yil oldin ham kuzatilgan edi. O'sha tajribada Nyuton korpuskulalarining sochilishi tajribada qaralgan va darhol korpuskulyar nazariyadan voz kechish bilan yakunlangandi. Xo'sh u qanday tajriba edi. 1801 yili o'tkazilgan Yung tajribasi interferentsiya hodisasini oddiy qilib tushuntirib bersa ham uning fikrlari ko'pchilikning etiborini tortmadi. Keyinchalik interferentsiya va difraktsiya nazariyasi bilan Frenel shug'illandi. Frenel yo'rug'likni to'lqin deb qaradi. Fransiya Akademiyasida 1818 yili yo'rug'lik tabiati to'g'risida bahs bo'lin unda Frenel yo'rug'likning to'lqin ekanligini va o'zining nazariyasini bayon etti. Munozarada qatnashayotgan Puasson Frenel nazariyasidan ajobtovur xulosaga kelib chiqishini va uni tajribada tekshirib ko'rishni taklif etti. Uning fikricha agar yo'rug'lik dastasi oldiga kichik doira shaklidagi to'siq qo'yilsa, to'siq ortidagi soya sohada joylashgan ekran markazida yo'rug' dog' bo'lishi kerak ekan. Frenel va Arago ikkovi tajriba o'tkazib Puasson fikrlari to'g'ri ekanligi va shu bilan Frenelning difraktsiya nazariyasi ham to'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Shu bilan yo'rug'likning to'lqin modeli g'alaba qozondi. Puasson ko'rsatib bergan dog' Puasson dog'i deb ataladigan bo'ldi. Nyutonning korpuskulyar nazariyasi esa inkor etildi. Ramzauer-Taunsend effektini ham Puasson dog'ining paydo bo'lishi kabi tushuntirish mumkin agar biz elektron o'zini to'qnashishda to'lqin kabi tutadi deb hisoblasak. Elektronning to'lqin uzunligi argon atomi diametriga taxminan teng bo'lganda, difraktsiya juda yaxshi kuzatiladi va atom ortida Puasson dog'iga o'xshash elektron to'lqinining dog'i paydo bo'ladi yani xuddi elektron atomdan hech qanday to'qnashsiz, uni sezmay o'tgandek. Ammo elektronning to'lqin xossalari anglab etishga ancha yillar ketdi.

de Broyl to'lqini

Ko'p yillar davomida yorug'likning korpuskulyar xossalarga ega ekanligi inobatga olinmay keldi. Lekin elektromagnit to'lqinning korpuskulyar xossalari topilishi xuddi shu tarzda "Material zarralar ham to'lqin xossalarga ega bo'lishi mumkinmi?" degan savolni tug'dirgandi. Bu savolga "Ha" javobini fransuz fizigi Lui Viktor de Broyl berdi. de Broyl barcha material zarralar korpuskulyar xossalardan tashqari to'lqin xossalarga ham ega degan yangi gipotezani ilgari surdi. Bu gipotezani asoslash uchun zarraning korpuskulyar va to'lqin xossalari ifodalovchi miqdorlarni o'zaro bog'lovchi munosabatlarni topish kerak edi. Moddiy nuqtaning harakati to'rt o'lchamli impuls vektori

$(p_x, p_y, p_z, iE/c)$ bilan ifodalanadi. Yassi to'liqin esa $(k_x, k_y, k_z, i\omega/c)$ to'rt miqdor bilan ifodalanadi va bu to'rt miqdorni ham to'rt o'lchamli vektor deb qarash mumkin. Shu bois bu ikkala to'rt vektorlar orasidagi relyativistik invariant munosobotni

$$\frac{p_x}{k_x} = \frac{p_y}{k_y} = \frac{p_z}{k_z} = \frac{E}{\omega} = h' \quad (19)$$

deb yozish mumkin. Bu yerda h' biror doimiy. Yuqoridagi formulani sodda qilib

$$E = h'\omega, \vec{p} = h'\vec{k} \quad (20)$$

deb yozamiz. de Broyl h' doimiyni Plank doimiysi bo'lishi kerak degan fikrda edi va $h' = \hbar$ deya qabul etti. U holda zarraning to'liqin va korpuskulyar xossalari orasidagi munosobotni ifodalovchi va de Broyl tenglamalari deb ataluvchi formulalarni qo'lga kiritamiz

$$E = \hbar\omega \quad (21)$$

$$\vec{p} = \hbar\vec{k}. \quad (22)$$

Optika kursidan ma'lumki chastotasi ω va to'liqin vektori $\vec{k}$ bo'lgan yassi to'liqin

$$\Psi(\vec{r}, t) = Ae^{-i(\omega t - \vec{k} \cdot \vec{r})} \quad (23)$$

kompleks funktsiya orqali ifodalanadi. Bu yerda A to'liqin amplitudasi. (21) va (22) formulalardan impulsi $\vec{p}$ va energiyasi E bo'lgan zarra

$$\Psi(\vec{r}, t) = Ae^{-\frac{i}{\hbar}(Et - \vec{p} \cdot \vec{r})} \quad (24)$$

yassi to'liqin bilan ifodalanishi kelib chiqadi. Endi zarra tezligi va to'liqin tezligi orasidagi umumiylikni aniqlaymiz. To'liqinning fazaviy tezligi deb to'liqin frontining tarqalish tezligiga aytiladi. Agar yassi to'liqin faqat x o'qi bo'ylab tarqalayotgan bo'lsa, to'liqin fazasi teng bo'lgan nuqtalar $Et - px = \text{const}$ tenglik bilan aniqlanadi. To'liqinning fazaviy yoki de Broyl tezligi ushbu tenglikdan vaqt bo'yicha hosila olish bilan topiladi:

$$E - p \frac{dx}{dt} = 0. \quad (25)$$

Bu yerdan

$$\frac{dx}{dt} = v_f = \frac{E}{p} = \frac{mc^2}{mv} = c \frac{c}{v}, \quad (26)$$

v -zarra tezligi. $v < c$ bo'lganligi bois de Broyl to'liqinining fazaviy tezligi doimo yorug'lik tezligidan

katta. Lekin bu bilan nisbiylik nazariyasi postulati yani barcha zarralar tezligi yorug'lik tezligidan kichik bo'lishi lozim degan postulati ziddiyatga kelib qolmaydi. Aksincha, nisbiylik nazariyasi postulatida faqat massa va energiya tarqalishi tezligi to'grisida aytilgan xolos. To'liqinning fazasi esa hech qanday massa va energiya tarqalishini anglatmaydi. de Broyl to'liqinining energiyasi va massasi (yani zarraning o'z) ning tarqalish tezligi esa gruppaviy tezlik bilan tavsiflanadi va bu miqdor

$$v_{gr} = \left(\frac{d\omega}{dk} \right)_{k=k_0} \quad (27)$$

formula bilan topiladi. de Broyl to'liqini uchun $v_{gr} = d\omega/dk = dE/dp$. Agar $E = c\sqrt{p^2 + m_0^2 c^2}$ deb hisoblask, $v_{gr} = v$ ekanligini topamiz. Demak, de Broyl to'liqinining gruppaviy tezligi zarra tezligiga teng. (26) va (27) formulalardan de Broyl to'liqinining gruppaviy va fazaviy tezliklarining ko'paytmasi formulasi $v_{gr}v = c^2$ ni topamiz. Shuni aytish lozimki (27) formula bilan to'liqin paketining ham gruppaviy tezligi topiladi. Lekin bu bilan de Broyl to'liqinini yoki zarrani to'liqin paketi deb qarab bo'ladi degani emasdir. Chunki, to'liqin pakiti vaqt o'tishi va fazoda harakatlani bilan dispersiya natijasida yoyilib ketadi, zarra esa stabil ob'ektdir. Zarralarning to'liqin xossalari difraktsiya hodisalarida yaqqol namoyan bo'ladi. de Broyl to'liqini uzunligi zuda kichik bo'ladi. Masalan, U potentsiallar ayirmasidan o'tgan elektron norelyativistik hollarda $mv^2/2 = eU$ kinetik energiyaga erishadi. Tezligi esa $v = \sqrt{2eU/m}$ va shu zarraga mos keluvchi de Broyl to'liqini uzunligi

$$\lambda = 2\pi\hbar/\sqrt{2eU} \quad (28)$$

formula bilan aniqlanadi. Elektron zaryadi $e = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ Kl}$ va massasi $m = 9,1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$, $\lambda = (1,2/\sqrt{U}) \text{ nm}$ bo'ladi. Yani bir nechta eV potentsiallar ayirmasi uchun de Broyl to'liqini uzunligi taxminan 1 nm atrofida bo'ladi. Elektronning to'liqin xossasini difraktsiya natijasida ko'rish mumkin. Xuddi shunday tajribalardan biri bu Davidson va Jermeri tomonidan o'tkazilgan kuzatishdir. Bu olim ikkita tajriba o'tkazib elektronlar dastasining kristal sirtidan xuddi to'liqinga o'xshab qaytishini qayd etishgan.

- Birinchi tajribada nikel kristali sirtiga elektronlar dastasi yo'naltirilib qaytgan elektronlar oqimining intensivligi o'lchangan va uning qaytish burchagiga bogliqligi topilgan. Elektronlar dastasi har xil tushish burchagida nikel sirtiga yo'naltirilib qaytgan elektronlar oqimining intensivligi tushish burchagiga teng bo'lgan burchakda eng ko'p qaytishi qayt etilgan (Fig.).
- Ikkinchi tajribada tushish burchagi o'zgarmas holda qaytgan elektronlar dastasi intensivligining elektronlar energiyasiga bog'liqligi o'rganilgan. Qaytgan elektronlar oqimi intensivligi kollektor K dagi tok kuchiga qarab aniqlangan (Fig.).

Desidson va Jermeri tajribasini faqat elektron kristal sirtiga tushushi va qaytishida o'zni xuddi to'lqin kabi tutadi debgina tushuntirish mumkin. Bu to'lqin ham de Broyl to'lqinidir. Elektronlarning kristaldagi difraksiyasi xuddi to'lqinning difraksiyasi kabi sodir bo'lgan va bu holda ham Vulf-Bregg munosobatlari bajariladi. Birinchi tajribadagi intensivlikning maksimumi kuzatilgan yo'nalish ham Vulf-Bregg formulasidan topiladi. Ikkinchi tajribada intensivlikning elektron energiyasiga bog'likligini ham quyidagicha tushuntirish mumkin. Sirpanish burchagi α o'zgaras bo'lganda, qaytgan nurlar oqimining intensivligi maksimum bo'lishi

$$n\lambda_n = 2d \sin \alpha, \quad (29)$$

$n = 1, 2, 3, \dots$, shart bajarilganda kuzatiladi va buni (28) ni inobatga olin

$$\sqrt{U_n} = \left(\frac{\pi \hbar}{d \sin \alpha} \right) \frac{1}{\sqrt{2em}} n = \text{const} \cdot n \quad (30)$$

deb yozishimiz mumkin. Yani qaytgan elektronlar oqimi intensivligi maksimumi $\sqrt{U}$ ga oraliqda kuzatiladi (Fig.). Ammo tajriba va nazariyaning to'la mos tushishi uchun elektron to'lqinining kristalda sinishi ham etiborga olinishi darkor. Elektronning to'lqin xossasini isbotlash uchun o'tkazilgan yana bir tajriba bu Tomson va Tartakovskiy tajribasidir. Ular elektronlarning difraksiyasini kuzatib elektronlar haqqatdan ham to'lqin xossaga ega ekanligini isbotlashdi. Keyinchalik boshqa mikro zarralar ustidan ham ko'p tajribalar o'tkazilib ular ham to'lqin xossalarga ega ekanligi ko'rsatib berildi.

de Broyl to'lqini tenglamasi.

Quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan Gelmgolts tenglasi

$$\nabla^2 \Phi(\vec{r}) + k^2 \Phi(\vec{r}) = 0 \quad (31)$$

har xil tabiatga ega bo'lgan to'lqinlarni bir jinsli muhitlarda va vakuumda tavsildaydi. Bunda $k = 2\pi/\lambda$. Shu bois bu tenglamani zarralarning to'lqin xossasini tavsiflovchi de Broyl to'lqinini ifodalash uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. $E = \hbar\omega$ dan $\omega = \text{const}$ sharti $E = \text{const}$ shartiga ekvivalentligi kelib chiqadi. Demak, Gelmgolts tenglamasini zarraning to'liq energiyasi E bo'lib uning biror potentsial maydonlarda harakatlantirishini ifodalashda qo'llash mumkin:

$$E = \frac{p^2}{2m} + E_p = \text{const}. \quad (32)$$

Bu yerda E_p va $E_k = p^2/(2m)$ zarraning mos ravishda potentsial va kinetik energiyalari. de Broylning ikkinchi tenglamasi $\vec{p} = \hbar \vec{k}$ va (32) formulalardan

$$k^2 = \frac{2m}{\hbar^2} (E - E_p). \quad (33)$$

ni topamiz. Oxirgi formuladagi k^2 ning ifodasini (31) ga qo'yib zarraning to'lqin xossasini ifodalovchi va *Shryodinger tenglamasi* deb ataluvchi tenglamani qo'lga kiritamiz

$$\nabla^2 \Psi(\vec{r}) + \frac{2m}{\hbar^2} (E - E_p) \Psi(\vec{r}) = 0. \quad (34)$$

Shryodinger tenglamasi ikkinchi darajali xususiy xosilali tenglama bo'lib, u E ning barcha qiymatlarida echimga ega bo'lmaydi. Agar echimga ega bo'lsa u barcha nuqtalarda uzluksiz va chekli bo'lgan $\Psi(\vec{r})$ funktsiya bo'lishi lozim. $\Psi(\vec{r})$ funktsiya zarraning to'lqin funktsiyasi deb ataladi. Shryodinger (34) tenglamani qo'lga kiritishi bilan uni vodorod atomi energiyasining xususiy qiymatlarini topish uchun qo'lladi va bunda uning omadi keldi. Topilgan natijalar N.Borning vodorod atomi uchun eskinazariyasi va tajribaga to'la mos keldi. Shu bilan Shryodinger tenglamasi elektronning atom yadrosi markaziy elektr maydonidagi harakatini to'g'ri ifodalashi ko'rsatildi. Shryodinger tenglamlasining topilishi bilan u kvant mexanikasidagi barcha statsonar holatlarni topish uchun keng qo'llana boshladi. Ammo, topilgan echim $\Psi(\vec{r})$ ning fizikaviy manosi ko'p munozalarga sabab bo'ldi va hozirgacha bu bahs davom etib kelmogda. Born de Broyl to'lqin funktsiyaning fizikaviy manosini quyidagicha berdi: *zarraning to'lqin funktsiyasi 1 ga normallangan holda, uning modulining kvadrati $|\Psi(\vec{r})|^2$ zarraning berilgan nuqtada topish ehtimolini anglatadi.*

III. Atom holatining diskretligi.

Atomning energetik golati uzlukli ravishda o'zgarishi mumkin emas. Uning energiyasi faqat belgilangan aniq qiymatlar qabul etishi mumkin yani diskret bo'ladi. Atom energiyasi kvantlangan. Atomning energiyasi faqat diskret ravishda o'zgaradi.

Qora jism nurlanishi.

XIX asrning oxirgi choragiga kelib termodinamika va nazariy elektrodinamika to'la yaratilib bo'lgan edi. Termodinamika materiyaning korpuskulyar turi bilan kechadigan issiqlik hodisalarini batafsil tushuntirib bera olardi. Nazariy elektrodinamika esa elektromagnit hodisalar, xususan, elektromagnit to'lqinlarni va yorug'likni, to'g'ri tushuntirar va uning negizini Maksvel tenglamalari tashki qilar edi. Maksvel tenglamalariga binoan elektromagnit maydon tok va zaryad manbalarisiz mustaqil ravishda fazoda to'lqin sifatida tarqalishi mumkindir yani u mustaqil ob'ektdir. Bu degani elektromagnit maydon materiyani yangi bir turidir. Shu sababdan materiyaing bu ikki turi, maydon va korpuskula, orasida o'zaro aylanish masalasi o'rta tushdi. Boshqa so'z bilan modda va nurlanish orasida o'zaro aylanish masalasini o'rganish kerak bo'ldi. Masalani o'rganishga qo'llanilgan klassik fizika o'zining yaroqsizligini qora jism nurlanishi hodisalarida ko'rsatdi. Tajribadan malumki, juda qattiq qizdirilgan, yani yuqori haroratli, jismlar o'zidan nurlanish chiqara boshlaydi.

Bu nurlanish yorug'lik, yani ko'rish diapozonidagi elektromagnit to'liqinidir. Past haroratlarda jism o'zidan yorug'lik chiqarmasa ham, ko'zga ko'rinmas diapozonda yotuvchi elektromagnit nurlarini taratadi. Shu sabab, bu nurlanish qonuniyatlari aniqlanishi va ayniqsa jism energetik nurlanuvchanligining haroratga bog'liqligini aniqlash kerak edi. Jism sirtining birlik maydonidan vaqt birligida barcha yo'nalishda taraluvchi energiya jismning nurlanuvchanligi deb ataladi va quyidagicha ifodalanadi

$$M = \frac{dP}{dS}. \quad (35)$$

Bu yerda dP - jismning dS maydonidan taraluvchi nurlanish quvvati. 1874 yili Stefan jismning nurlanuvchanligi uning haroratining to'rtinchi darajasiga to'g'ri proportsional ekanligini ko'rsatib berdi:

$$M = \varepsilon \sigma T^4. \quad (36)$$

ε - jismning qoraligi yoki nurlanuvchanlik koeffitsienti deb ataladi, T - termodinamik harorat va $\sigma = 5,67 \cdot 10^{-8} \text{ Vt} \cdot \text{m}^{-2}$ - Stefan-Boltsman koeffitsienti, u nurlanish manbasi tabiatiga bog'liq emas. Jism qoraligini ifodalovchi $\varepsilon \leq 1$ shartni qonaotlantiradi. Odatda, jismga tushuvchi nurlanishning bir qismi yutilib, qolgani qaytadi. Nurlanishning yutilgan qismi energiyasining tushgan nurlanish energiyasiga nisbati yutilish koeffitsienti deb ataladi. Qora jismlar uchun bu miqdor birdan oz farq etadi $\alpha \simeq 1$, yaltiroq va oq jismlar uchun $\alpha \ll 1$. O'ziga tushuvchi nurlanishni qaytarmasdan to'laligicha yutuvchi jism absolyut qora jism deb ataladi va u uchun $\alpha = 1$. Nurlanish va jism orasida termodinamik muvozanatni tahlil etishda nurlanish va qora jism muvozanati katta ahamiyat kasb etadi. Termodinamik yoki issiqlik muvozanati holatida jism harorati doimiy va u vaqt birligida qancha nurlanish yutsa, shuncha nurlanish chiqaradi. Yani nurlanish va jism orasida muvozanat mavjud bo'ladi. Jism bilan muvozanatda bo'lgan nurlanish *issiqlik nurlanishi* deb ataladi. Kirxgoff umumiy termodinamik mulohazalar yordamida ixtiyoriy jism nurlanuvchanligi uning yutish koeffitsientiga teng ekanligini ko'rsatib berdi (1895). Bu degani qora jism uchun $\varepsilon = 1$, yani qora jismning nurlanishni qanchalar yaxshi yutsa, shunchalar yaxshi nurlanish ham taratar ekan. Bu fikr har bir to'liqin uzunligi uchun ham o'rinlidir. (36) munosabat 1884 yili absolyut qora jism uchun nazariy yo'l bilan Boltsman tomonidan olingan va shu bois Stefan-Boltsman qonuni deb ataladi. Bu qonunga ko'ra qora jism nurlanuvchanligi uning haroratigagina bog'liq bo'lib, manbaning shakli, turi va tabiatiga bog'liq emas. Absolyut qora jism nurlanishiga katta kovak sirtidagi juda kichik darchadan chiqayotgan nurlanish misol bo'la olishi mumkin (Fig.). Tajribada bu nurlanishning energiyasining tadqiqoti Stefan-Boltsman qonuning juda to'g'riligini ko'rsatdi. Umuman aytganda, issiqlik nurlanishi energiyasi to'liqin uzunliklari bo'yicha taqsimlangan. V.Vin bu masalani nazariy

jihtadan o'rganib 1893 yili nurlanish energiyasi zichligi ma'lum bir to'liqin uzunligida maksimumga erishishini topdi va buni

$$\lambda_{maks} T = 2,9 \cdot 10^{-3} \text{ m} \cdot \text{K} \quad (37)$$

deb matematik formula shaklida ifodalash mumkin. (37) formula bilan ifodalangan qonun Vinning siljish qonuni deb ataladi. Tajribalar Vinning siljish qonuni naqadar to'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Nazariyotchi fiziklar tomonidan issiqlik nurlanishi energiyasi to'liqin uzunliklari bo'yicha taqsimlanishi maksimumga ega bo'lgan formulani yaratishga ko'p urinishlariga qaramay qoniqli natija qo'lga kiritila omadilar. Faqat juda kichik va juda katta to'liqin uzunliklari sohasida nurlanish energiyasi zichligining to'liqin uzunliklar bo'yicha taqsimlanishi formulasi olindi xolos. Katta to'liqin uzunligi yoki kichik chastotalar sohasida nurlanish energiyasining spektral zichligini klassik nuqtai nazardan Reley-Jins keltirib chiqardi. Ular issiqlik nurlanishni biror kub shaklidagi kovak ichida ko'rib chiqdi. Kovakning ichki devori klassik ostsillyatorlar to'plami deb qaraldi. Yani kovak devori nurlanish bilan o'zaro energiya almashib turadi. Kovak ichida nurlanishni turg'un to'liqinlar to'plamlari yoki modalardan tashkil topgan deb qaraldi. Nurlanishdagi har bir turg'un to'liqin tebranish modasi deb ataladi. Kovak kub ichida qancha turg'un to'liqin bo'lsa shuncha tebranish modalari soni bor deb atash qabul etilgan. Agar kub qirrasini L deb hisoblasak, turg'un to'liqin hosil bolish sharti (Fig.)

$$k \cdot L = 2\pi n \quad (38)$$

yoki

$$k_x L = \pi n_x, k_y L = \pi n_y, k_z L = \pi n_z \quad (39)$$

shaklida yoziladi. To'liqin soni $(k_x, k_x + dk_x), (k_y, k_y + dk_y), (k_z, k_z + dk_z)$ oraliqda yotuvchi to'liqinlar dN soni $(n_x, n_x + dn_x), (n_y, n_y + dn_y), (n_z, n_z + dn_z)$ oraliqda yotuvchi butun sonlarga teng va shu sabab

$$dN = dn_x dn_y dn_z = \left(\frac{L}{\pi}\right)^3 dk_x dk_y dk_z. \quad (40)$$

Keyingi hisoblashni sferik koordinatalar sistemasida bajarga ma'qul. Bunda k_x, k_y, k_z mos ravishda x, y, z o'qlari bo'yicha yonalgan deb qaraymiz (Fig.).

k_x, k_y, k_z to'liqin sonlari musbat bo'lganligi bois (40) munosabatni

$$dN = \left(\frac{L}{\pi}\right)^3 \frac{1}{8} 4\pi k^2 dk \quad (41)$$

ko'rinishda yozamiz. $k = \omega/c$ ekanligini inobatga olib tebranish modalari kontsentratsiyasini topamiz:




FIG. 5: Tebranishlar modalari konsentratsiyasini hisoblashga doir va kovakning kub modeli.




FIG. 6: Sferik koordinatalar sistemasida tebranishlar modalari konsentratsiyasini hisoblashda to'liq vektori yo'nalishi.

$$\frac{dN}{L^3} = \frac{1}{2} \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} d\omega. \quad (42)$$

Issiqlik nurlanishi elektromagnit to'liqin va shu sababli u ikki yo'nalishda qutblanishi mumkin ekanligini esga olib, turg'un to'liqlar konsentratsiyasi

$$\frac{dN_t}{L^3} = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} d\omega \quad (43)$$

ekanligini topamiz. Boshqacha etib aytganda, kovak ichidagi nurlanishdagi modalar soni nurlanishning erkinlik darajasi bilan tengdir. Agar bitta erkinlik darajasiga yoki bitta tebranishlar modasiga mos keluvchi nurlanishning o'rtacha energiyasi $\langle E \rangle$ bo'lsa, kovakdagi nurlanish energiyasining spektral zichligi

$$w_\omega(T) = \frac{dN_t}{L^3} \langle E \rangle = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} \langle E \rangle \quad (44)$$

munosabat bilan aniqlanadi. Qarabsizki, nurlanish energiyasining spektral zichligini aniqlash masalasi tebranish modasining o'rtacha energiyasi topilishiga keltirildi. (44) formula spektral zichlikning chastotaga bog'liqligi shaklida berilgan, ammo uni osonlikcha to'liqin uzunligi bo'yicha taqsimlanish formulasiga o'tkazish mumkin. Reley va Jins (44) formuladagi modalarning o'rtacha energiyasi o'rniga klassik fizika qonunlariga binoan garmonik ostsilyatorning o'rtacha energiyasi $\langle E \rangle = kT$ ni qo'yib

$$w_\omega(T) = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} kT \quad (45)$$

formulani qo'lga kiritishdi. Bu formula (45) Reley-Jins formulasi deb yuritiladi, chunki uni birinchi marotaba D.U.Reley 1900 yili taklif etgan va keyinchalik D.D.Jins (1877-1946) mukammal darajada asoslab bergan. U issiqlik nurlanishi energiyasining spektral zichligini ifodalaydi. Reley-Jins formulasi klassik fizika qonunlari asosida olingani sababli tajribalarni butunlayicha tushuntirib bera olmadi. Faqat kichik chastotalardagina Reley-Jins formulasi tajribani qoniqorli tushuntirib bera olishi mumkin. Katta chastotalarda kuzatiladigan spektral zichlik (45) dan ancha kichik bo'ladi. Juda katta chastotalarda yani $\omega \rightarrow \infty$ da spektral zichlik ham cheksizlikka intiladi $w_\omega \rightarrow \infty$. Shu asnoda nurlanishning to'liq hajmiy zichligi ham cheksizlikka intiladi

$$W = \int_0^\infty w_\omega d\omega = \infty. \quad (46)$$

Bu albatta aqlga bovar qilmaydigan hol, chunki kovak ichidagi nurlanish termodinamik muvozanatdaligi va uning energiyasi cheklangan ekanligini bilamiz. Tajriba ham nurlanishning spektral zichligi biror chastotada maksimumga erishib, keyinchalik eksponentsial darajada kamayib ketishini ko'rsatadi. Shu sabab Reley-Jins formulasi katta, ultrabinafsha nurlanishi, chastotalaridan boshlab tajribaga umuman mos kelmaydi. Nurlanish energiyasi hajmiy zichligining tasavvur etib bo'lmaydigan darajada cheksizlikka intilishi $W \rightarrow \infty$ fizikada *ultrabinafsha falokati* nomi bilan mashhur! Nurlanish spektral zichligini topishning boshqacharoq yo'lini 1896 yili V.Vin (1864-1928) taklif etgan. Uning fikricha tebranishning har bir modasi $E(\omega)$ energiyaga ega, lekin aynan shu chastotadagi barcha modalar uyg'ongan emas. Uyg'ongan modalarning nisbiy soni $\Delta N/N$ Boltsman taqsimoti bilan aniqlanadi:

$$\frac{\Delta N}{N} = e^{-E/kT}. \quad (47)$$

Bu yerdan ω chastotali nurlanish modasi o'rtacha energiyasi

$$\langle E \rangle = E(\omega) \frac{\Delta N}{N} = E(\omega) e^{-E/kT} \quad (48)$$

ni topamiz. Umumiy termodinamik mulohazalar yuritib V.Vin ω chastotali tebranish modasi energiyasi shu chastota ω ga proporsional bo'lishi kerak degan xulosaga keldi: $E \sim \omega$. Proporsionallik koeffitsienti o'sha paytda noma'lum edi, lekin hozirgi vaqtda u Plank doimiysi $\hbar$ ekanligi aniq, yani $E = \hbar\omega$. U holda (44) formula (48) ni etiborga olib quyidagi turda ko'rinishda:

$$w_\omega(T) = \frac{\hbar\omega^3}{\pi^2 c^3} e^{-\hbar\omega/kT}. \quad (49)$$

(49) munosabat Vin formulasi deyiladi va u nurlanish spektral zichligini juda katta chastotalarda tajribani yaxshi tushuntiradi. Qo'lga kiritilgan ikki formula, yani kichik chastotalar uchun Reley-Jins formulasi va katta chastotalar uchun Vin formulasi, faqat cheklangan oraliqlardagina tajribani tushuntiradi. Ular orasidagi chastotalar intervalida nurlanish spektral zichligi qanday formula bilan ifodalanish o'sha paytda ma'lum emasdi. Masalan, Quyoshdan kelayotgan nurlanishni o'rganganimizda, tajribadan spektral zichlikning qaysi chastotada maksimumga ega ekanligini aniqlashimiz mumkin. Ammo, bu maksimal chastota na Reley-Jins (45) va na Vin (49) formulalari yaxshi yushuntirib bera oladigan oraliqlarga to'g'ri kelmasdi. O'rta oraliqni tushuntiradigan nazariya mavjud emasdi.....

Bunga asosiy sabab qora jism nurlanishi hodisasini klassik fizika qonunlariga binoan tushuntirishga urinish edi. Klassik fizika qonunlari nurlanishning spektral zichligini to'g'ri topa olmaganligi bois, M.Plank 1900 yili, kichik chastotalarda Reley-Jins (45) formulasiga, katta chastotalarda esa Vin (49) formulasiga o'tadigan, interpolatsion formulani taklif etti. Bu formula quyidagi ko'rinishga ega:

$$w_\omega(T) = \frac{\hbar\omega^3}{\pi^2 c^3} \frac{1}{e^{\hbar\omega/kT} - 1}. \quad (50)$$

Bu yerda $\hbar = 1,05 \cdot 10^{-34} J \cdot s$ Plank doimiysi. (50) formula kichik chastotalar $\hbar\omega \ll kT$ da (45) ga, katta chastotalar $\hbar\omega \gg kT$ da esa (49) ga o'tadi. (50) formula qora jism nurlanishining tajribada kuzatiladigan barcha xususiyatlarini tushuntirib berdi. (50) formuladan Stefan-Boltsman qonuni va Vinning siljish qonunlarini keltirib chiqarish mumkin. (50) formula Plank formulasi deb yuritiladi. Shuni aytib o'tish kerakki Plank formulasi klassik fizika qonuniyatlariga umuman zid, uni klassik fizika doirasida olish mumkin emas. Buni quyidagicha ko'rsatish mumkin. (44) formuladagi $\langle E \rangle$ deganda ω chastotali nurlanish energiyasining o'rtacha qiymatini tushunamiz. Termodinamik muvozanat holatida

u ω chastotali nurlanishni yutuvchi va chiqaruvchi ost-sillyatorlar o'rtacha energiyasiga teng. Ost-sillyatorlarning energiya b'yicha taqsimlanishi Boltsman qonuniga binoan bo'lishi lozim:

$$N(E) = A \exp\left(-\frac{E}{kT}\right). \quad (51)$$

Klassik fizikada ost-sillyator har xil qiymatdagi energiyani qabul etishi mumkin, yani E uzluksiz miqdor. U holda ost-sillyatorning o'rtacha energiyasi

$$\langle E \rangle = \frac{A \int_0^\infty E \exp(-E/kT) dE}{A \int_0^\infty \exp(-E/kT) dE} = kT. \quad (52)$$

(52) ni (44) ga qo'yib Reley-Jins formulasi (45) ni qo'lga kiritamiz. Buning hech ajablanadigan joyi yo'q, chunki biz hisoblashni klassik fizika qonuni, energiyaning erkinlik darajasi bo'yicha teng taqsimlanishi, asosida yuritdik. Plank (50) formulani keltirib chiqarmagan, aksincha o'ylab topgan. M.Plank tomonidan kvant fizikasini yaratish uchun birinchi dalil qadam qo'yilgan edi. Uning fikricha ost-sillyatorlar energiyasi uzluksiz bo'lmay, aksincha faqat diskret qiymatlar qabul qilishi mumkin. U ost-sillyator energiyasi biror minimal E_1 energiyaga proporsional ravishda o'zgaradi

$$E_n = nE_1, (n = 0, 1, 2, \dots), \quad (53)$$

deya qabul etti. U holda ost-sillyatorlar o'rtacha energiyasi

$$\langle E \rangle = \frac{\sum_{n=0}^\infty E_n e^{-E_n/kT}}{\sum_{n=0}^\infty e^{-E_n/kT}} = \frac{E_1}{e^{E_1/kT} - 1}. \quad (54)$$

(54) munosabatni (44) ga qo'yib nurlanish energiyasining spektral zichligini topamiz:

$$w_\omega(T) = \frac{\omega^2}{\pi^2 c^3} \frac{E_1}{e^{E_1/kT} - 1}. \quad (55)$$

Biz haligacha minimal energiya E_1 ni ixtiyoriy deb keldik, ammo (55) formula Plankning interpolatsion formulasi bilan mos tushish uchun uni

$$E_1 = \hbar\omega \quad (56)$$

deb qabul qilishimiz zarur. Demak, ko'rinib turibdiki, tajribani to'g'ri tushuntirish uchun kovak sirtida joylashgan atom (ost-sillyator) energiyasi uzluksiz emas, balki diskret qiymatlar qabul etishi mumkin degan postulatni kiritishga majbur bo'ldik. Shu sabab, atom ichki energiyasi uzluksiz emas, diskret ravishda o'zgaradi yoki uning energiyasi kvantlanadi deymiz. Energiyaning kvantlanishi klassik fizika qonunlariga mutlaqo ziddir. Atomning holati diskret energiya bilan tavsiflanadi. Atom biror

vaqt mobaynida ruxsat etilgan energetik holatda bo'ladi va bu holat *statsionar holat* deyiladi. Atom biror energetik holatidan quyi energiyali holatiga o'tishida ozidan energiya chiqaradi, bu energiya nurlanish yoki yorug'lik kvanti tariqasida chiqadi. Agar energiya o'zgarishi ΔE bo'lsa, yorug'lik kvanti chastotasi $\omega = \Delta E/\hbar$ ga teng bo'ladi. Xuddi shu kabi atom quyi energetik holatdan yuqori energetik holatga o'tishi mumkin. Buning uchun atom tashqaridan biror ΔE energiyani yutishi lozim. Yuqori holatga o'tish $\omega = \Delta E/\hbar$ chastotali nurlanishni yutish orqali bo'ladi. Atomning bir energetik holatdan boshqa energetik holatga o'tish tushunchasidan foydalanib qora jism nurlanishi energiyasi spektral zichligi formulasini Einshtein taklif etgan usul bilan ham keltirib chiqarish mumkin.

Hamma yog'i berkitilgan kovak bor deb tasavvur eting. Uning devori harorati T bo'lib fotnlarni yutish va chiqarish qobiliyatiga ega, yani kovak devori issiqlik nurlanishi bilan termodinamik muvozanatda turibdi. Fotonlar yutilishida atom quyi energetik holatdan yuqori energetik holatga va aksincha chiqarganda yuqorisidan quyi energetik holatga o'tadi. Aytish joizki, atom o'z-o'zidan yoki spontan tarzda quyi energetik holatdan yuqorisiga o'tmaydi. Bunday o'tish faqat tashqi fotonning yutilishi natijasida bo'ladi, yani tashqi nurlanish maydoni ta'sirida. Atomning yuqori energetik holatdan quyi energetik holatga asosan ikki ta'sir natijasida o'tishi mumkin. Birinchisi, tashqi ta'sir bo'lib, majburiy o'tish hisoblanadi. Ikkinchii ichki ta'sir bo'lib, atom energiyasini o'zidan-o'zi spontan ravishda foton chiqarishi natijasida kamaytiradi. Muvozanat holatda energiyasini orttirayotgan atomlar va kamaytirayotgan atomlar soni teng bo'lishi darkor. Atomning n va m kvant sonlari bilan tavsiflanadigan energetik sathlarini qaraymiz. Ularning energiyasi mos ravishda E_n va E_m ($E_n > E_m$) bo'lsin. Atom n - holatdan m - holatga majburiy va spontan tarzda o'tishi mumkin, teskari o'tish esa faqat majburiy o'tish bo'ladi. Atomning vaqt birligida foton nurlatib n - holatdan m - holatga spontan tarishda o'tish ehtimolini A_{nm} deb belgilaylik. Foton energiyasi $\hbar\omega = E_n - E_m$. Agar n - energetik holatda bo'lgan atomlar konsentratsiyasi N_n bo'lsa, birlik vaqtda va birlik hajmda spontan tarzda m - energetik sathga o'tuvchi atomlar soni

$$\nu_{nm}^s = N_n A_{nm} \quad (57)$$

bo'ladi. Atomning n - energetik sathidan m - energetik sathiga majburiy tarzda birlik vaqt va birlik nurlanish energiyasi spektral zichligida o'tish ehtimolini B_{nm} bo'lsin. U holda m - sathga majburiy ravishda o'tuvchi atomlar soni

$$\nu_{nm}^m = N_n w_\omega B_{nm} \quad (58)$$

bilan aniqlanadi. Teskari yo'nalishda m - sathdan n - sathga majburiy tarzda o'tuvchi atomlar soni ham shunga o'xshash formula bilan beriladi:

$$\nu_{mn}^m = N_m w_\omega B_{mn}, \quad (59)$$

bu yerda N_m m - sathda bo'lgan atomlar konsentratsiyasi, B_{mn} m - sathdan n - sathga majburiy ravishda vaqt va nurlanish energiyasi spektral zichligi birligi ichida o'tish ehtimoli. (57), (58) va (59) formulalarda qatnashuvchi A_{nm}, B_{nm}, B_{mn} miqdorlar Einshtein koeffitsientlari deb ataladi. Termodinamik muvozanat holatida N_n va N_m konsentratsiyalar vaqt o'tishi bilan o'zgarmasligi lozim. Bu yuqoti energetik sathga o'tish soni va teskari o'tish soni teng deganidir:

$$\nu_{nm}^s + \nu_{nm}^m = \nu_{mn}^m \quad (60)$$

yoki, (57), (58) va (59) larni inobatga olsak

$$N_n A_{nm} + N_n w_\omega B_{nm} = N_m w_\omega B_{mn}. \quad (61)$$

Boltsman taqsimotiga binoan

$$N_n = A e^{-E_n/kT}, N_m = A e^{-E_m/kT}. \quad (62)$$

(62)- tenglamani (61)- tenglamaga qo'yib issiqlik nurlanishi va qora jism orasida muvozanat shartini anglatuvchi formulani topamiz:

$$A_{nm} e^{-E_n/kT} + w_\omega B_{nm} e^{-E_n/kT} = w_\omega B_{mn} e^{-E_m/kT}. \quad (63)$$

Endi Einshtein koeffitsientlarini aniqlaymiz. Juda yuqoti haroratda $T \rightarrow \infty$ nurlanish energiyasi spektral zichligi ham cheksizlikka intilishi lozim $w_\omega \rightarrow \infty$. (63) formulada $T \rightarrow \infty$ deb va tenglikning ikkala tomonini ham w_ω ga bo'lib

$$B_{nm} = B_{mn} \quad (64)$$

ekanligini topamiz. Bu, yuqori energetik sathdan quyi energetik sathga o'tish ehtimoli va unga teskari yo'nalishda o'tish ehtimoli teng deganidir. U holda (63)- formuladan nurlanish spektral zichligini topamiz

$$w_\omega = \frac{A_{nm}}{B_{nm}} \frac{1}{e^{\hbar\omega/kT} - 1}. \quad (65)$$

Elementar kvant nazariyasida A_{nm}/B_{nm} nisbatni aniqlash mumkin emas, azamuni quyidagi mulohazalar yordamida topish mumkin. Juda kichik chastotalarda $\hbar\omega/kT \ll 1$ shu bois (65)- formula maxarajidagi eksponentani Teylor qatoriga yoyib, etarli aniqlikda birinchi darajali had bilan kifoyalanish mumkin

$$\exp\left(\frac{\hbar\omega}{kT}\right) \approx 1 + \frac{\hbar\omega}{kT}. \quad (66)$$

U holda (65)- formula quyidagi ko'rinishga keladi

$$w_\omega = \frac{A_{nm} kT}{B_{nm} \hbar \omega}. \quad (67)$$

Lekin kichik chastotalarda nurlanish energiyasi spektral zichligi Reley-Jins formulasi bilan tavsiflanishini bilamiz. Shu sababli (67) ni (45) bilan taqqoslab

$$\frac{A_{nm}}{B_{nm}} = \frac{\hbar \omega^3}{\pi^2 c^3} \quad (68)$$

ni topamiz. Einshtein koeffitsientlari nisbati (68) ni (65) ga qo'yib Plank formulasi

$$w_\omega(T) = \frac{\hbar \omega^3}{\pi^2 c^3} \frac{1}{e^{\hbar \omega / kT} - 1} \quad (69)$$

ni qo'lga kiritamiz. Ko'rganingizdek, atomning diskret statsionat holatlari haqidagi tushunchasi va uning energiyasi o'zgarishida foton yutishi yoki chiqarishidan foydalanib Plank formulasini keltirib chiqardik. Ammo, bu usulning asosiy kamchiligi, bu uning Einshtein koeffitsientlarini hisoblashni taminlay olmasligidir. Buni faqat keyinchalik rivojlantirilgan kvant nazariya taminlaydi xolos.

Frank-Gerts tajribasi.

Atomning energetik holatlari diskret ekenligi birinchi marotaba Frank-Gerts tajribasida o'z isbotini yaqqol topdi. Elektron va atomning ikkinchi darajali noelastik to'qnashuvida energiya elektrondan atomga beriladi. Bunda elektron kinetik energiyasi turlicha bo'lishi mumkin. Agar atom ichki negiyasi uzliksiz tarzda o'zgaradigan bo'lsa, atom elektrondan ixtiyoriy energiya qabul qila olar edi. Atomning massasi elektron massasidan ancha katta bo'ganligi bois uning kinetik energiyasi juda oz miqdorda o'zgaradi. Agar atomning energetik holati diskret bo'lsa, u elektrondan to'qnashuv natijasida faqat statsionar holatlar energiyalari ayirmasiga teng energiyani qabul etishi mumkin. Shu sabab elektron noelastik to'qnashuvda atomga aniq bir qiymatga teng energiyani berishi mumkin. Elektronning atomga bergan energiyasini o'lchab, atomning energetik holatlari to'grisida qimmatli ma'lumot olish mumkin. Frank-Gerts tajribasi mohiyati ham shundan iborat!

Bu tajribada qizagan K katod va setka A orasiga katoddan chiquvchi elektronlarni tezlatuvchi U potentsillar ayirmasi qo'yilgan (Fig.). Elektronlar $1mm.sm.ust. \approx 130Pa$ bosimli simob bug'lari atmosferasida tezlatiladi. Elektronlar harakatlanish davomida simob atomlari bilan to'qnashadi. Setka A ortida B plastinka o'rnatilgan, setka va plastinkalar orasiga U ga teskari oshorali tormozlovchi $U_T \approx 0,5V$ potentsial qo'yilgan. Natijada, agar A setkaga $U_T = 0,5eV$ dan kam kinetik energiya bilan etib kelgan elektron bo'lsa u plastinka B ga etib bormaydi. Plastinka B ga $U_T = 0,5eV$ dan katta kinetik energiya bilan harakatlanayotgan elektronlar o'tishi mumkin va




FIG. 7: Frank-Gerts tajribasi sxemasi.




FIG. 8: Frank-Gerts tajribasi volt-ampér xarakteristikasi.

ularning soni plastinka B ga ulangan G galvonometr bilan o'lchanadi. Tajribada volt-ampér xarakteristika (VAX) qayt etilgan, $I = f(U)$ (Fig.). Tokning maksimumga erishadigan ekstremal kuchlanishlar bir-biridan teng masofalarda joylashgan. Maksimumlar orasi $\approx 4,9V$, birinchi maksimum esa $U = 4,1V$ da sodir bo'ladi. Shu takidlab o'tish kerakki, katod va setka orasidagi kuchlanishning haqiqiy qiymati $4,1V$ dan ozgina $0,8V$ ga farq qiladi. Bu farq katod va setkalar orasidagi kontakt potentsiallari ayirmasi bilan tushuntiriladi. U holda tajribada olingan VAX shuncha $0,8V$ ga o'ngga siljiydi, biribchi maksimum esa $4,9V$ ga to'g'ri keladigan bo'ladi. Maksimumlar orasidagi interval esa o'zgarmay qolaveradi.

Frank-Gerts tajribasining VAX sini tushuntirish uchun simob atomlari elektronlar bilan to'qnashib energiyani faqat diskret portsiyasini yutishi mumkin deb faraz qilishimiz darkor. Energiyaning bu portsiyasi $4.9eV$ ga teng. Elektron kinetik energiyasi $4.9eV$ dan kam bo'lganda uning simob atomi bilan to'qnashuvi elastik

bo'lib o'z energiyasini o'zgartirmaydi. Natijada har qancha to'qnashmaish elektron A setkaga tormozlovchi potentsial U_T ni engib o'ta oladigan energiya bilan etadi va B plaskinkaga etib G galvonometr bilan qayt etiladi. Elektron energiyasi 4.9eV bo'lganda elektron energiyasi shunday darajaga etadiki u simob atomlari bilan noelastik to'qnashib, butun energiyasini ularga beradi. Bundan keyin elektron tezligi juda kamayib ketib, A setkaga etganda tormozlovchi potentsial U_T ni engib olmaydigan bo'lib qoladi, galvonometr G da tok qayt etilmaydi. Ana shu kuchlanishdan boshlab tokning kamayishi boshlanadi. Plastinka B ga faqat noelastik to'qnashuvda ishtirok etmagan elektronlar etib borishi mumkin. Ularning soni esa kam bo'ladi. Kuchlanish U ni keyinchalik oshirib borsak elektronlar yana tormozlovchi potentsialni engib oladigan kinetik energiya to'plab, B plastinkaga eta boshlaydi. Bu esa tokning yana o'sishiga olib keladi. Tezlatuvchi kuchlanish taxminan 9.8eV bo'lganda elektronlar harakati davomida ikki marta noelastik to'qnashishi mumkin. Bu holda ham tezligini yo'qotgan elektronlar tok hosil etishi juda oz bo'ladi va tokning kamayishi ham 9.8V dan boshlab kuzatiladi. VAX dagi boshqa masumlarni ham shu tariqa tushuntirish mumkin. Tajribadan simob atomining asosiy va eng yaqin (yani birinchi) uyg'ongan holatlari energiyalari farqi 4.9eV ekanligi kelib chiqadi. Bu atom holati diskret ekanligininig dalolatidir. Keyinchalik bunga o'xshash tajribalar boshqa atomlarda ham bajarildi. Barcha tajribalarda atom holati diskret energetik spektrga ega ekanligi va faqat o'ziga xos potentsial faqlar topilgan. Bu potentsillar *rezonans* potentsillar deyiladi. Misol uchun, kaliy elementi atomi rezonans potentsiali 1.63eV , natriy atomi uchun 2.12eV va h. Rezonans potentsial atomni asosiy holatdan birinchi uyg'ongan holatga chiqarish uchun zarur bo'lgan energiyadir. Shuni aytish kerakki, atomning uyg'ongan boshqa energetik holatlari ham ko'p. Shu sabab agar atomga etarli darajada energiya berilsa u o'z energiyasini oshirishi mumkin. O'ta murakkab eksperimental uskunalar yordamida atomlarning yuqori uyg'ongan holatlarini ham tekshirish mumkin. Bunday turdagi tajribalarning barchasi *atomning holati diskret ravishda o'zgarishini* tasqidlashgan. Atom holatining diskretligi unga nisbatan klassik mexanikani qo'llab bo'lmasligini anglatadi.

Atomlar spektrlari.

Ma'lumki barcha moddiy o'bektlar elektromagnit nurlanish manbalari hisoblanadi. Nurlanish energiyasi manbasi tabitaiga qarab elektromagnit nurlanishni ikki turga ajratish qabul etilgan:

1. Issiqlik nurlanish;
2. Lyuminesentsiya.

Lyuminesentsiya ham bir nechta turlarga bo'linadi:

- xemilyuminesentsiya;
- elektrolyuminesentsiya;
- katodolyuminesentsiya;

- fluorestsentsiya.

Issiqlik nurlanishi jismlarning isishi natijasida paydo bo'ladi. Jismni tashkil etgan atom yoki molekulalar harakatlanib bir-biri bilan to'qnashadilar. To'qnashuvda atomning kinetik energiyasi uning ichki energiyasi o'tadi, natijada aton asosiy holatdan uyg'ongan holatga o'tadi. Vaqt o'tishi bilan uyg'ongan atomlar foton chiqarib asosiy holatga qaytadi. Shu bois issiqlik nurlanishi manbaini atomlarning tartibsiz harakari kinetik energiyasi deb hisoblash mumkin. Nurlanishning kelib chiqishida issiqlik (atomlar kinetik) energiyasi ahamiyati bo'lmasa bunday nurlanish lyuminesentsiya deb atash qabul etilgan. Lyuminesentsiya nurlanishi paydo bo'lishida atomlarni yuqori energiyali holatlarga uyg'otishda atomlarning kinetik energiyasidan foydalanilmaydi. Elektrolyuminesentsiya deb har xil elektr razryadlardagi nurlanishni, xemilyuminesentsiya deb atomlarning uyg'onishi ximiyaviy reaksiya natijasida va nihoyat fluorestsentsiya deb esa atomlarning nurlanishni yorug'likni yutish natijasida hosil qilgan nurlanishiga aytamiz. Elektronlar dastasining qattiq jismga tushib jismning yorug'lanishi katodolyuminesentsiya deb ataladi. O'tgan asrning ikkinchi yarmi mobaynida har xil nurlanishlarning spektrlari juda mukammal darajada o'rganib chiqildi. Tadqiqotlar molekulalar spektri aniq chegaraga ega bo'lmagan polosalardan tashkil topganligini ko'rsatdi. Spektrning bunday turi polosali spektrlar deb ataldi. Atomlarning spektri yakka tartibda joylashgan liniya (chiziq) lardan iborat bo'lib, chiziqli spektrni hosil etadi. Spektrdagi liniyalarning joylashish tartiri har bir atom uchun o'ziga xos bo'ladi. Shu bois spektrni o'rganib atomning qaysi elementga tegishli ekanligini bilib olish mumkin. Liniyalarning spektrda joylashishi aniq bir qonuniyatga bo'ysinadi. Chiziqli spektrlarni o'rganishda birinchilardan bo'lib Balmer empirik formula topib uni tushintirishga harakat qildi. Balmer 1885 yili vodorod atomi spektrini o'rganib, uning ko'rinish qismida ba'zi liniyalarni aniq qonuniyat bo'yicha umumiyashtirilishi va

$$\omega_{n2} = R \left(\frac{1}{2^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 3, 4, 5, \dots) \quad (70)$$

formula bilan ifodalanishi mumkinligini topdi. Bu yerda R - doimiy miqdor. Bu liniyalar to'plami Balmer seriyasi deb ataladigan bo'ldi. Xuddi shunga o'xshash Layman 1906 yili vodorod atomi spektrining ultrabinofsha qismida joylashgan va

$$\omega_{n1} = R \left(\frac{1}{1^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 2, 3, 4, \dots) \quad (71)$$

empirik formula bilan ifodalanadigan yana bir spektrlar seriyasini kashf etti. Bu seriya Layman seriyasi deb ataladi. Keyonchalik Pahsen seriyasi (1908), Breket seriyasi va Pfundt seriyalari kashf etildilar. Bu

seriyalarning hammasi yorug'lik spektrining infraqizil qismida joylashgan va mos ravishda

$$\omega_{n3} = R \left(\frac{1}{3^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 4, 5, 6, \dots), \quad (72)$$

$$\omega_{n4} = R \left(\frac{1}{4^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 5, 6, 7, \dots), \quad (73)$$

$$\omega_{n5} = R \left(\frac{1}{5^2} - \frac{1}{n^2} \right), (n = 6, 7, 8, \dots) \quad (74)$$

formulalar bilan ifodalanadilar. Yuqoridagi (70-74) formulalarni kuzatish atomning spektral seriyalaridagi har bir chastotani

$$T(n) = \frac{R}{n^2} \quad (75)$$

ko'rinishga ega bo'lgan ikki hadning ayirmasi shaklida yozish mumkin ekanligini payqash mumkin:

$$\omega_{nl} = T(l) - T(n). \quad (76)$$

$T(n)$, ($n = 1, 2, 3, \dots$) miqdor spektral term deb ataladi. Shu bois atomning nurlanishi spektral termlarga bog'liq deb ham aytish mumkin bo'ladi. *Atomning barcha nurlanishlari chastotasi spektral termlar kombinatsiyasi (76) shaklida ifodalanishi mumkin.* Bu printsipti *Rittsning kombinatsion printsipti* deb ataladi. Bu printsipti Ritts tomonidan 1908 yili talaffuz etilgan. Murakkab atomlarning spektrlarini o'rganish ularning nurlanish chastotalarini ham termlar ayirmasi shaklida yozish mumkin ekanligi aniqlandi. Ammo, bunda term hadi ancha murakkab turga ega bo'ladi. Masalan, ishqoriy metal atomlari termlari

$$T(n) = \frac{R_1}{(n + \alpha)^2} \quad (77)$$

bo'ladi, bunda R_1 va α biror doimiylardir. Kombinatsion printsipti barcha atomlarning nurlanish chastotasi termlar kombinatsiyasi shaklida yozish mumkin ekanligini takidlaydi. Atomlarning nurlanish spektrlari klassik fizika qonuniyatlari bilan tushuntirib bo'lmaydi. Klassik nuqtai nazardan moddiy jismlarning muvozanat holda turishi ham tushunarsiz! Tajribadan ma'lumki barcha moddiy jismlar manfiy va musbat zaryadlardan tashkil topgan bo'ladi. Bu zaryadlar juda kichik hajmda cheklangan. Irnshou teoremasiga muvofiq har xil ishorali zaryadlar sistemasida faqat dinamik muvozanat bo'lishi mumkin. Lekin cheklanga hajmda zaryadlar faqat tezlanish bilan harakatlanishi mumkin. Klassik elektrodinamika qonunlariga ko'ra tezlanish bilan harakatlangan zaryad elektromagnit to'lqin tarqatadi. To'lqin tarqatgan elektron energiyasi doimo kamayishi va u musbat

zaryadga urilib rekombinatsiya bo'lishi lozim. Bu degani atom bo'lishi mumkin emas deganidir. Agar atom energiyasining kamayishi biror boshqa energiya hisobidan to'ldirilib turadi deb faraz qilsak ham klassik qonunlar tajribani tushuntira olmaydi. Klassik qonunlarga binoan atonning nurlanish spektrlari chiziqli bo'lmay, balki karali obertonlardan (xuddi turg'un to'lqinlarga o'xshab) iborta bo'lishi kerak. Obertonlar orasi ham teng bo'lishi darkor. Tajribada esa spektrdagi liniyalar har xil joylashishi va bazi qismda ular orasi torayib ketib biror cheklangan chastotaga intilishini ko'rsatadi. Masalan vodorod atomining Balmer seriyasida chekli chastota $\omega_{\infty,2} = R/4$ bo'ladi. Umuman aytganda klassik fizika va xususan klassik elektrodinamikani atom hodisalariga qo'llab bo'lmaydi.

Atomning yadroviy modeli.

XX asr boshlariga kelib atomning real borliq ekanligi umuman iqrar etilgan edi. Manfiy zarra elektron kashf etilgan va musbat ionlar ham borligi kuzatilgan, ammo proton hali topilmagan edi. Shu bilan birga atom 10^{-8} sm o'lchamli murakkab sistema ekanligi ma'lum edi. Davr talabi endi atomning tuzulishini toish edi. Atomning neytralligi bois unga kiruvchi manfiy va musbat zaryadlar soni teng bo'lishi kerakligi ayon edi. Nazariy jihatdan atomning ikkita modeli o'sha davrda taklif etilgan bo'lib, biri Tomson modeli bo'lib u to'g'risida oldingi boblarda qisqacha aytib o'tgan edik. Shunga qaramay hozir ham eslatib o'tish lozim deb hisoblaymiz. Tomson modeliga binoan atom musbat zaryadlar bilan bir tekis to'ldirilgan shar bo'lib uning har joylarida manfiy zarra elektronlar osib qo'yilgan. Bu bilan atomning neytralligi erishiladi. Elektronning o'z muvozanati tevaragida tebranishi atomning nurlanishiga olib keladi. Atomning ikkinchi modeli Quoyosh sistemasining tuzulishini eslatadi. Unga ko'ra atom markazida musbat zaryadlangan yadro joylashgan bo'lib uning atrofida elektronlar harakatlanadi. Ikkala modelda ham elektron va musbar zaryadlar orasidagi asosiy ta'sirlashuvchi kuch Kulon kuchi hisoblanadi. Atomning real tuzulishini faqat tajriba aniqlab berardi. Tajribaning vazifasi atom ichidagi elektr zaryadining taqsimlanishini aniqlash edi. Bu muammoni echish uchun atomni zaryadlangan zarralar dastasi bilan bombardimon etib zarralarning sochilishini kuzatish, keyin esa bu sochilishni tahlil etib zaryad taqsimotini topsa bo'lardi. Shu masalani echishga birinchi marta ingliz fizigi Ernst Rezerford urinib ko'rdi va uning uddasida chiqdi. Uning fikricha nuqtaviy zaryadlar Kulon qonuni bilan ta'sirlashadi va shu sabab ularning birisining ikkinchisi Kulon maydonida sochilishini nazariy o'rganib chiqish lozim. Massasi m_1 va zaryadi Z_1e bo'lgan nuqtaviy zarraning massasi m_2 va zaryadi Z_2e bo'lgan boshqa zarra atrofidan v tezlik bilan o'tishini ko'rib chiqamiz. $m_2 \gg m_1$ deb faraz etamiz. Shu bois ikkinchi zarrani tinch turibdi deya olamiz. Mexanika kursidan ma'lum bo'lishicha markaziy kuch maydonida energiyadan tashqari impuls momenti ham saqlanadi:




FIG. 9: Zaryadlangan zarra traektoriyasini aniqlashga doir.




FIG. 10: Rezerford formulasini keltirib chiqarishga doir.

$$\frac{1}{2}m_1(\dot{r}^2 + r^2\dot{\varphi}^2) + \frac{Z_1Z_2e^2}{4\pi\epsilon_0 r} = E = \text{const}, \quad (78)$$

$$-m_1r^2\dot{\varphi} = L = \text{const} = m_1vb. \quad (79)$$

Bunda b merganlash masofasi yani ta'sirlashish kuchi bo'lmaganda zarralarning yaqinlashuvi mumkin bo'lgan eng qisqa masofadir. Yangi o'zgaruvchi miqdor $\rho = 1/r$ ni kiritamiz va

$$\dot{r} = \frac{dr}{dt} = \frac{dr}{d\varphi} \frac{d\varphi}{dt} = \frac{d}{d\varphi} \left(\frac{1}{\rho} \right) \frac{d\varphi}{dt} = \frac{L}{m_1} \frac{d\rho}{d\varphi} \quad (80)$$

ni etiborga olib (78) dan

$$\left(\frac{d\rho}{d\varphi} \right)^2 = -\frac{2m_1E}{L} - 2\frac{Z_1Z_2e^2m_1}{4\pi\epsilon_0 L^2} \rho - \rho^2 \quad (81)$$

topamiz. (81)- formuladan φ bo'yicha hosila olib ρ ni aniqlash uchun ikkinchi darajali differentsial tenglamani qo'lga kiritamiz:

$$\frac{d^2\rho}{d\varphi^2} + \rho = -\frac{Z_1Z_2e^2m_1}{4\pi\epsilon_0 L^2} = C. \quad (82)$$

Bu tenglamaning umumiy echimi

$$\rho = C + A \cos \varphi + B \sin \varphi \quad (83)$$

ko'rinishga ega. A va B doimiylar $\varphi \rightarrow \pi$ bo'lganda $r \rightarrow \infty$ va $r \sin \varphi \rightarrow b$ bo'lish shartidan aniqlanishi mumkin. Unda $A = B, B = 1/b$ va (83) tenglik

$$\frac{1}{r \sin \varphi} = C \cdot \text{ctg}(\varphi/2) + \frac{1}{b} \quad (84)$$

ko'rinishga keltiriladi. Oxirgi formulada $r \rightarrow \infty$ bo'lganda $\varphi \rightarrow \theta$ ekanligidan sochilish burchagini topamiz

$$\text{ctg} \frac{\theta}{2} = -\frac{1}{b \cdot C} = \frac{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2 b}{Z_1 Z_2 e^2}. \quad (85)$$

Tajribada zarraning faqat θ burchakka sochilishi natijasida merganlanish masofasi b ni o'lchash mumkin emas, shu sababli ko'p zarralar sochilishi va statistik usuldan foydalanishga to'g'ri keladi. Zarralarning θ va $\theta + d\theta$ burchaklar orasiga sochilishning differentsial ko'ndalang kesimi $d\sigma$ (15)- formulaga muvofiq berilgan burchakka sochilgan zarralar soni dN_θ ning zarralarning umumiy soni N ga nisbati bilan aniqlanadi:

$$d\sigma = \frac{dN_\theta}{N}. \quad (86)$$

θ va $\theta + d\theta$ burchaklar orasiga merganlanish masofasi b va $b + db$ oralig'ida bo'lgan zarralar sochiladi. Merganlanish masofasi b va $b + db$ oraliqiga mos keluvchi zarralar soni radiusi b , eni esa db bo'lgan halqaga tushuvchi zarralar soniga teng

$$dN_\theta = N \cdot 2\pi b db. \quad (87)$$

Differentsial ko'ndalang kesim

$$d\sigma = 2\pi b |db| = \pi \left(\frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{\text{ctg}(\theta/2)}{\sin^2(\theta/2)} d\theta \quad (88)$$

munosabat bilan aniqlanadi. Ko'ndalang kesimni hisoblashda b ning moduli olingan. Aks holda manfiy ifoda chiqib qoladi, ko'ndalang kesim esa musbat bo'lishi lozim. Manfiy ishora merganlanish masofasining ortishi bilan sochilish burchagi kamayishini anglatadi. Fazoviy burchak $d\Omega = 2\pi \sin \theta d\theta$ ni kiritib oxirgi formulani

$$d\sigma = \frac{1}{4} \left(\frac{Z_1 Z_2 e^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{\text{ctg}(\theta/2)}{\sin^2(\theta/2)} \quad (89)$$

deb yozsak bo'ladi. (89)- formula Rezerford formulasi deyiladi. Shu formula yordamida Rezerford o'z tajribasi yani α - zarralarning atomlarda sochilishini tahlil etdi. Rezerford tajribasida radioaktiv element atomlaridan uchib chiquvchi α - zarralarining atomda sochilishini o'rgandi. α - zarra geliy atomining yadrosi bo'lib zaryadi $2e$ va massasi to'rt proton massasiga teng. Shu bois $Z_1 = 2$ deb olamiz. Sochuvchi atomlar sifatida oltin elementi atomlari olingan. Ammo, oltin atomi massasi geliy atomi massasidan juda katta emas. Bu esa ikkinchi zarrani tinch turadi deb qarashimiz aniq emasligi ko'rsatadi. Ammo, biz uni rostdan ham tinch turadi deb va geliy atomi massasi o'rniga geliy va oltin atomlari massalarining keltirilgan qiymatini olsak bo'ladi. Tajribada geliy atomining sochilishi yakka akt natijasida bo'lishi uchun zarralar dastasi oldiga juda yupqa oltin plastinkasi qo'yilgan. Sochilgan zarralar maxsus qayid etuvchi tsintillyatorli mikroskop yordamida kuzatilgan va hisoblab turilgan. Agar sochuvchi atomlar kontsentratsiyasi n bo'lsa $d\Omega$ fazoviy burchakka sochilgan α -zarralar soni

$$dN^{(n)} = nN \left(\frac{Ze^2}{4\pi\epsilon_0 m_1 v^2} \right)^2 \frac{\cos(\theta/2)}{\sin^2(\theta/2)} \quad (90)$$

ga teng. Bu yerda Ze sochuvchi atom zaryadi. Agar $d\Omega = \text{const}$ bo'lib θ burchakka sochiluvchi zarralar soni qayd etiladigan bo'lsa (90) dan

$$dN_{(n)} \sin^4(\theta/2) = \text{const} \quad (91)$$

ekanligi kelib chiqadi. Rezerford tajribasida ham ay-

nan (91) shartning bajarilishi tekshirilgan. Tajribada (91) tenglikning chap tomonida turuvchi miqdorlar ming martadan ko'proq o'zgarganda ham ularning ko'paytmasi doimiy bo'lib qolishi aniqlanib Rezerford formulasi tasdiqlandi. Bu o'z navbatida Rezerfordning atom ta'limoti va zaryadlangan zarraning atomdan sochilish mexanizmi aynan Rezerford modeli bo'yicha ro'y berishini ko'rsatdi.

Shtern va Gerlax tajribasi.

IV. Kvant mexanikasi asoslari.

V. Tasvirlash nazariyasining asosiy tushunchalari.

VI. Vodorod va vodorodsimon atomlar.

VIII. Atomning mexanik va magnit momenti.

IX. G'alayonlanish nazariyasi.

X. Elektromagnit maydonning atom bilan ta'sirlashuvi.

XI. Ko'p elektronli atomlar.

XII. Molekulalar.

XIII. Qattiq jismlarning elektron xossalari.

XIV. Atom fizikasida relyativistik effektlar.

XV. Kvant mexanikasining kontseptual muammolari.

NURLANISH VA SPEKTRLAR

I. ATOMLAR VA MOLEKULALAR SPEKTRI

O'zaro ta'sirlashmaydigan atomlarning spektri alohida joylashgan chiziqlardan iborat bo'ladi. Shu sababdan ham atomning nurlanish spektri *chiziqli spektr* (ChS) deyiladi. Vodorod atomining spektri ChS ga oddiy misol bo'ladi. Boshqa element atomlarining spektrlari murakkab bo'ladi. Spektr chiziqlar tartibsiz joylashmay *seriyalarga* birlashgan bo'ladi. Molekulaning nurlanishi spektri *polasalar* ko'rinishga ega. Spektrdagi har bir polasa juda zich joylashgan chiziqlardan iborat bo'ladi. Shu sababdan molekular spektri *polosali spektr* deyiladi. Molekula energiyasi elektron energiya, tebranish energiyasi va aylanma harakat energiyalaridan tashkil topgani uchun spektrdagi polosalar elektron-tebranishlari polasi, tebranish-aylanish polasi va aylanma harakat polasi turlariga bo'linadi. Elektron-tebranish polasi nong bir cheti yoqqol chegaraga ega bo'lin u polosaning *kanti* deyiladi. Polosaning ikkinchi cheti esa aniq emas va yuvilgan bo'ladi. Polosaning kanti spektr chiziqlarining zichlashuvi natijasida hosil bo'ladi. Spektrning aylanma polasi va tebranma-aylanish polasida kant kuzatilmaydi. Biz faqat ikki atomli molekulaning aylanma polasini va tebranma-aylanma polasalarini ko'rib chiqamiz. O'tgan boblarda takkiqlaganimizdek asosiy holatda energiyaning barcha turlari minimal qiymatga ega bo'ladi. Molekula tashqi ta'sir natijasida etarlicha energiya olsa uyg'ongan holatga o'tadi va keyinchalik saralash qoidalari ruxsat etishiga ko'ra quyi energiyali holatlarning biriga nurlanish chiqarib o'tadi. Bu o'tishda energiya saqlanish qonuni quyidagicha yoziladi:

$$\hbar\omega = \Delta E_e + \Delta E_r + \Delta E_v = E'_e - E''_e + (v' + 1/2)\hbar\omega'_v - (v'' + 1/2)\hbar\omega''_v + \frac{\hbar^2 J'(J' + 1)}{2I'} - \frac{\hbar^2 J''(J'' + 1)}{2I''}. \quad (1)$$

Bu yerda $\Delta E_e \gg \Delta E_v \gg \Delta E_r$ munosabat bajarijadi. Kichik energiyalarda birinchi navbatda aylanma harakatga mos keluvchi holatlar uyg'onadi, keyinchalik tebranma va elektron holarlar uyg'onadi.

A. aylanish polosalari

Molekuladan chiqadigan foton energiyasi ikki aylanma holatlar orasidagi o'tishda minimal qiymatlarni qabul qiladi. Bunday foton energiyasi

$$\hbar\omega = \Delta E_r = \frac{\hbar^2 J'(J' + 1)}{2I'} - \frac{\hbar^2 J''(J'' + 1)}{2I''} \quad (2)$$

formuladan topiladi. J kvant soni uchun saralash qoidasi $\Delta J = \pm 1$. Aylanish energiyasi sathlari orasidagi o'tish natijasida hosil bo'lgan foton chastotasi




FIG. 1: Aylanish polosasining hosil bo'lishi chizmasi.

$$\begin{aligned} \omega &= \frac{\Delta E_r}{\hbar} = B[(J+1)(J+2) - J(J+1)] = \\ &= 2B(J+1) = \omega_1(J+1) \end{aligned} \quad (3)$$

qiymatlarni qabul qiladi. Bunda $J = 0, 1, 2, \dots$ va

$$B = \hbar/2I. \quad (4)$$

Aylanish polosasining hosil bo'lishi Fig.1 da ko'rsatilgan. Aylanish polasi chiziqlari bir xil chastota intervallarida joylashadi va spektrning olis ingraqizil qismiga tegishli bo'ladi.

Aylanish polasidagi spektr chiziqlari orasidagi interval $\Delta\omega = \omega_1$ ni o'lchab $B = \omega_1/2$ ni va keyinchalik molekula inertiya momentini topishimiz mumkin. Agar yadroning massasini ham bilsak, ikki atomli molekuladagi atomlar orasidagi muvozanatli masofa R_0 ni topishimiz mumkin. Tajribalarning ko'rsatishicha $\omega_1 \approx 10^{13} \text{ s}^{-1}$. Unda molekula inertiya momentiga $I \approx 10^{-47} \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ bo'ladi. HCl molekulasida uchun $I = 2.71 \cdot 10^{-47} \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ ga va $R_0 = 0.129 \text{ nm}$ teng ekanligi aniqlangan.

B. tebranish-aylanish polosalari

Agar molekulaning energiyasining o'zgarishi uning tebranishi va aylanishi evaziga bo'layotgan bo'lsa chiquvchi yoki yutiluvchi foton energiyasi

$$\begin{aligned} \hbar\omega &= \Delta E_r + \Delta E_v = \hbar\omega_v(v' + 1/2) - \hbar\omega_v(v'' + 1/2) + \\ &+ \frac{\hbar^2 J'(J' + 1)}{2I'} - \frac{\hbar^2 J''(J'' + 1)}{2I''} \end{aligned} \quad (5)$$

ga teng bo'ladi. Albatta bunda v va J kvant sonlar uchun o'zlarining saralash qoidalari bajarilishi shart. $\Delta E_r \ll \Delta E_v$ bo'lganligi uchun foton nurlanishi uchun




FIG. 2: Tebranish-aylanish polosasining hosil bo'lishi chizmasi.

$J' > J''$ shart bajarilishi shart emas. Yani foton $J' < J''$ o'tishda ham nurlanishi mumkin. $J' > J''$ bo'lgan holda foton chastotasi

$$\begin{aligned} \omega &= \omega_v + B[(J+1)(J+2) - J(J+1)] = \\ &= \omega_v + 2B(J+1) = \omega_v + 2Bk (k = 1, 2, 3, \dots) \end{aligned} \quad (6)$$

formula bilan aniqlanadi. Bunda J quyi sathning aylanish kvant soni va u 0, 1, 2, 3, ... qiymatlarni qabul etadi. $J' < J''$ bo'lgan holda esa foton chatotasi

$$\begin{aligned} \omega &= \omega_v + B[(J-1)J - J(J+1)] = \\ &= \omega_v - 2BJ = \omega_v - 2Bk (k = 1, 2, 3, \dots) \end{aligned} \quad (7)$$

formuladan topiladi. Bunda J quyi sathning aylanish kvant soni va u 1, 2, 3, ... qiymatlarni qabul etadi. Bu holda $J'' = J$ nol qiymatni qabul etishi mumkin emas, chunki bunaqada $J' = -1$ bo'lib qoladi. Ikkala hol formulalarini bitta umumiy qilib yozsak bo'ladi:

$$\omega = \omega_v \pm 2Bk = \omega_v \pm \omega_1 k, (k = 1, 2, 3, \dots) \quad (8)$$

(8) formula bilan aniqlanadigan chastotalar to'plami *tebranish-aylanish polosasi* deyiladi. Chastotaning tebranish qismi ω_v polosa joylashadigan spektr sohasini aniqlaydi. Chastotaning aylanish qismi $\pm \omega_1 k$ polosaning nozik strukturasini aniqlaydi yani spektr chiziqlarining bo'linishini ifodalaydi. Tebranish-aylanish polosasi odatda 800 nm dan 5000 nm gacha cho'ziladi. Fig.2 dan ko'rinib turganidek aylanish-tebranish chastotasi ω_v ga nisbatan simmetrik va ω_1 intervaldan joylashgan spektr chiziqlaridan iborat bo'ladi. Faqat polosa markazida interval ikki marta katta bo'ladi, chunki ω_v chiziq paydo bo'lmaydi.

Tebranish-aylanish polosadagi chiziqlar orasidagi interval molekula inertsia momenti bilan bog'liq. Shu sababli bu intervali o'lchab molekula inertsia momentini




FIG. 3: Ba'zi elementlarning XRN spektrlari.

topish mumkin. Shuni takidlab o'tish lozimki molekula spektrida teranish va tebranish-aylanish polosalar faqat molekula nosimmetrik bo'lgandagina kuzatiladi. Yani bu polosalarning kuzatilishi uchun molekula har xil atomlardan tashkil topgan bo'lishi kerak. Simmetrik molekulaning dipol momenti nolga teng bo'lganligi sabab tebranish va tebranish-aylanish sathlari orasida o'tish taqiqlanib qo'yiladi. Molekula spektrida elektron-tebranish polosasi simmetrik va nosimmetrik molekulalarda ham kuzatiladi.

II. RENTGEN SPEKTRLARI

Oldingi boblarda tormozlanish RN larini ko'rib chiqqan edik. Tormozlanish RN laridan tashqari yana bir turli RN bor. Bu RN *xarakteristik* RN (XRN) deyiladi. Agar antikatodga kelib uriluvchi elektronlarning energiyasi uncha katta bo'lmasa antikatod materialiga bog'liq bo'lmagan tormozlanish RN kuzatiladi. Elektron energiyasi antikatod materiali atomlarining ichki elektron qobiqlaridan elektronlarni urib chiqarishga etuvchi energiyaga etganida tormozlanish RN fonida XRN ning o'ta sezilarli chiziqlari kuzatila boshlaydi. XRN ning chastotasi antikatod materiali turiga bog'liq bo'ladi. Rentgen nurlanishi spektri sodda ko'rinishga ega bo'ladi. U K, L, M, N, O deb belgilanadigan bir nechta seriyalardan iborat bo'ladi. Har bir seriya o'z navbatida chastotalari ortishi bo'yicha $\alpha, \beta, \gamma, \dots$ ($K_\alpha, K_\beta, K_\gamma, \dots; L_\alpha, L_\beta, L_\gamma, \dots$ va h.) lar bilan belgilanadi. Har xil elementlarning rentgen spektrlari o'xshash bo'ladi, chunki XRN atomning quyi EQ lardagi elektronning o'tishlari natijasida hosil bo'ladi. Atom tartib raqami Z ortishi bilan spektrdagi chiziqlar spektrning qisqa to'lqin uzunliklari sohasiga siljiydi xolos (Fig.3).

XRN ning hosil bo'lish chizmasi Fig.4 da keltirilgan.

Quyi EQ larning biridan elektronning yuqori EQ larning biriga o'tishi natijasida atom uyg'onadi. Agar




FIG. 4: XRN spektridagi har xil seriyalarning hosil bo'lishi.

K EQ dan elektron urib chiqarilgan bo'lsa, uning o'rniga L, M, N yoki yuqorisagi EQ lardagi elektron foton chiqarib o'tishi mumkin. Bu foton XRN ning K seriyasiga tegishli hisoblanadi. Boshqa seriyalarning hosil bo'lishi ham shunga o'xshash. K seriyadan keyin boshqa seriyalar ham navbatma-navbat hosil bo'ladi, chunki bo'sh qolgan elektron o'rinlariga yuqoridagi sathlardan elektronlar o'ta boshlaydi. 1913 yili ingliz fizigi G.Mozli (1887-1915) XRN spektridagi chiziqlar chastotasi va RN ni chiqaruvchi elementning atomi tartib raqamini o'zaro bog'lovchi empirik formulani topdi. Unga ko'ra, XRN spektridagi $K_{\alpha}, K_{\beta}, L_{\alpha}$ va h. chiziqlar chastotalarini mos ravishda

$$\omega_{K_{\alpha}} = R(Z-1)^2 \left(\frac{1}{1^2} - \frac{1}{2^2} \right); \quad (9)$$

$$\omega_{K_{\beta}} = R(Z-1)^2 \left(\frac{1}{1^2} - \frac{1}{3^2} \right); \quad (10)$$

$$\omega_{L_{\alpha}} = R(Z-7.5)^2 \left(\frac{1}{2^2} - \frac{1}{3^2} \right); \quad (11)$$

va h.

formulalar orqali ifodalash mumkin ekan, bunda R Ridberg doimiysi. Yuqoridagi barcha formulalar

$$\omega = R(Z-\sigma)^2 \left(\frac{1}{n^2} - \frac{1}{m^2} \right); \quad (12)$$

strukturaga ega. Mozli qonunini umumiy etib

$$\sqrt{\omega} = C(Z-\sigma) \quad (13)$$

deb yozsak bo'ladi. Bu yerda C va σ har bir chiziq uchun o'ziga xos qiymat qabul etadigan doimiylar. Mozli




FIG. 5: XRN ning K_{α} va L_{α} chiziqlari chastotasi $\sqrt{\omega}$ ning atom tartib raqami Z ga bog'liqligi.

qonuni quyidagicha talaffuz etiladi: *XRN chastotasining ildiz ostidagi qiymati nurlanuvchi atom tartib raqamining chiziqli funktsiyasi*. Fig.5 da tajribada topilgan nuqtalar orqali chizilgan $\sqrt{\omega}$ ning Z funktsiyasi tasvirlangan.

Bu grafikka qarab Mozli qonunining to'g'ri bajarilishini tekshirish mumkin. Agar juda sinchiklab tekshirsak tajribada topilgan K_{α} seriyasi grafigi Mozli qonunidan ozgina chetlashihshini ko'ramiz. Mozli qonunini qo'llab tajribada topilgan RN to'lqin uzunligi orqali atomning Z zaryadini topish mumkin. Mozli qonuni elementlarni davriy sistemada joylashtirishda katta ahamiyat kasb etgan. Mozli o'zi topgan qonunni oddiygina qilib quyidagicha tushuntirgan: u (12) formula bilan aniqlanadigan chastota elektronning $Z - \sigma$ zaryad atrofidagi m - energetik sathdan n - energetik sathga o'tishida chiqaradigan nurlanish chastotasiga o'xshash ekanligini payqadi. Formuladagi σ o'tishda qatnashayotgan elektronga ta'sir etuvchi yadro maydoni ekranlangan ekanligini ifodalaydi yani elektron ekranlangan maydonda o'tish bajaradi. Ekranlanish darajasi har bir elektronga har xil bo'ladi. K EQ dai elektronga kamroq ekranlangan maydon, L EQ dagi elektronga esa kuchliroq ekranlangan maydon ta'sir etadi. Shu sabab Mosli qonunini

$$\omega = R \left[\frac{(Z-\sigma_n)^2}{n^2} - \frac{(Z-\sigma_m)^2}{m^2} \right] \quad (14)$$

deb yozish maqsadga muvofiq.

III. YORUG'LIKNING KOMBINATSION SOCHILISHI

1928 yili L.I.Mandelstam va G.S.Landsberg (1890-1957) va ulardan mustaqil ravishda hind fiziklari Ch.V.Raman (1888-1970) va R.S.Krishnan (1911-)

yorug'likning gazlar, shuyuqliklar va shaffof kristal moddalardan o'tishini o'rganayotib keyinchalik *kombinatsion sochilish* (KS) deb nom olgan hodisani kashf etdilar. KS da sochilgan yorug'likda dastlabki yorug'lik chastotasidan tashqari (siljimagan chastota) tushuvchi chastota ω_0 va muhit molekularining tebranishlar chastotasi ω_i yoki aylanish chastotalarining kombinatsiyasidan tashkil topgan chastotalar ham kuzatiladi:

$$\omega = \omega_0 \pm \omega_i. \quad (15)$$

Sochilgan yorug'lik spektrida siljimagan chastota ω_0 ga simmetrik joylashgan uning yo'ldoshlari bo'ladi. Agar yo'ldosh chastotasi kichik chastota tomonga siljigan bo'lga u "qizil" yo'ldosh aks holda "binafsha" yo'ldosh deyiladi. Oddiy haroratlarda "binafsha" yo'ldoshlarning intensivligi "qizil" yo'ldoshlarning intensivligidan ancha kichik bo'ladi. Ammo harorat ortishi bilan "binafsha" yo'ldoshlarning intensivligi orta boradi. Sochilishning kvant nazariyasiga ko'ra KS ni fotonlarning molekular bilan noelastik to'qnashuvi deb qarashimiz darkor. Fotonning molekula bilan to'qnashishida molekula sathlari farqiga teng energiya olishi yoki berishi mumkin. Agar to'qnashish natijasida foton molekulaga energiya berib uni E' holatdan E'' holatga o'tkazsa, foton energiyasi $\hbar\omega_0 - \Delta E$ bo'ladi, bunda $\Delta E = E_m - E_n$. Natijada foton chastotasi $\omega_1 = \Delta E/\hbar$ ga kamayib sochilgan yorug'lik spektrida "qizil" yo'ldosh hosil bo'ladi. Fotonning molekula bilan to'qnashishida molekula E'' energetik holatda bo'lishi mumkin. Bu holda molekula fotonga energiya bersa, foton energiyasi $\Delta E = E'' - E'$ ga ortadi. Natijada sochilgan yoqug'lik spektrida "binafsha" yo'ldosh hosil bo'ladi. Molekulaning energetik sathlari ko'p bo'lgani uchun yo'ldoshlar soni ham ancha bo'ladi. Oddiy sharoitlarda asosiy holatdagi molekular soni g'alayonlangan holatdagi molekular sonidan ancha ko'p bo'lgani. Shu sabab fotonlarning ko'pchiligi to'qnashish natijasida o'z energiyasini kamaytiradi va oqibatda "qizil" yo'ldoshlar intensivligi "binafsha" yo'ldoshlar intensivligidan katta bo'lganligi kuzatiladi. Katta haroratlarda g'alayonlangan holatda bo'lgan molekular soni ortadi, natijada "binafsha" yo'ldoshlarning ham intensivligi ortadi. KS ning tahlili bo'yicha molekulaning tuzulishi haqida qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin: KS usulidan foydalanib molekulaning xususiy tebranishlari chastotasini aniqlash mumkin; molekulaning simmetriyasi haqida bilib olish mumkin. Har bir molekulaning KS ning spektri o'ziga xos. Shu sabab murakkab tarkibdagi gaz va molekularning KS spektriga qarab uning tarkibi va strukturasi o'rganish mumkin. Kimiyoviy usullar bilan bunday ishlarni bajarish juda qiyin kechadi yoki umuman mumkin emas.

IV. MAJBURIY NURLANISH

Shu paytgacha biz elektronning energetik holatlar orasida faqat ikki turli o'tishlarini ko'rib chiqdik. Biri spontan o'tish (SO't) bo'lsa, ikkinchisi majburiy o'tish (MO't) edi. SO't da elektron yuqori energetik holatdan (EH) dan quyi EH ga o'tadi, MO't da esa elektron tashqi nurlanish ta'sirida quyi EH dan yuqori EH ga o'tadi. Birinchi jarayon natijasida atom spontan tarzda foton nurlantiradi, ikkinchisida esa foton yutadi. 1916 yili A.Einshtein modda va nurlanish orasidagi termodinamik muvozanatni yuqorida aytib o'tilgan elektronning energetik sathlar orasidagi faqat ikki xil o'tishlari bilan tushuntirib bo'lmasligiga hammaning e'tiborini qaratdi. Rostdan ham, SO't ehtimoli faqat atomning ichki xossalriga bog'liq bo'lib, tashqi nurlanish intensivligiga bog'liq emas. MO't ehtimoli esa atomning ichki xossalriga va tashqi nurlanish intensivligiga bog'liq bo'ladi. Nurlanish ixtiyoriy intensivligida modda bilan muvozanatda bo'lishi uchun nurlanish intensivligi ortishi bilan o'tish ehtimoli ham ortadigan nurlanish chiqaruvchi o'tish bo'ishi lozim ekan. Bu o'tish tashqi nurlanish ta'sirida sodir bo'ladi va uning natijasida hosil bo'lgan nurlanish majburiy nurlanish (MN) deyiladi. MN muhim xossalarga ega. Uning tarqalish yo'nalishi, chastotasi, fazasi va qutblanish uni keltirib chiqargan tashqi nurlanish yo'nalishi, chastotasi, fazasi va qutblanishi bilan bir xil bo'ladi. Shu sababli majburlovchi va MN o'zaro kogerent bo'ladi. Yorug'lik kuchaytgichlari va generatorlari ishlashi MN ning aynan shu xassasiga asoslangan. Detallashgan muvozanat printsipligiga (DMP) ko'ra muvozanatli termodinamik sistemada har bir jarayonga teskari jarayon mavjud bo'lib, ularning ehtimoli teng. DMP ga asoslanib Einshtein quyidagi postulatni taklif etdi: *nurlanish chiqishi bilan yakunlanadigan MO't lar ehtimoli nurlanish yutilishi bilan tugaydigan MO't lar ehtimoliga teng*. Yani MO't lar teng ehtimollik bilan bir biriga teskari yo'nalishlarda sodir bo'lishi mumkin ekan. E_n EH dan E_m EH ga vaqt birligida MO't ehtimoli P_{nm} bo'lsin. Xuddi shu EH lar orasida teskari MO't ehtimoli P_{mn} bo'ladi. Bu ikkala o'tishda kuzatiladigan nurlanish intensivligi bir xil bo'lsa $P_{nm} = P_{mn}$ tenglik o'rinlanadi. MO't ehtimoli majburlovchi ω chastotali NESZ ga tog'ri proporsional bo'ladi. Proporsionallik koeffitsientini B_{nm} deb belgilab

$$P_{nm} = B_{nm}u_\omega, P_{mn} = B_{mn}u_\omega, \quad (16)$$

deb yozamiz. B_{mn} va B_{nm} miqdorlar Einstein koeffitsientlari deb ataladi. $P_{nm} = P_{mn}$ tenglikdan $B_{nm} = B_{mn}$ tenglik kelib chiqadi. $n \rightarrow m$ va $m \rightarrow n$ o'tishlarning muvozanatidan foydalanib Einstein osongina Plank formulasini keltirib chiqardi. Termodinamik muvozanat holatida n EH dan m EH ga o'tuvchi atomlar soni N_{nm} , teskari yo'nalishda o'tuvchi atomlar soni N_{mn} ga teng bo'lishi kerak. Agar $E_n > E_m$ bo'lsa, $m \rightarrow n$ o'tishlar faqat tashqi nurlanish yutilishi natijasida sodir bo'ladi, $n \rightarrow m$ o'tishlar esa majburiy va

spontan o'tishlar bo'lishi mumkin. U holda

$$N_{mn} = N_{mn}^{maj}, N_{nm} = N_{nm}^{maj} + N_{nm}^{sp}. \quad (17)$$

Muvozanat shartiga ko'ra

$$N_{mn}^{maj} = N_{nm}^{maj} + N_{nm}^{sp}. \quad (18)$$

(16) ga binoan

$$N_{mn}^{maj} = P_{mn}N_m = B_{mn}u_\omega N_m \quad (19)$$

$$N_{nm}^{maj} = P_{nm}N_n = B_{nm}u_\omega N_n \quad (20)$$

Bu yerda N_n va N_m mos ravishda n va m EH da bo'lgan atomlar soni. n EH dan m EH ga vaqt birligida spontan o'tish ehtimoli A_{nm} bo'lsin. U holda vaqt birligida n EH dan m EH ga spontan o'tuvchi atomlar soni

$$N_{nm}^{sp} = A_{nm}N_n. \quad (21)$$

(19),(20) va (21) larni (18) ga qo'yib

$$B_{mn}u_\omega N_m = B_{nm}u_\omega N_n + A_{nm}N_n \quad (22)$$

topamiz. Bu tenglikdan topiladigan u_ω modda bilan muvozanatda bo'lgan NESZ $u(\omega, T)$ hisoblanadi. (22) dan

$$u(\omega, T) = \frac{A_{nm}N_n}{B_{mn}N_m - B_{nm}N_n} = \frac{A_{nm}}{B_{nm}} \frac{1}{N_m/N_n - 1}. \quad (23)$$

Muvozanat holatida atomlarning energetik holatlar bo'yicha taqsimoti Boltsman formulasi bilan aniqlanadi:

$$\frac{N_m}{N_n} = \exp\left(\frac{E_n - E_m}{kT}\right) = \exp\left(\frac{\hbar\omega}{kT}\right). \quad (24)$$

U holda

$$u(\omega, T) = \frac{A_{nm}}{B_{nm}} \frac{1}{\exp(\hbar\omega/kT) - 1}. \quad (25)$$

A_{nm}/B_{nm} nisbatni topish uchun Einstein (25) formula kichik chastotalarda Reley-Jins formulasiga o'tishidan foydalandi. Yani $\hbar\omega \ll kT$ larda $\exp(\hbar\omega/kT) \approx 1 + \hbar\omega/kT$ deb olish mumkin. Natijada

$$\frac{A_{nm}}{B_{nm}} = \frac{\hbar\omega^3}{\pi^2 c^3}. \quad (26)$$

(26) ni (25) ga qo'yish orqali Plank formulasini topishimiz mumkin.

V. LAZERLAR

XX asrning 50- yillariga kelib nurlanish biror muhitdan o'tganda uning intensivligi Einshtein kashf etgan MN hodisasi asosida oshadigan asbob yoki qurilmalar yaratildi. 1953 yili N.G.Basov va A.M.Proxorovlar ta'monidan va ulardan mustaqil tarzda Ch.X.Tauns birinchi molekulyar generatorni yaratdilar. Bu molekulyar generatorlar samtimetr uzunlikdagi to'liqlar sohasida ishlardi va *mazer* deb nom olishdi. Olimlarning bu yabgiliklari uchun 1964 yili uchalasi ham Nobel mukofati bilan taqdirlandi. *Mazer* so'zi inglizcha *Microwave Amplification by Stimulated Emission of Radiation* (mikroto'liqlarni majburiy nurlanish yordamida kuchaytirish) so'zlar birikmasidan qisqartirib olinganidir. T.G.Meyman 1960 yili nurlanish intensivligini optik sohada ham kuchaytiradigan asbob ishladi, bu asbob *Lazer* deb nomlandi. *Lazer* so'zi inglizcha *Light Amplification by Stimulated Emission of Radiation* (yorug'likni majburiy nurlanish yordamida kuchaytirish) so'zlar birikmasidan qisqartirib olinganidir. Lazerlarni ko'pincha *optik kvant generator* (OKG) lari deb ham atashadi. O'tgan bo'limda ko'rib chiqqanimizdek moddaga uning atomlarning energetik sathlari bilan chastotasi $\omega = (E_n - E_m)/\hbar$ ($E_n > E_m$) ga teng bo'lgan nurlanish ta'sir etganda ikki xil hodisa kuzatilishi mumkin:

1. $m \rightarrow n$ majburiy nurlanish

2. $n \rightarrow m$ majburiy nurlanish

Birinchi hodisada nurlanish yutuladi va uning natijasida moddaga tushuvchi nurlanish intensivligi kamayadi, ikkinchi hodisa natijasida esa moddaga tushuvchi nurlanish intensivligi ortadi. Umuman olganda, nurlanish intensivligining qanday bo'lishi bu ikki hodisalarning qaysi birining sodir bo'lish ehtimoli katta bo'lishiga bog'liq. Termodinamik muvozanat holatida atomlarning energetik holatlar bo'yicha taqsimlanishi Boltsman qonuni bilan aniqlanadi:

$$N_i = \frac{N \exp(-E_i/kT)}{\sum_i \exp(-E_i/kT)} = C \exp(-E_i/kT), \quad (27)$$

bu yerda N - atomlarning umumiy soni, N_i - modda harorati T bo'lganda energiyasi E_i ga teng atomlar soni (energetik holatlar aynimagan deb hisoblaymiz). Bu formuladan katta energiyaga ega holatlarda bo'luvchi atomlarning nisbiy soni kam bo'lishi ko'rinib turibdi. Ikki EH orasidagi o'tish ehtimoli dastlabki EH dagi atomlar soniga to'g'ri proporsional bo'ladi. Shu sababli termodinamik muvozanat holatda moddaga tushuvchi nurlanishning yutulishi kuzatiladi yani $m \rightarrow n$ o'tishlar soni ko'p bo'ladi. Natijada moddadan o'tgan nurlanish intensivligi kamayadi. Moddadan o'tgan nurlanishning intensivligi oshishi uchun modda atomlarining EH lar bo'yicha taqsimlanishini shunday holga keltirish kerakki,




FIG. 6: Yoqut asosidagi lazer chizmasi.

unda yuqori EH lardagi atomlar soni quyi EH lardagi atomlar sonidan ko'p bo'lishi lozim. Modda atomlarining EH lar bo'yicha bunday taqsimlanishi *holatlarning invers to'ldirilishi* deb ataladi. Nurlanish intensivligining biror muhitdan o'tishida kamayishi

$$I = I_0 e^{-\alpha l} \quad (28)$$

bilan beriladi. EH lari invers to'ldirilgan moddaga nurlanish tushganda atomlarning MN ehtimoli ularning

nurlanish yutishi ehtimolidan katta bo'ladi. Natijada, bu muhitdan otgan nurlanish intensivligi ortadi. Nurlanish intensivligining ortishini (28) formula yordamida moddaning nurlanish yutishi koeffitsienti manfiy deb qabul qilib tushuntirish mumkin $\alpha < 0$. Yani atomlarining EH lari invers to'ldirilgan muhitning nurlanish yutish koeffitsienti manfiy bo'larkan. Lazer moddaning EH larini invers to'ldirilishini taminlovchi usullar ishlab chiqilgan dan keyin yaratildi.

Meymer tomonidan yaratilgan birinchi lazerda ishchi modda sifatida silindrsimon *yoqut kristali* ishlatilgan. Sterjen diametri $\approx 1\text{sm}$, uzunligi $\approx 5\text{sm}$ ni tashkil etgan. Silindrning asoslari polirovka qilingan va bir biriga nisbatan parallel ko'zgularni tashkil etishgan. Silindrning bir asosi yorug'likni to'liq qaytarish uchun alyuminiy Al ning yupqa qatlami bilan qoplangan, ikkinchi asosi esa tushgan yorug'likning faqat 8% o'tkazadigan qilib Al qatlami bilan qoplangan bo'lgan. Yoqut moddasi tarkiriga xrom Cr atomlari kiritilgan alyuminiy oksidi Al_2O_3 hisoblanadi. Bunda xrom atomlari alyuminiy atomlarini almashtiradi. Yorug'likning yutilishida yoqut moddasidagi xrom atomlari Cr^{3+} uyg'ongan holatga (UH) o'tadilar. Asosiy holatga (AH) qaytish ikki bosqichda sodir bo'ladi. Birinchi bosqichda xrom ioni uyg'onish energiyasining bir qismini kristal panjaraga beradi va o'zi metastabil holatga (MH) o'tadi. MH dan AH ga to'gridan to'g'ri o'tish *saralash qoidasi* ga ko'ra qisman taqiqlangan. Shu sabab MH da xrom atomining *yashash vaqti* 10^{-3}s yani oddiy UH dagi yashash vaqti-

dan 10^5 marta ko'p bo'ladi. Ikkinchi bosqichda xrom ioni $\lambda = 694,3\text{nm}$ to'liq uzunlikka ega foton nurlantirib AH ga qaytadi. Xuddi shunday to'liq uzunligiga ega foton ta'sirida, xrom ionlarining MH dan AH ga o'tish tezligi juda yuqori bo'ladi yani majburiy nurlanish kechadi.

Lazerda yoqut impulsli tarzda ishlaydiga ksenon lampasi bilan yoritiladi (FIG.6). Ksenon lampasi nurlanishining spektri juda keng bo'lib keng chastotalarni qamrab oladi. Lampaning quvvati etarli darajada bo'lganda xrom ionlarining ko'pchiligi UH ga o'tadilar. Ishchi modda atomlariga energiya berib uning atomlarini UH ga o'tirish jarayoni *nakachka* deb ataladi (FIG. 7). FIG. 7 da tasvirlanga Cr^{3+} ionining 3 EH bir biriga juda yaqin joylashgan ko'p sonli EH lardan iborat. Nakachka W_{13} jarayoni bilan tasvirlangan. 3- EH da xrom ionining yashash vaqti juda oz $\approx 10^{-3}\text{s}$. Bu vaqt ichida xrom ionlarining oz qismi SO't orqali AH ga qaytadi A_{31} . Ammo ko'pchilik xrom ionlari MH ga o'tadilar S_{32} . Yani MH ga o'tish ehtimoli AH o'tish ehtimolidan ancha katta bo'ladi. Nakachkaning etarli quvvatida 2 EH da bo'luvchi




FIG. 7: Xrom ionining energetik sathlari chizmasi.

xrom ionlari soni 1- EH dagi xrom ionlari sonidan katta bo'ladi va natijada *holatlarning invers to'ldirilishi* paydo bo'ladi. 2- MH dan AH ga SO't ham bo'lishi mumkin A_{21} va uning fotoni o'z navbatida MO't natijasida hosil bo'lgan qo'shimcha fotonlarni yuzaga keltiradi va hakoza. Natijada fotonlar oqimi vujudga keladi. MO't jarayonida hosil bo'lgan fotonlar uni paydo qiluvchi foton harakati yo'nalishida harakatlanadi. Silindr o'qi bilan kichik burchak hosil qilgan fotonlar silindr asoslaridan

ko'p marta qaytadilar, shu sabab ularning yo'li juda katta bo'ladi va fotonlar oqimi silindr o'qi bo'yicha juda katta bo'ladi. Boshqa yo'nalishlarda chiqqan fotonlar yoqut silindri yon sirtidan chiqib ketadilar. Yoqutdam yasalgan lazerlar impuls rejimida ishlaydi va odatda minutiga bir nechta impuls beradi. Ishchi moddasi gaz bo'lgan birinchi lazerni 1961 yili amerikada yashovchi (1948 yildan), asli kelib chiqishi Eronlik bo'lgan, Ali Javan (1926 yili Tehronda tug'ilgan) yaratdi. Uning ishchi moddasi geliy va neon gazlarining aralashmasi edi. 1963 yilga kelib yarimo'tkazgichli moddalarda ishlovchi lazerlar yaratildi. Hozirgi vaqtda lazer ishchi moddalari juda ko'p va ular gaz, suyuqlik va qattiq jism hamdir. Lazerlar impulsli va uzluksiz ishlashi mumkin. Lazer nurlanishi ajoyib xossalarga ega:

1. yuqori darajada monoxromatik $\Delta\lambda \sim 0,01nm$;
2. juda yuqori fazoviy va vaqt kogerentliigi;
3. katta intensivlik;
4. oqim dastasining juda ingichkaligi.

Lazer yorug'ligi dastasining burchak kengligi shunday darajada kichikki, uning yordamida Oyni diametri 3km bo'lgan soha bilan yoritish mumkin. Lazer nurini linza yordamida bir fokusga yig'ish natijasida shunday energiya oqimi zichligiga erishish mumkinki, u Quyosh nurlari bir fokusga yig'ilgandagi energiya oqimi zichligidan 1000 marta katta bo'ladi.

GLOSSARIY

Atom - moddani tashkil etib, uning fizikaviy xossalarini tavsiflovchi eng kichik zarra. Atom so'zi qadimgi yunon (grek) tilidan olingan bo'lib, lug'aviy ma'mosi bo'linmas deganidir.

Absolyut qora jism – o'zga tushuvchi nurlanishni to'raligicha yutadigan jism.

Kvant - bu o'zaro ta'sirlashuvda namoyon bo'ladigan materiya (energiya) ning minimal miqdori.

Rentgen nurlanish - to'lqin uzunligi 10^{-12} ÷ 10^{-9} metr sohaga mos tushadigan elektromagnit to'lqin.

Shredinger tenglamasi – mikrozarra va ulardan tashkil topgan kvant tizimlarning harakatini tavsiflovchi tenglama.

Operator – biror funktsiyaga ta'sir etib uni boshqa funktsiyaga o'tkazuvchi amal.

Kompleks qo'shma operator – operatoridan kompleks qo'shma olib topilgan operator.

Ermit qo'shma operator – operatoridan kompleks qo'shma olib va “transpon” amali bajarilib topilgan operator.

Tunnel effekt – zarraning klassik fizika qonunlariga zid o'laroq potentsial to'siqdan, o'sha to'siq ustidan o'shib o'tmasdan, o'tishi

Issiqlik nurlanish – jismning faqat ichki energiyasi hisobiga chiqadigan nurlanish.

Ultrabinafsha halokat - absolyut qora jismning nurlanuvchanlik qobiliyatining katta chastotalarda cheksizlikka intilishi. Natijda issiqlik nurlanishining spektr zichligi ham cheksiz degan no'to'g'ri xulosa kelib chiqadi.

Mikrozarra – chiziqli o'lchamlari 0.1 mkm dan 100 mkm oraliqda bo'lgan zarra.

Nurlanuvchanlik qobiliyat - jismning birlik sirtidan birlik vaqtda va birlik to'lqin uzunligi (chastotasi intervali) ga to'g'ri keluvchi chiquvchi nurlanish energiyasini tavsiflaydi.

Nur yutuvnuvchanlik qobiliyat - jismning birlik sirtida birlik vaqtda va birlik to'lqin uzunligi (chastotasi intervali) ga to'g'ri keluvchi nurlanish energiyasi yutishini tavsiflaydi.

Fotoeffekt – nurlanish ta'sirida modda sirtida elektronning chiqishi

Kompton effekt – rentgen nurlanishining ekin elektronlarda sochilishi va bunda uning energiyasining kamayishi

To'lqin-zarra dualizmi - materiyaning bir vaqtda zarra va to'lqin (maydon) tabiatga ega, yani materiyada ikki (daul) xil tabiat namoyon deguvchi ta'limot.

To'lqin funktsiya – kvant tizimning holatini to'liq tavsiflaydigan funktsiya

Pauli printsiipi – fermion zarralarining bitta kvant holatda ikkitasi bo'lishini taqiqlovchi qoida.

Краткий Глоссарий по предмету «Теоретическая физика» (Электродинамика)

Атом - это самая маленькая частица, которая составляет материю и описывает ее физические свойства. Слово «атом» происходит от древнегреческого (греческого) языка, что буквально означает неделимый.

Абсолютно черное тело - это объект, который полностью поглощает падающее на его поверхность излучение.

Рентгеновское излучение – электромагнитные волны с длинами волн в интервале $10^{-12} \div 10^{-9}$ м.

Уравнение Шредингера - это уравнение, которое описывает движение микрочастиц и квантовых систем, состоящих из них.

Оператор - это действие, которое действует на функцию и переводит ее в другую функцию.

Комплексно сопряженный оператор – оператор найденный комплексным сопряжением данного оператора.

Эрмитова сопряженный (самосопряженный) оператор - оператор найденный комплексным сопряжением и транспонированием данного оператора.

Туннельный эффект (туннелирование) – прохождение частицы (или системы) сквозь область пространства, пребывание в которой запрещено классической механикой.

Тепловое излучение - электромагнитное излучение, испускаемое телами за счёт их внутренней энергии.

Ультрафиолетовая катастрофа — парадокс классической физики, состоящий в том, что полная мощность теплового излучения любого нагретого тела, согласно закону Рэлея — Джинса, должна быть бесконечной.

Микрочастица – частица линейный размер, которой лежит в интервале от 0,1 до 100 мкм.

Излучательная способность – энергия излучения, испускаемого с единичной поверхности объекта в единицу времени и на единицу длины волны (частотный диапазон).

Поглощательная способность - это способность объекта поглощать лучистую энергию в единицу времени и на единицу длины волны (частотный диапазон) на единичной поверхности.

Фотоэффект или фотоэлектрический эффект — явление взаимодействия света или любого другого электромагнитного излучения с веществом, при котором энергия фотонов передаётся электронам вещества.

Эффект Комптона – рассеяние электромагнитного излучения на свободном электроне, сопровождающееся уменьшением частоты излучения (открыт А. Комптоном в 1923 г.).

Корпускулярно-волновой дуализм (или квантово-волновой дуализм) — свойство природы, состоящее в том, что материальные микроскопические объекты могут при одних условиях проявлять свойства классических волн, а при других — свойства классических частиц.

Волновая функция, или **пси-функция**— комплекснозначная функция, используемая в квантовой механике для описания чистого состояния системы.

Принцип Паули (принцип запрета) — один из фундаментальных принципов квантовой механики, согласно которому два и более тождественных фермиона (частицы с полуцелым спином) не могут одновременно находиться в одном и том же квантовом состоянии.

A brief Glossary on the subject “Theoretical physics” (Electrodynamics)

An atom - is the smallest particle that makes up matter and describes its physical properties. The word "atom" comes from the ancient Greek (Greek) language, which literally means indivisible.

An absolutely black - body is an object that completely absorbs radiation incident on its surface.

Quantum - In physics, a quantum (plural quanta) is the minimum amount of any physical entity (physical property) involved in an interaction.

Roentgen (X-ray) radiation – is the electromagnetic waves with wavelengths in the interval $10^{-12} \div 10^{-9}$ m.

The Schrödinger equation - is an equation that describes the motion of microparticles and quantum systems made up of them.

An operator - is an action that affects a function and transfers it to another function.

Complex conjugate operator – it an operator that obtained by taking of complex adjoint from a given operator

Quantum tunnelling or tunneling - is the quantum mechanical phenomenon where a subatomic particle's probability disappears from one side of a potential barrier and appears on the other side without any probability current appearing inside the well.

Thermal radiation - is electromagnetic radiation generated by the thermal motion of particles in matter.

The ultraviolet catastrophe, also called the Rayleigh–Jeans catastrophe, was the prediction of late 19th century/early 20th century classical physics that an ideal black body at thermal equilibrium will emit radiation in all frequency ranges, emitting more energy as the frequency increases.

Microparticle – is a particle linear dimensions of which lies on the range from 0.1 mkm till 100 mkm.

Emissivity - is the energy of radiation emitted from a unit surface of an object per unit of time and per unit of wavelength (frequency range).

Light absorption capacity - is the ability of an object to absorb radiant energy per unit time and per unit wavelength (frequency range) on a unit surface.

The photoelectric effect - is the emission of electrons when electromagnetic radiation, such as light, hits a material.

Compton scattering, discovered by Arthur Holly Compton, - is the scattering of a photon by a charged particle, usually an electron.

Wave–particle duality - is the concept in quantum mechanics that every particle or quantum entity may be described as either a particle or a wave.

A wave function in quantum physics - is a mathematical description of the quantum state of an isolated quantum system.

The Pauli exclusion principle - is the quantum mechanical principle which states that two or more identical fermions cannot occupy the same quantum state within a quantum system simultaneously

BYNDPI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIJ VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIK UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: BD-5110200-2.06

2018 - yil 18.08

NAZARIY FIZIKA

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5110200 - Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi

Toshkent - 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil "18" 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil "25" 08 dagi 744 -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

M. Djorayev – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası professori, ped.f.d., professor
T. Muratov – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası katta o'qituvchisi
E. Xo'janov – TDPU «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

I.Kokanbaev – Qo'qon DPI «Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi» kafedrası dotsenti, f.-m.f.n.

D.T.Kuletov – Toshkent Turizm kasb-hunar kolleji fizika va astronomiya o'qituvchisi

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018 - yil 06 dagi 11 -sonli bayonnomasi).

Ўғриганда. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон, 70-модда)

15. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, Т.: Ўзбекистон. 2014. -46 б.
16. И.В. Мещерский. Сборник задач по теоретической механике. М.: Наука. 1992 г.
17. Umumiy fizika kursidan masalalar to'plami. M.S.Sedrik tahriri ostida Toshkent.: O'qituvchi. 1992 y.
18. Tursunov S., Kamolov J. "Elektr va magnitizm", T.: O'qituvchi, 1996 y.
19. В.В. Мултановский, А.С. Васильевский. Электродинамика. М.: Просвещение, 1998 г.
20. О. Qodirov, А. Boydedaev. Kvant fizika. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2005y.
21. Е.М. Гершензон и др. Курс общей физики. Оптика и атомная физика. М.: "Просвещение", 1997 г.
22. Е. Rasulov. U Begimqulov Kvant fizikasi. 1-tom., Т. "Fan va texnologiya", 2009 y.
23. Е. Rasulov. U. Begimqulov Kvant fizikasi. 2- tom Т.: "Fan va texnologiya", 2009 y.
24. Л.Д. Ландау и Е.М. Лифшиц. Статистическая физика. М.: Наука. 1999 г.
25. И.В. Савельев. Основы теоретической физики. Том 1. М.: Наука. 1992 г.
26. В. Шпольский. Атомная физика. В двух томах. Москва.: Наука. 1992 г.
27. К. Н. Мухин. Экспериментальная ядерная физика. В двух томах. Москва.: 1998 г.
28. А. И. Наумов. Физика атомного ядра и элементарных частиц. Москва.: 2000 г.
29. Paul Peter Urone, Roger Hinric "College Physics" Californiya 2002

Internet saytlari

30. www.tdpu.uz
31. www.pedagog.uz
32. www.ziyounet.uz
33. www.edu.uz

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Nazariy fizika fani klassik mexanika, elektrodinamika, kvant mexanika, statistik fizika va termodinamika bo'limlarini o'z ichiga oladi. Ushbu fan 5110200 - fizika va astronomiya o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga nazariy fizika kursi sifatida o'qitiladi.

Nazariy fizika fani fizikaning barcha bo'limlari, oliy matematikaning differentsial va integral hisobi, ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, astoronomiya va astrofizika, tabiiy-ilmiy va boshqa fanlar bilan uzviy bog'langan.

Nazariy fizikani o'zlashtirgan talaba makro va mikro dunyodagi moddalarning tuzilishi, ularning tashkil etuvchilarning xususiyatlarini, ulardagi turli jarayonlarning o'tish modellari va nazariyalari haqidagi qonuniyatlarini o'rganadi, yangi axborot texnologiyalarini qo'llab, olgan bilimlari pedagogik va ilmiy faoliyatida qo'llaydi.

Nazariy fizika fanini o'qitishda yangi ta'lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo'llanmalar, virtual laboratoriyalar, internet ma'lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o'quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo'yicha ma'lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta'lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolli o'yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o'qitilishi amalga oshiriladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Nazariy fizika fanini o'qitishdan maqsad – talabalarda, bo'lajak fizika o'qituvchisiga zarur bo'lgan darajada: makro- va mikro dunyoda modda va maydonning harakat qonunlarini nazariy jihatdan asoslash, moddaning va uni tashkil etgan mikrozarralar xossalarini o'rganish, mikro va makroskopik sistemalarning turli holatlarini nazariyasi, ularning fizik modellari xaqida nazariy bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga nazariy fizika kursining bo'limlari (klassik mexanika, elektrodinamika, kvant mexanika hamda statistik fizika va termodinamika) doir tushunchalar, qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

Lagranj tenglamalari, mexanikadagi saqlanish qonunlarini, harakat tenglamalarini integrallashni, finit va infinit potentsial maydonlardagi harakat tebranma harakat qonunlari; muhitlar chegarasidagi elektr maydoni, vakuumda va muhitda elektromagnit maydon xususiyatlarini, Maksvell tenglamalarini, elektrodinamikaning eksperimental asoslarini, elektrostatik potentsiallarni; noaniqlik, moslik, qo'shimchalik kvant prinsiplari, operatorlar, Shredenger tenglamasi va uni yechish metodlari va misollarini, g'alayon nazariyasini; makroskopik sistemaning muvozanat va nomuvozantli holatlari, termodinamik potentsiallar, statistik sistemalarning kvant va klassik xususiyatlari, kvant sistemasi kanonik va mikrokanonik taqsimoti, ideal gaz xususiyatlari bilishdagi *bilimga*;

- nazariy fizika qonunlarini, teoremlarini, gipoteza va aksiomalarini isbot qila bilish, uning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunib, muayyan misollarni yecha olish kabi *ko'nikma*;

- talaba nazariy fizika kursining bo'limlariga doir amaliy mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan barcha mavzular bo'yicha masalalar yechish, seminar uchun

referatlarini tayyorlash, masalalarning hisob-kitob ishlarini o'tkazish, mavzular yuzasidan xulosalar chiqara olish, fizikaviy qonuniyatlarni o'zlashtirish, ularni keying pedagogic faoliyatlarida qo'llash *malakasiga ega bo'lishi kerak*;

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-MODUL. KLASSIK MEKANIKA

1-mavzu. Nazariy fizika va olam manzarasi

Olamning klassik manzarasi. Nazariy fizika fani maqsad va vazifalari. Gravitatsion, elektromagnit, kuchli va kuchsiz maydonlar. Ularning ta'sir doirasi. Olamning zamonaviy ilmiy konsepsiyasi.

2-mavzu. Fizika qonunlarining simmetriyasi

Simmetriya shartlari. Fizik tizimlarning yuqori va past simmetriyasi. Energiya saqlanish qonunini vaqt birjinsiligi bilan bog'liqligi. Impuls saqlanish qonunini fazo birjinsiligi bilan bog'liqligi. Impuls momentini saqlanish qonunini fazo izotropligi bilan bog'liqligi. Ko'chish, siljish va buralishga nisbatan fizik tenglamalarni invariantligi. Xarakat integrallari.

3-mavzu. Klassik mexikaning asosiy tushunchalari

Absolyut qattiq jism, absolyut erkin zarra, moddiy nuqta modeli, uzluksiz muhit modeli. Mazkur tushunchalarni klassik mexanika masalalarida qo'llash. Ularning qu'lanish doirasi.

4-mavzu. Eng kichik ta'sir prinsipi Lagranj funksiyasi, Lagranj tenglamalari

Klassik mexanikada variation prinsiplari. Ferma prinsipi. Eng kichik ta'sir prinsipi mohiyati. Euler tenglamalari. Absolyut erkin bitta zarra uchun Lagranj funksiyasi. Birinchi turdagi Lagranj tenglamalari.

5-mavzu. Potensial va nopotensial kuchlar uchun Lagranj tenglamalari

Ikkinchi turdagi Lagranj tenglamalari. Potensial kuchlar xossalari. Nopotensial kuchlar xossalari. Ikkinchi turdagi Lagranj tenglamalarini tuzish.

6-mavzu. Saqlanish qonunlari va Lagranj tenglamalari

Energiyani saqlanish qonunini birinchi tur Lagranj tenglamasidan keltirib chiqarish. Impuls saqlanish qonunini birinchi tur Lagranj tenglamasidan keltirib chiqarish. Impuls momentini saqlanish qonunini birinchi tur Lagranj tenglamasidan keltirib chiqarish.

7-mavzu. Kichik tebranishlar, erkin va majburiy tebranishlar

Chuzilgan (siqilgan) prujinaning elastiklik energiyasi. Prujining kichik (erkin) tebranishlari uchun Lagranj funksiyasini tuzish. Uning asosida Lagranj tenglamasini tuzish va yechish. Mos ravishda majburiy tebranishlar uchun Lagranj tenglamasini tuzish va yechish. Rezonans shartlarini o'rganish.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. M.S.Yaxyoev. K. Muminov. Nazariy mexanika. T.: O'qituvchi. 1992y.
2. A.Boydedaev. Maxsus nisbiylik nazariyasi. T.: TDPU. 2001y.
3. B.V.Мултановский. Курс теоретической физики. Классическая физика. М. Наука. 2000 г.
4. R.Bojoev, A. M. Xudayberganov, G. A. Kochetkov. Atom fizikasidan masalalar yechish uchun qo'llanma. Toshkent. Universitet. 1993 y.
5. E.N.Rasulov, U.SH.Begimqulov, K.R.Nasriddinov, SH.X.Ahmadjanova. Kvant fizikadan masalalar to'plami. N.: TDPU. 2004 y.
6. A.Boydedaev. Klassik statistik fizika. T.: O'zbekiston. 2003y.
7. A.Boydedaev. Nomuvozanati statistik fizika asoslari. T.: O'qituvchi, 1992 y.
8. R.Mamatqulov va boshqalar. Statistika fizika va termodinamikadan masalalar to'plami, O'qituvchi, 2000 y.
9. G.X.Xoshimov, R.Ya.Rasulov, N.X.Yo'ldoshev. "Kvant mexanika asoslari". T.: "O'qituvchi", 1999 y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

10. **Мирзиёев Ш.М.** Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2016. - 56 б.
11. **Мирзиёев Ш.М.** Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг қундалиқ қондири бўлиши керак. Мамаляқатимизни 2016 йилда ижтимоий-иктисодий ривожлантиришнинг асосий яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 14 январ / Ш.М. Мирзиёев. – Тошкент : Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
12. **Мирзиёев Ш.М.** Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тарақиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза. 2016 йил 7 декабр / Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б.
13. **Мирзиёев Ш.М.** Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. Мазкур китобдан Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2016 йил 1 ноябрдан 24 ноябрга қадар Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри сайловчилари вакиллари билан ўтқизилган сайловолди учрашувларида сўзлаган нутқлари ўрин олган. /Ш.М.Мирзиёев. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
14. Ўзбекистон республикаси президентининг фармони. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича харақатлар стратегияси

25. Vodorod atomi uchun Shryodinger tenglamalari
26. Pauli prinsipi nima?

Statistik fizika va termodinamika

1. Fenomenologik termodinamika va statistik metodlarning mohiyati nimadan iborat
 2. Nima uchun ko'p sonli zarralardan iborat sistemalarning holatini mexanik yo'l bilan ifodalash mumkin emas
 3. Statistik fizika nima uchun fazoviy fazo fazoviy nuqta statistik ansambli tushunchalari ishlatiladi
 4. Sistemaning holatini makroskopik va mikroskopik ifodalash deganda nimani tushunasiz
 5. Statistik fizikaning matematik asosini qaysi nazariya tashkil qiladi
 6. Sistemaning termodinamik ehtimoli deganda nimani tushunish kerak
 7. Gibbsning mikrokanonik taqsimot qanday sistemaga tegishli
 8. Kanonik taqsimot funksiyasi nima va qanday sistemalarda qo'llaniladi
 9. Ochiq sistemalar uchun qaysi taqsimot funksiyasi qo'llaniladi
 10. Issiqlik va ish bir – biridan nima bilan farq qiladi
 11. Termodinamika I – qonunining ma'nosi nima va u qanday topilgan
 12. Termodinamika I – qonunining issiqlik sig'imi taqdim qiling
 13. I – qonunining turli izojarayonlarga taqdim qiling
 14. Tabiatdagi qaytar va qaytmaz jarayonlar nima. Termodinamika II – qonuni nima uchun kiritilgan
 15. Termodinamik funksiyalar yoki potentsiallar metodikasining mohiyati nimadan iborat
 16. Maksvell munosabatlari nima va undan qanday foydalaniladi
 17. Kimyoviy potentsial tushunchasining ma'nosi qanday
 18. Joule – Tomson effekti nimani ko'rsatadi
 19. Musbat va manfiy effektlarning farqi qanday
 20. Nernst teoremasining mohiyati nimadan iborat
 21. Nernst teoremasiga Plank qanday xissa qo'shgan
 22. Fazo va komponentlar tushunchalarini tarifi
 23. Gibbsning fazolar qoidasi nimani ko'rsatadi
 24. I tur fazoviy o'tishlar nima va uni tarifi
 25. Klapeyron – Klauzius tenglamasi nimani ifodalaydi
 26. Erenfest tenglamalarining ma'nosini tushuntiring
 27. Kritik xolat nima. Uni tushuntiring
 28. Uchlik nuqta deganda nimani tushunish kerak
 29. Entropiya tushunchasi nima va u qanday kirib kelgan
 30. Turli ko'rinishdagi Maksvell tengliklar taqsimotini yozing va tushuntiring
 31. Bolsman taqsimotida barometrik formulani toping
 32. Real gaz uchun xolat integralini xisoblash
 33. Statistik fizikada Van – der – Waals tenglamasini toping
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

8-mavzu. Markaziy simmetrik maydonda zarra xarakati

Markaziy simmetriyaga ega potentsial maydonlarning xususiyatlari. Elektrostatik, gravitatsion maydonlar uchun Gauss teoremasi. Markaziy simmetrik maydonda zarra xarakati traektoriyalari. Markaziy simmetrik maydonda zarra xarakati integrali: impuls momenti, to'la energiya. Markaziy simmetrik maydonda zarra xarakati tenglamasi. Ikki jism masalasi.

9-mavzu. Markaziy simmetrik maydonda zarra sochilishi

Rezerford formulasi. Effektiv va to'liq sochilish kesm tushunchasi. Differensial va integral sochilish kesimi. Markaziy simmetrik maydonda zarra sochilishi kesimi. Kulon maydonida zaryad sochilishi kesimi xisoblash.

10-mavzu. Qattiq jism mexanikasi, inersiya momenti tenzori

Uzlusiz muxit taqribi. Uzlusiz muxit uchun N'yuton dinamika qonunlari. Qattiq jismining murakkab xarakati. Qutb tushunchasi. To'g'ri geometrik shaklga ega qattiq jismlarning inersiya momentini nazariy yo'l bilan aniqlash. Qattiq jism inersiya momenti tushunchasi. Qattiq jismining massa markazi.

11-mavzu. Kanonik tenglamalar, Puasson qavslari

Klassik mexanikada kanonik, kontakt va urinma almashitirishlar. Gamilton-Yakobi tenglamalari. Qo'sh fizik kattaliklar. Puasson qavslarini xisoblash.

12-mavzu. Zarralar to'qnashishining nazariyasi

Zarralarning elastik va noelastik toqnashuvlari. Zarralarning absolyut elastik va noelastik toqnashuvlari. Tiklanish koeffitsienti. Ikki zarra to'qnashuvi. Markaziy toqnashish. To'qnashuvlarda saqlanish qonunlari. Massa markazi va laborator sistemalar.

13-mavzu. Relyativistik mexanikaga kirish. Lorens almashitirishlari

Mahsus nisbiylik nazariyasi postulatlar. Yorug'lik tezligini sanoq sistemaga bog'liq emasligi. Yaqin ta'sir tamoyili. Lorens almashitirishlarini keltirib chiqarish. To'rt o'lchovli fazo-vaqt.

14-mavzu. Parametrik rezonans

Rezonans sharti. Mexanik sistemalarda rezonans shartini o'rganish. Diskret mexanik tizimlarda parametrik rezonans bo'lish shartlarini o'rganish. Mos ravishda Lagranj tenglamalarini echish.

15-mavzu. Uzlusiz muhit mexanikasi elementlari

Ideal suyuqlik uchun Bernulli tenglamalarini echish. Bernulli va Eyley tenglamalarini integrallash. Gaz dinamikasi tenglamalari. Nav'e-Stoks tenglamasi.

16-mavzu. Diskret mexanika elementlari

Mexanizmlar va mashinalar ishlash prinsiplari. Bo'lanish turlari. Krivoship-shatunli mexanizmlar. Tasmali uzatishlar. Tishli uzatishlar. Diskret mexanik sistemalar.

17-mavzu. Zarba nazariyasi elementlari
Zarba (kuch) impulsi. Zuriqish. Jismlarning o'ta kuchli to'qnashuvi. Elastik va plastik deformatsiya. Zarba nazariyasining asosiy teoremlari.

18-mavzu. Ko'p erkinlik darajasiga ega mexanik sistemalarning tebranishlari

Sistemani erkinlik darajasini aniqlash usullari. Ikki o'zaro bog'langan mayatniklarni tebranishi. Turg'un tebranishlar. Tebranishlar spektri.

19-mavzu. O'zgaruvchan massali mexanika elementlari

Reaktiv xarakat. Reaktiv xarakat uchun Mesherskiy tenglamasi. Ikki, uch, to'rt va n-bosqichli raketa. Siolkovskiy formulasi.

2-MODUL. ELEKTRODINAMIKA

20-mavzu. Elektrodinamikaga kirish.

Elektrodinamikaning predmeti, ob'ekti, asosiy tushunchasi, matematik apparati

21-mavzu. Elektromagnit o'zaro ta'sir
Elektromagnit o'zaro ta'sir va uning xarakteristiklari. Foton

22-mavzu. Elektr zaryadi va elektromagnit maydon
Elektr zaryad, zaryad zichligi. Vakuumdagi elektromagnit maydon

23-mavzu. Elektromagnit maydonning zaryadli zarraga ta'siri
Elektromagnit maydonning zaryadli zarraga ta'siri. Lorens kuchi

24-mavzu. Elektrodinamikaning eksperimental asoslari
Elektrodinamikaning eksperimental asoslari

25-mavzu. Elektromagnit induksiya hodisasi
Elektromagnit induksiya hodisasi. Maksvell siljish toki

26-mavzu. Elektrodinamikada sababiyat prinsipi
Maksvell-Lorens tenglamalari. Elektrodinamikada sababiyat prinsipi

27-mavzu. Elektromagnit maydon energiyasi
Elektromagnit maydon energiyasi, energiyaning saqlanish qonuni

28-mavzu. Elektromagnit maydon impulsi
Elektromagnit maydon impulsi, impulsning saqlanish qonuni

11.Bio-Savar-Laplas qonunini Kulon qonunidan keltirib chiqarish (magnit maydonning relyativistik xarakteri)

12.Foton – relyativistik zarra. Yulduzlar aberratsiyasi. Doppler effekti

13.Gravitatsiya maydoni va vaqt-fazo metrikasi. Energiya-impuls tenzori. Eynshteyn tenglamasi (isbatsiz)

14.Olamning kengayishi. Xabbl qonuni. Singulyarlik

15.Dipol nurlanish

16.Kulon nurlanish

17.Kvadropol nurlanish

18.Oktupol nurlanish

19.Potensialni multipollarga yoyish

20.Maksvell tenglamalari

21.To'liq tenglamasini Dalamber usulida echish

22.To'liq zonasi

23.Maxsus nisbiylik nazariyasi elementlari

24.Plazma fizikasi elementlari

25.Vektor va tenzor analiz elementlari

Kvant mexanika

1. Atomning qanday modellarini bilasiz va ularni qanday tushuntirasiz

2. Shryodinger tenglamasi qanday yoziladi va u nimani ifodalaydi

3. Absolyut qora jismining nurlanishini tushuntirish uchun Reley Jinslar qanday formulani taklif qilishdi

4. Geizenberg noaniqlik munosabatlari nima va ularning ma'nosi qanday

5. Absolyut qora jismining nurlanishi uchun Vin formulasini yozing va ma'nosini tushuntiring

6. To'liq funksiyaning statistik talqinini tushuntiring

7. Plank, absolyut qora jismining nurlanishini qanday tushuntirdi

8. Qanday tajribalar de Broyl g'oyasining to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi

9. De Broyl to'liqini nima va u boshqa to'liqlardan farq qiladimi

10.Plank formulasidan Reley-Jins va Vin formulasini toping

11.Fotoeffekt nima va u kvant mexanikaning rivojlanishida qanday o'rin tutadi

12.Nimaga asoslanib, de Broyl o'zining gipotezasini o'rtaga tashladi

13.Fotoeffekt uchun Eynshteyn tenglamasining metodologik ahamiyati nimadan iborat

14.Kompton effekti nima va u nimani ko'rsatadi

15.Jermer-Devission tajribasi nimani ko'rsatadi

16.Vodorod atomining spektral seriyalarini chizing

17.Atom tuzilishini tushuntirishda Rezerford tajribasi qanday o'rin tutadi

18.Vodorod atomining Bor nazariyasini tushuntiring

19.Frank-Gers tajribasi nima va uning natijasi nimani ko'rsatadi

20.Eynshteyn kvant mexanikaning rivojlanishiga qanday hissa qo'shgan?

21.Kvant mexanikadagi Puasson kavlari nima va ular nimani ko'rsatadi?

22.Kvant mexanikaning matematik apparati

23.Cheksiz chuqur potentsial o'ra va undagi zarrani o'rganish

24.Kvant sonlari

7. Akustik to'liqin xarakteristikalarini, qaytish va sinish qonunlari
8. To'la mexanik energiya
9. Nuqtaning harakat differensial tenglamalari.
10. Erkin va majburiy tebranma harakat.
11. So'nuvchi tebranishlar. Ishqalanish mavjud xoldagi majburiy tebranishlar.
12. Kepler masalasi.
13. Fizik kattaliklar va xalqaro birliklar sistemasi
14. Samolyot qanotiga ta'sir etuvchi kuchlar
15. Yer aylanishining harakatdagi jismga ta'siri
16. Qattiq jismning qo'zg'almas o'q atrofidagi aylanma harakat dinamikasining differensial tenglamasi.
17. Turli shakldagi jismlarning inersiya momenti uni hisoblash usullari.
18. Sanoq sistemalarini tanlash ko'nikmalari
19. Nochiziqli tebranishlar
20. Rezerford formulasi
21. Nochiziqli tebranishlar
22. Mexanik zo'riqlashlar
23. Eyley tenglamalari
24. Tenzorlar ustida amallar
25. Eyley burchaklari
26. Lagranj tenglamasi va variatsion printsip.
27. Puasson qavslari. Liuvill teoremasi.
28. Kanonik tenglamalar. Gamilton-Yakobi tenglamalari.
29. O'zgaruvchilarni almashtirish. Adibatik invariantlar.
30. Ta'sir-burchak o'zgaruvchilari va ularning xossalari.
31. Kanonik o'zgaruvchilar. Adibatik invariantning saqlanish aniqligi.
32. Maxsus xarakat integrallari
33. Laplas teoremasi
34. Stoks formulasini keltirib chiqarish

Elektrodinamika

1. Zaryadlar sistemasining dipol va kvadrupol momentlari
2. Magnit moment va uning xossalari
3. Kechikuvchi va o'zuvchi potentsiallar
4. To'liqin kutblanishi. Dipol nurlanish. Elektromagnit to'liqin fazasining relyativistik invariant miqdorligi
5. Nurlanish reaksiyasi. Nurlanish spektr chizig'ining kengligi
6. Magnitlanish, kutblanish va ularning vektori
7. Skin effekt. Chiziqli o'tkazgichlarda kvazistasionar toklar. Kvazistasionar magnit maydon energiyasi
8. Elektromagnit to'liqinning muhitda tarqalishi va muhitdan qaytishi
9. Dalamber tenglamalarining kovariant ifodasi. Lorens shartining kovariant ifodasi
10. Elektromagnit maydon invariantlari. Elektr va magnit maydonlarni almashtirish

29-mavzu. Elektromagnit maydon potentsiallari
Elektromagnit maydon potentsiallari. Skalyar potentsial

30-mavzu. Elektromagnit maydon potentsiallari
Elektromagnit maydon potentsiallari. Vektor potentsial.

31-mavzu. Statsionar elektromagnit maydon
Statsionar elektromagnit maydon.

32-mavzu. Elektromagnit to'liqlar
Elektromagnit to'liqlar.

33-mavzu. Relyativistik elektrodinamika
4-kattaliklar. Ularning mazmuni. 3-kattaliklar bilan bog'lanishi.

34-mavzu. Relyativistik elektrodinamika
Elektrodinamikaning relyativistik ifodasi.

35-mavzu. Modda (muhit)dagi elektromagnit maydon
Modda (muhit)dagi elektromagnit maydon.

36-mavzu. Modda (muhit)dagi elektromagnit maydon xususiyatlari
Modda (muhit)dagi elektromagnit maydon xususiyatlari.

37-mavzu. Modda (muhit)dagi elektromagnit maydon energiyasi
Modda (muhit)dagi elektromagnit maydon energiyasi.

38-mavzu. Modda (muhit) dagi elektromagnit maydon impuls
Modda (muhit) dagi elektromagnit maydon impulse.

3-MODUL. KVANT MEXANIKA

39-mavzu. Kvant mexanika eksperimental asoslari
Kvant mexanika eksperimental asoslari. Klassik mexanikaning qo'llanilish chegaralari va kvant mexanikaning paydo bo'lishi.

40-mavzu. Kvant fizikaning vujudga kelishi-issiqlik nurlanishi
Kvant fizikaning vujudga kelishi-issiqlik nurlanishi. Reley-Jins, Vin va Plank formulalari.

41-mavzu. Yorug'likning korpuskulyar nazariyasi
Yorug'likning korpuskulyar nazariyasi. Fotoeffekt va uning qonunlari

42-mavzu. Yorug'lik kvanti-fotonning moddalarda sochilishi

Yorug'lik kvanti-fotonning moddalarda sochilishi. Kompton effekti. Atomning barqarorligi, Spektral seriyalar va energetik sathlar.

43-mavzu. Vodorodsimon atomlar uchun Bor modeli
Vodorodsimon atomlar uchun Bor modeli. Yadro harakatiga tuzatish. Bor nazariyasining eksperimental tasdiqi

44-mavzu. Zararlarning to'liq xossalari
Zararlarning to'liq xossalari. De-Broyl g'oyasi va to'liqini. To'liq funksiya va uning ma'nosi.

45-mavzu. Geyzenberg noaniqlik munosabatlari
Geyzenbergning noaniqlik munosabatlari.

46-mavzu. Kvant mexanikaning matematik apparati
Chiziqli va qo'shma operatorlar. Ermit operatorlarning xususiy funksiyalari va qiymatlari. Ularning fizik ma'nosi va o'rtacha qiymati.

47-mavzu. O'rtacha qiymat va xususiy funksiya va xususiy qiymat
O'rtacha qiymat va xususiy funksiya va xususiy qiymat. Operatorlar

48-mavzu. Shryodingerning statsionar va nostaatsionar tenglamalari
Shryodingerning statsionar va nostaatsionar tenglamalari, sababiyat prinsipi, to'liq funksiyaning statistik talqini. Ehtimollar zichligining uzluksizlik tenglamasi.

49-mavzu. Klassik mexanika-kvant mexanikaning chegaraviy xoli sifatida
Klassik mexanika-kvant mexanikaning chegaraviy xoli sifatida. Puasson qavslari. Saqlanish qonunlarining fazo, vaqt simmetriyasi bilan bog'lanishi.

50-mavzu. Bir o'lichamli fazoda-Shryodinger tenglamalarini yechish
Bir o'lichamli fazoda-Shryodinger tenglamalarini yechish. Potensial o'ra masalasi. Garmonik ossilyator. Potensial to'siq va tunnel effekt

51-mavzu. Vodorod atomining kvant mexanik nazariyasi
Vodorod atomining kvant mexanik nazariyasi. Vodorod atomi uchun Shryodinger tenglamasi va uni yechish.

52-mavzu. Shryodingerning radial tenglamasi
Rotator. Shryodingerning radial tenglamasi. Vodorod atomi; to'liq funksiyalar; energetik spektrlar. Kvant sonlari va ular yordamida holatlarni tavsiflash. Atom tuzilishi. Atomdagi "elektron buluti".

53-mavzu. Spin. Shtern-Gerlax tajribasi
Spin. Shtern-Gerlax tajribasi. Paulining ma'n etish prinsipi. Kvant sonlari. Mendeleev elementlar davriy sistemasi

2. Kvant mexanikaning matematik apparati.
3. O'rtacha qiymat va xususiy funksiya va xususiy qiymat.
4. Operatorlar
5. Zararlarning to'liq xossalari. De-Broyl formulalari va to'liqini
6. Bir o'lichamli fazoda-Shryodinger tenglamalarini yechish.
7. Potensial o'ra masalasi
8. Vodorod atomining kvant mexanik nazariyasi.
9. Vodorod atomi uchun Shryodinger tenglamasi va uni yechish
10. Eynshteynning nurlanish nazariyasi va uning koefitsientlari.
11. Lazerlar
12. Spin. Shtern-Gerlax tajribasi. Paulining ma'n etish prinsipi
13. Zaralar sistemasining kvant mexanikasi. Fermionlar va bozonlar.

Statistik fizika va termodinamika

1. Statistik fizikaning asosiy tushunchalari: o'rtacha kattaliklar, mikroskopik holat va statistik ansambl, taqsimot funksiyasi, termodinamik ehtimollik
2. Gibbsning mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimot funksiyalari, holat integrali
3. Statistik termodinamikani asosiy munosabati. Issiqlik va ish. Termodinamikaning I – qonuni va uning tatbiqi. Holat tenglamalari
4. Qaytar va qaytmas jarayonlar. Termodinamikaning II–qonuni. Entropiya. Termik va kalorik holat tenglamalari orasidagi bog'lanish
5. Kanonik taqsimotdan Maksvell-Bolsman taqsimotini topish. Maksvell tezliklar taqsimoti. Barometrik formula
6. Fazalar muvozanati. Gibbsning fazalar qoidasi
7. Birinchi va ikkinchi tur fazaviy o'tishlar. Klapeyron-Klauzius va Erenfest tenglamalari. Kritik holat. Uchlik nuqta
8. Real gazlar statistikasi. Van-der-Vaals tenglamasi
9. Kvant statistik fizika. Fermionlar va bozonlar. Fermi-Dirak va Boze-Eynshteyn taqsimot funksiyalari
10. Fermi-Dirak statistikasi tatbiqi. Zonalar nazariyasi. Past temperaturali ob'ektlar
11. Boze-Eynshteyn statistikasi tatbiqi. Fotonlar. Plank formulalari
12. Qattiq jismlarning issiqlik sig'imi. Eynshteyn va Debay nazariyalari. Fotonlar
13. Fluktuatsiya nazariyasi. Termodinamik parametrlarning fluktuatsiyasi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Klassik mexanika

1. Klassik mexanikada saqlanish qonunlari va kosmik tezliklar
2. Jismlarning suyuqliklarda suzish va cho'kish shartlari
3. Inersial sanoq sistemasi va nisbiylik prinsipi
4. Moddiy nuqtalar sistemasi mexanikasi
5. Tebranma xarakat va uning tenglamasi
6. Muhitda tebranma harakat

3. Statistika termodinamikani asosiy munosabati. Issiqlik va ish. Termodinamikaning I – qonuni. Holat tenglamalari va ular orasidagi bog'lanish
4. Kanonik taqsimotdan Maksvell-Bolsman taqsimotini topish. Maksvell tezliklar taqsimoti. Barometrik formula
5. Real gazlar statistikasi. Van-der-Vaals tenglamasi
6. Boze-Eynshayn statistikasining tabiqi. Fotonlar. Plank formulalari
7. Qattiq jisimlarning issiqlik sig'imi. Eynshayn va Debay nazariyalari. Fotonlar
8. Fluktuatsiya nazariyasi. Termodinamik parametrlarning fluktuatsiyasi
9. Broun xarakati. Eynshayn-Smoluxovskiy tenglamasi
10. Nomuvozanatli holat nazariyasi asoslari. Yahlit muxitdagi saqlanish qonunlari

Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'satma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Klassik mexanika

1. Fizika qonunlarining simmetriyasi
2. Eng kichik ta'sir prinsipi Lagranj funksiyasi, Lagranj tenglamalari
3. Saqlanish qonunlari va Lagranj tenglamalari
4. Markaziy simmetrik maydonda nuqta harakat
5. Kulon maydonida zaryad harakati
6. Kuchsiz tortish maydoni
7. Kichik tebranishlar
8. Bir o'lchamli erkin tebranishlar. Majburiy tebranishlar.
9. So'nuvchi tebranishlar. Ishqalanish mavjud xoldagi majburiy tebranishlar.
10. Puasson qavslari. Liuvill teoremasi.
11. Gamilton-Yakobi tenglamalari
12. O'zgaruvchilarni almashtirish. Adibatik invariantlar.
13. Zarraning sochilish kesimi

Elektrodinamika

1. Elektrodinamikaning predmeti, ob'ekti, asosiy tushunchasi, matematik apparati
 2. Vakuumdagi elektromagnit maydon
 3. Elektromagnit maydon energiyasi, zichligi va energiyasi oqimining zichligi
 4. Energiyaning saqlanish qonuni. Elektromagnit maydon impulsi.
 5. Elektromagnit induksiya hodisasi. Maksvell siljish toki
 6. Elektromagnit maydon potentsiallari. Skalyar va vektor potentsiallar
 7. Elektrodinamikaning relyativistik ifodasi
 8. Modda (muhit) dagi elektromagnit maydon
 9. Modda (muhit) dagi elektromagnit maydon energiyasi va impulsi
- Kvant mexanika**
1. To'liq funksiyaning statistik talqini va extimolyat

54-mavzu. Zarralar sistemasining kvant mexanikasi

Zarralar sistemasining kvant mexanikasi. Fermionlar va bozonlar. Vodород molekulasining hosil bo'lishi. Almashinuv energiyasi. Aynan bir hil zarralar sistemasi. Zarralarning aynanlik prinsipi. Spin va statistika orasidagi bog'lanish. Simmetrik va antisimmetrik holatlar. Pauli prinsipi. Kvant mexanikaning taqribiy metodlari.

55-mavzu. Relyativistik kvant mexanika asoslari.

Relyativistik kvant mexanika haqida tushuncha. Olamning ilmiy manzarasi haqida.

4-MODUL. STATISTIK FIZIKA VA TERMODINAMIKA

52-mavzu. Statistika fizika va termodinamikaning predmeti va metodi

Statistika fizika va termodinamikaning predmeti va metodi: a) sistema holatini termodinamik tavsiflash; b) sistema holatini dinamik tavsiflash; v) muvozanatli va nomuvozanatli holatlar.

53-mavzu. Makroskopik sistema va uning turlari.

Makroskopik sistema va uning turlari. Mikroskopik parametrlar. Muvozanatli va nomuvozanatli holatlar. Sistemaning mikroholatlari. Fazaviy fazo, fazaviy nuqta, fazaviy trayektoriya.

54-mavzu. Statistika fizikaning asosiy tushunchalari

Statistika fizikaning asosiy tushunchalari va prinsiplari. Vaqt va ansambli bo'yicha o'rtaqlash. Statistika fizikadagi holat. Fazaviy fazo, fazaviy nuqta, fazaviy trayektoriya.

55-mavzu. Fluktatsiya. Muvozanatli holat.

Fluktatsiya. Muvozanatli holat. Termodinamik ehtimollik. Statistika vazn. Taqsimot funksiyalari.

56-mavzu. Gibbsning mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimot funksiyalari

Gibbsning mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimot funksiyalari, holat integrali.

57-mavzu. Statistika termodinamikani asosiy munosabati

Termodinamik taqsimot. Parametrlar. Issiqlik va ish, ichki energiya. Entropiya.

58-mavzu. Termodinamikaning birinchi qonuni. Holat tenglamalari.

Termodinamikaning birinchi qonuni; Holat tenglamalari. Qaytar va qaytmay jarayonlar. Sikllar.

59-mavzu. Nomuvazanatli, qaytmas jarayonlar; Jarayonlarning qaytuvchanlik va qaytmaslik shartlari.

Nomuvazanatli, qaytmas jarayonlar; Jarayonlarning qaytmaslik shartlari. Termodinamikaning ikkinchi qonuni. Ikkinchi qonunning miqdoriy munosabati.

60-mavzu. Gibbsning umumiy formulasi.

Gibbsning umumiy formulasi. Termodinamik potentsiallar ichki energiya va uning o'zgarishi. Erkin energiya va uning o'zgarishi.

61-mavzu. Entalpiya. Gibbs va Gelmols termodinamik potentsiallari.

Entalpiya. Gibbs va Gelmols termodinamik potentsiallari. Kimyoviy potentsial. Termodinamikaning uchinchi qonuni. Nernst teoremasi. Past temperaturalarini olish metodlari.

62-mavzu. Gomogen va geterogen sistemalar. Fazaviy o'tishlar.

Gomogen va geterogen sistemalar. Fazaviy o'tishlar. Klapeyron-Klauzius tenglamasi. Birinchi va ikkinchi tur fazaviy o'tishlar. Ideal gaz. Eng katta ehtimoliy taqsimot. Maksvell taqsimoti. Termodinamik parametrlar orasida bog'lanish.

63-mavzu. Maksvell-Boltsman taqsimoti. Barometrik formula

Maksvell-Boltsman taqsimoti. Barometrik formula. Real gaz. Xolat tenglamasi; Van-der-Vaals tenglamasi. Energiyaning teng taqsimoti qonuni.

64-mavzu. Kvant statistik fizika. Mikroholat. Fermionlar. Bozonlar.

Kvant statistik fizika. Mikroholat. Fermionlar. Bozonlar. Fermi-Dirak va Boze-Eynshteyn statistiklari. Elektron sistema uchun aynish temperaturasi. Plank formulasi. Reley-Jins qonuni. Vin qonuni. Stefan-Boltsman qonuni. Dyulong-Pji qonuni.

65-mavzu. Eynshteyn nazariyasi. Debay nazariyasi. Fononlar.

Eynshteyn nazariyasi. Debay nazariyasi. Fononlar. Fluktuatsiya nazariyasi. Termodinamik parametrlar fluktuatsiyalari. Broun harakati.

66-mavzu. Fluktuatsion-dissipatsion teorema. Fazaviy korrelyatsiya.

Fluktuatsion-dissipatsion teorema. Fazaviy korrelyatsiya. Boltsmannning kinetik tenglamasi va uni relaksatsiya vaqti yaqinlashish uslubida yechish.

IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yich ko'satma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Klassik mexanika

1. Bir to'g'ri chiziqdagi kuchlar
2. Tekislikdagi kuchlar sistemasi
3. Fazodgi kuchlar sistemasi
4. Harakat turlari

5. Harakat tenglamalarini tuzish
6. Harakat tenglamalarini yechish
7. Lagranj tenglamalarini olishga doir masalalar yechish
8. Lagranj tenglamalarini olishga doir masalalar yechish
9. Bir o'lehamli erkin tebranishlarga doir masalalar yechish.
10. Majburiy tebranishlar doir masalalar yechish.
11. Puasson qavslarining kanonik invariant sifatida ishlatilishiga doir masalalar yechish.
12. Eng kichik ta'sir prinsipiga doir masalalar yechish
13. Kepler masalasini ta'sir-burchak o'zgaruvchilari orqali o'rganishga doir masalalar yechish.

Elektrodinamika

1. Lorens kuchi va siklotron chastotaga doir misollar
2. Kulon va Bio-Savar-Laplas qonunlariga doir misollar
3. Faradey elektroliz qonunlariga doir misollar
4. Stasionar toklar maydoniga doir misollar
5. Zaryadlar sistemasiga doir misollar
6. Nurlanish chizigining kengligiga doir misollar
7. Kirxgoff qoidalariga doir misollar
8. Tezliklarni qo'shishga doir misollar
9. Vaqt va uzunlik mashtablari nisbiyligiga doir misollar
10. Eynshteyn formulasi $E = mc^2$ tadbqiqiga doir misollar

Kvant mexanika

1. Kvant fizikaning vujudga kelishi issiqlik nurlanishi. Reley-Jins, Vin va Plank formulalari
2. Yorug'lik kvanti- foton ning moddalarda sochili shi. Kompton effekti
3. Spektral seriyalar va energetik sathlar
4. Vodorodsimon atomlar uchun Bor modeli.
5. Yadro harakatiga tuzatish. Bor nazariyasining eksperimental tasdig'i.
6. Zararlarning to'liqin xossalari. De-Broyl formulalari va to'liqini
7. To'liqin funksiyaning statistik talqini va extimolyat.
8. Kvant mexikaning matematik apparati. O'rta qiyamat va xususiy funksiya va xususiy qiyamat. Operatorlar.
9. Vodorod atomining kvant mexanik nazariyasi.
10. Vodorod atomi uchun Shryodinger tenglamasi va uni yechish
11. Eynshteynning nurlanish nazariyasi va uning koeffitsientlari. Lazerlar
12. Kvant sonlari. Mendelev elementlar davriy sistemasi.
13. Geliy atomi va vodorod molekulasini

Statistik fizika va termodinamika

1. Statistik fizikaning asosiy tushunchalari: o'rta katta kichiklar, mikroskopik holat va statistik ansambl, taqsimot funksiyasi, termodinamik ehtimollik va uni hisoblash
2. Gibbsning mikrokanonik, kanonik va katta kanonik taqsimot funksiyalari, holat integrali

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTAMAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FIZIKA-MEHNAT FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi:
№__BD 5110200 -

2020-. «__» _____

«TASDIQLAYMAN»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ doc. M. Jumamuratov
«__» _____ 2020-yil

NAZARIY FIZIKA (KVANT MEXANIKASI)

fanining

ISHCHI FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta’lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta’lim yo‘nalishi: 5110200 - Fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi

№.	Mashg‘ulot turi	Ajratilgan soat ko‘lami	Semestr	
			V	VI
1	Ma’ruza	38		38
2	Amaliyot	24		24
3	Seminar	18		18
4	Mustaqil ta’lim	56		56
	Jami auditoriya soatlar	80		80
	Jami o‘quv soatlar	136		136

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Yavidov B. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

Atashov B. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrası dotsenti

Turdanov K. "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrası dotsenti

Fanning ishchi o'quv dasturi "Fizika o'qitish metodikasi" kafedrasining 2020- yil «____» - _____ dagi № ____ - sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

Kamalov A.

Fanning ishchi o'quv dasturi Fizika-mehnat fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2020-yil «____» _____ № __ - sonli bayonnoma).

Fakultet Kengashi raisi:

Ibragimov B.

Fanning ishchi o'quv dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan (2020-yil "____" _____ dagi ____-sonli majlis bayoni)

Kelishildi: O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

_____ Abdiev A.

Kirish

“Nazariy fizika” fani Klassik mexanika, Elektrodinamika, Kvant mexanikasi, Statistik fizika va termodinamika bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu fan 5110200 - fizika va astronomiya o‘qitish metodikasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga “Nazariy fizika kursi” sifatida o‘qitiladi.

Fanning maqsad va vazifalari

Nazariy fizika kusining "Kvant mexanikasi" bo‘limini o‘qitishdan maqsad – studentlarda, bo‘lajak fizika o‘qituvchisiga zarur bo‘lgan darajada: makro va mikro dunyoda modda va maydonning harakat qonunlarini nazariy jihatdan asoslash, moddaning va uni tashkil etgan mikrozararlar xossalarini o‘rganish, mikro va makroskopik sistemalarning turli holatlari nazariyasi, ularning fizik modellari haqida nazariy bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga Nazariy fizika kursining "Kvant mexanikasi" bo‘limiga doir mikroob‘yekt xossalari va holatlari, relyativistik kvant mexanikasi asoslari, yorug‘likning korpuskulyar xossalari, fotoeffekt, Kompton effekti, Frank-Gers tajribasi, mikroob‘yektning to‘lqin tabiati, korpuskulyar – to‘lqin dualizmi, to‘lqin funktsiya, Jermer-Devisson tajribasi, Geyzenbergning noaniqlik munosabatlari, chiziqli va o‘zaro qo‘shma operatorlar, xususiy funktsiyalar va xususiy qiymatlar, operator, chiziqli operator, operatorlarning kommutatori va antikommutatori, koordinata va impuls operatorlari, impuls momenti operatori, energiya operatori - gamiltonian, markaziy maydonda zarra harakati, vodorod atomi va energetik spektrlari, kvant sonlar, elektron spini, Shtern - Gerlax tajribasi, Pauli prinsipi, barqaror (stasionar) holat, erkin zarra, potensial o‘radagi zarra, tunnel effekt, chiziqli garmonik ossilyator, chiziqli garmonik ostillyator energiyasi spektri, atom nurlanishdagi spektr chiziqlari, energetik termlar, atom tuzilishi, elementlarning Mendelev davriy sistemasi, Xund qoidasi kabi hodisalar haqida to‘laqonli axborot berish, ularning mohiyatini ochib berish va studentlarga o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabaning malakasiga qo‘yiladigan talablar

Kursni o‘zlashtirishi jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida student

mikroob'ektlarning xossalari, relyativistik kvant mexanika asoslari *to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;*

yorug‘likning korpuskulyar xossalari, Frank-Gers tajribasi, korpuskulyar – to‘lqin dualizmi, Jermer-Devisson tajribasi, Geyzenbergning noaniqlik munosabatlari, markaziy maydonda zarra harakati, vodorod atomi va energetik spektrlari, elektron spini, Shtern - Gerlax tajribalari, Pauli prinsipi, kvant sonlar, mikroob‘yekt larning holatlari, to‘lqin funktsiya, chiziqli va o‘zaro qo‘shma operatorlar, xususiy funktsiyalar, xususiy qiymatlar, operatorlarning kommutatorlari, barqaror (stasionar) holatlar, erkin zarra, potensial o‘radagi zarra, tunnel effektini *bilishi va ulardan foydalana olishi;*

koordinata va impuls operatorlari, impuls momenti operatori, energiya operatori - gamiltonian, chiziqli garmonik ossilyator, chiziqli garmonik ostillyator energiyasi spektri, fotoeffekt, Kompton effekti, atom nurlanishdagi spektr chiziqlari, mikroob‘yektlarning to‘lqin tabiati, atom tuzilishi, Mendelev davriy sistemasi *ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim;*

O‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi

Nazariy fizika fani fizikaning barcha bo‘limlari, oliy matematikaning differentsial va integral hisobi, ehtimollar nazariyasi, analitik geometriya, vektorlar va tenzorlar tahlili kursi, matematik statistika, astronomiya va astrofizika, tabiiy-ilmiy va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘langan.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Nazariy fizika” fanini o‘qitishda yangi ta’lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar, virtual laboratoriyalar, internet ma’lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o‘quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo‘yicha ma’lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta’lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, diskussiya, rolli o‘yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o‘qitilishi amalga oshiriladi.

Ta'lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo'nalishning o'ziga xosligi talabning individualligiga alohida e'tibor berish orqali namoyon bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda «Elektrodinamika» kursining ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e'tibor berish kerak.

- *Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi.* O'z mohiyatiga ko'ra, bu yo'nalish ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilgan holda o'quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo'naltirilib qolmay, uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

- *Tizimli yondashuv.* Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyligi, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi.

- *Amaliy yondashuv.* Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta'lim jarayonini yo'naltirish; o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo'yadi.

- *Dialogik yondashuv.* Ta'lim jarayonidagi ishtirokchi sub'yektlarning psixologik birligi va o'zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.

- *Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.* Demokratiya, tenglik, sub'yektlar munosabatida o'qituvchi va talabning tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko'zda tutadi.

- *Muammoli yondashuv.* Ta'lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida o'quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob'yektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi.

- *Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,* ya'ni o'quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish. Yuqoridagi konseptual yondashuv va «Elektrodinamika» fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

- *O'qitish usullari va texnikasi:* muloqot, keys stadi, muammoli usul, o'rgatuvchi o'yinlar, "aqliy hujum", insert, "BBB" (Bilaman, bilmoqchiman, bildim), "Birgalikda o'rganamiz", pinbord, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferensiya, aniq holatlarni yechish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, Yakuniy).

- *O'qitishni tashkil qilish shakllari:* frontal, kollektiv, guruh, dialog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.

- *O'qitish vositalari:* odatdagi o'qitish vositalari (darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop) dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

- *O'zaro aloqa vositalari:* savol-javob orqali, elektron maktub orqali, nazorat (kontrol ish, test, yozma ish) natijalarining tahlili asosida o'qitishning diagnostikasi (tashxisi).

- *Boshqarishning usuli va vositalari.* O'quv mashg'ulotini texnologik xarita ko'rinishida rejalashtirish o'quv mashg'ulotining bosqichlarini belgilab, qo'yilgan maqsadga erishishda talaba va o'qituvchining hamkorlikdagi faoliyati talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

- *Monitoring va baholash.* O'quv mashg'uloti va butun kurs davomida o'qitish natijalarini kuzatib borish, talaba faoliyatini va uning o'zlashtirishini belgilangan tartibda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar orqali yil davomida reyting asosida baholab borish. Kursning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda studentning reyting bali asosan og'zaki savol-javob, masala yechish, o'tilgan mavzularini tushuntirib berish, formulalarni keltirib chiqarish va ularni o'qiy olish hamda qonunlarni talaffuz etish kabi mezonlar asosida aniqlanadi.

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (ma'ruza) fanning mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo'yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar to'la qamrab olinishi kerak. Asosiy qism sifatiga qo'yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari e'tiborga olinishi tavsiya etiladi.

"Nazariy fizika" (Kvant mexanikasi) fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarning kalendar tematik rejas

t/r	Ma'ruza mavzulari	Soat
1	Kvant mexanikasining predmeti va nazariy fizika kursida tutgan o'rni. Mikroob'ektlarning xossalari tavsiflashda klassik fizikaning zaifligi. Mikroob'ektlarning xossalari. Fizik kattaliklar qiymatlarining diskretligi.	2
2	Korpuskulyar-to'liq dualizmi. Geyzenbergning noaniqlik munosabati Mikrozarra xossalari ehtimoliy xarakterga egaligi	2
3	Kvant mexanikada mikroob'ektlarning holatlari. Mikro ob'ektlar holatlarining tavsifi. To'liq funksiya va uning ma'nosi	2
4	Superpozitsiya prinsipi. Kvant mexanikada kuzatiladigan kattaliklarni tavsiflash. Chiziqli va o'zaro qo'shma operatorlar. Ermit operatorlarining xususiy funksiyalari va xususiy qiymatlari. Ularning fizik ma'nosi.	2
5	Kuzatiladigan kattaliklarning o'rtacha qiymati. Operatorlarning kommutatorlari: Geyzenberg noaniqlik munosabati, kattaliklarning bir vaqtda o'lchanish (aniqlanish) shartlari. Koordinata va impuls operatorlari.	2
6	Erkin zarra va tashqi maydon ta'siridagi zarraning gamiltoniani. Impuls momentining operatori. Shredinger tenglamasi. Sababiyat prinsipi va Shredinger tenglamasi	4
7	Ehtimollar zichligining uzluksizlik tenglamasi. Klassik mexanika- kvant mexanikaning chegaraviy holi. Puasson qavslari. Saqlanish qonunlarining fazo, vaqt simmetriyasi bilan bog'lanishi.	2
8	Statsionar Shredinger tenglamasi. Statsionar holatlar va ularning xossalari. Erkin zarra. Potensial o'radagi zarra. Potensial bar'er (to'siq). Tunnel effekt Chiziqli garmonik ostsillyator. Uning energiya spektrlari va to'liq funksiyalari	4
9	Tanlash qoidasi. Markaziy simmetrik maydonda zarra harakati. Orbital moment operatorlarining xususiy funksiyalari va xususiy qiymatlari	2
10	Rotator. Shredingerning radial tenglamasi. Vodorod atomi; to'liq funksiyalar; energetik spektrlar. Kvant sonlari va ular yordamida holatlarni tavsiflash	2
11	Atom tuzilishi. Atomdagi "elektron buluti". Atomning Rezerford va Bor modelining tanqidi. Elektronning spini. Elektron va atomning harakat miqdorlarini turli momenti. Momentlarni qo'shish. Bog'lanish turlari	4
12	Majburiy va spontan nurlanishlarning Eynshteyn nazariyasi. Lazerlar. Aynan bir xil zarralar sistemasi. Zarralarning aynanlik prinsipi	2
13	Spin bilan statistika orasidagi bog'lanish. Bozonlar. Simmetrik holatlar. Fermionlar. Antisimmetrik holatlar. Pauli prinsipi. Kvant mexanikaning taqribiy metodlari	2
14	Chetlanishning (g'alayonlanishning) statsionar nazariyasi. Chetlanishning (g'alayonlanishning) nostatsionar nazariyasi.	2
15	Atomlar. Molekulalar. Geliy atomi. Vodorod molekulasini. Kimyoviy bog'lanishlarning tabiati va turlari. Valentlik. Atom va molekulalarning xossalari. Relyativistik kvant mexanika haqida tushuncha. Olamning ilmiy manzarasi haqida.	4
Jami		38

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotda talabalar asosiy mavzularga oid masalalar yechishni o'rganadilar.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra pedagoglari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimni oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

"Nazariy fizika" (Kvant mexanikasi) fani bo'yicha AMALIY mashg'ulotlarning kalendar tematik rejasi

t/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soat
